

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

YODGORALIYEV BOBURJON BAHODIR O'G'LI

**XX ASRNING 80- YILLARIDA O'ZBEKISTON SSR NI
BOSHQARGAN DAVLAT RAHBARLARI PORTRETIGA CHIZGILAR
(I.USMONXO'JAYEV, R.NISHONOV MISOLIDA)**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: Katta o'qituvchi
Kenjayev Erkinjonjon Habibullayevich**

Namangan – 2018

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. O'ZBEKISTON SSR RAHBARI INOMJON USMONXO'JAYEVNING PORTRETIGA CHIZGILAR	
1.1. Inomjon Usmonxo'jayevning tarjimai holi va mehnat faoliyati.....	9
1.2. Inomjon Usmonxo'jayev rahbarligi davridagi O'zbekiston SSRda "Paxta ishi" va uning oqibatlari.....	23
II BOB. O'ZBEKISTON SSR RAHBARI RAFIQ NISHONOV PORTRETIGA CHIZGILAR	
2.1. Rafiq Nishonov rahbarligi davrida O'zbekiston SSRning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.....	42
2.2. Rafiq Nishonov O'zbekiston SSR rahbarligi davrida Farg'ona fojeasi.....	57
XULOSA.....	74
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	78

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Mustaqillik sharoitida va tub islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy tiklanish, ma'naviy yangilanish, milliy o'zlik va o'ziga xoslikni yaxlit tarzda anglab yetgan, erkin demokratik tafakkurga ega bo'lgan va mustahkam milliy g'oya kuchi bilan birlashgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash vazifalarini hal etishda tarix fanining roli jiddiy ravishda ortib bormoqda. "O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz"¹. Mana shu sinovlarga boy o'tmish, so'nmas madaniyat o'zbek xalqini buyuk yorqin kelajak sari odim qadam tashlashga, qiyinchilik va sinovlarni yengib o'tishga undaydi, mushtarak maqsadlar yo'lida birlashtiradi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev aytganlaridek: "O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan yengib o'tishga qodir, deb baralla aytishga to'la asos beradi"².

Respublikamiz Birinchi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, "o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi"³, "milliy o'zlikni, milliy iftixorni tiklash va rivojlantirish jarayonida tarixiy xotira, xalqning, jonajon o'lkaning obyektiv tarixini, davlat hududini tiklash nihoyatda muhim ahamiyatga egadir"⁴. Mustaqillik yillarida tarix faniga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'tgan yillar mobaynida davlatimiz rahbarining ko'rsatmalari asosida Vatan tarixini mustaqillik ruhi bilan sug'orilgan holda xalqqa yetkazish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi. Zero, "...o'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q"⁵dir. Davlatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning respublika tarixchilari bilan uchrashuvda (1998-yil 26-iyun)

¹ Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 7.

² Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз... – Б. 7.

³ Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. – Б.5.

⁴ Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 34.

⁵ Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 4.

soʻzlagan nutqida, tarix fanining maʼnaviy salohiyatini safarbar etish, tarixiy haqiqatni tiklash sohasidagi harakatlarning keng dasturi, tanlangan mustaqillik va taraqqiyot yoʻlidan borib, moʻljallangan maqsadlarga erishishning mustahkam ilmiy asosi belgilab berildi.

Ana shu ijtimoiy muhim vazifalardan kelib chiqib, Vatanimiz tarixining ogʻir mustamlakachilik oʻtmishi bilan bogʻliq boʻlgan ayanchli sahifalariga bugungi kun nuqtai nazaridan qayta baho berish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ularga murojaat qilishga boʻlgan yuksak ijtimoiy ehtiyoj va uning ilmiy ahamiyati avval shu bilan belgilanadiki, sovet hokimiyati yillarida oʻtkazilgan mustabid siyosat oqibatida Vatan tarixi, uning sodiq farzandlari faoliyati soxtalashtirilib, buzib koʻrsatildi. Sovet hokimiyati tomonidan oʻzbek xalqiga nisbatan oʻz milliy taqdirini oʻzi erkin ravishda belgilash huquqi inkor etilishi, 70 yildan koʻproq davom etgan iqtisodiy va maʼnaviy zulm behad va uzoq muddatli buzgʻunchilik oqibatlariga olib keldiki, uning oqibatlari hali hanuz davom etib kelmoqda. Sovet davrida ham oʻzbek xalqining asl farzandlari yurt istiqboli, farovonligi va ozodligi yoʻlida tinim bilmay xizmat qildilar.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi Inomjon Usmonxoʻjayev va Rafiq Nishonovning Oʻzbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi rahbari sifatidagi faoliyatini alohida mavzu sifatida olib hozirgacha tarixchilar tomonidan oʻrganilmagani va uni oʻrganish ularning Oʻzbekiston SSRning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida rahbari sifatida tutgan oʻrnini ochish bilan birgalikda, uning murakkab va ziddiyatlarga boy boʻlgan hayot yoʻlini manbalar orqali yoritib berishdan iborat boʻladi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan turli sohalar qatori ilm-fan va ijtimoiy sohaga ham katta eʼtibor berib kelinmoqda. Bu sohada mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Abdugʻaniyevich Karimov boshchiliklarida juda katta ishlar amalga oshirildi. Bu siyosatning davomi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizning 2017-2021-yillarga moʻljallangan harakatlar strategiyasini belgilab beruvchi

maxsus PF – 4947-sonli Farmoni eʼlon qilindi⁶. Ushbu Farmonning 4-bobi “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari” deb nomlanib, uning 4.4-bandi taʼlim va fan sohasini rivojlantirishga moʻljallangan va unga quyidagi ustuvor masalalar belgilab berilgan:

- Uzluksiz taʼlim tizimini yanada takomillashtirish yoʻlini davom ettirish, sifatli taʼlim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

- Taʼlim muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish, kapital taʼmirlash, ularni zamonaviy oʻquv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va oʻquv-metodik qoʻllanmalar bilan jihozlash boʻyicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni koʻrish;

- Bolalar maktabgacha taʼlim muassasalari tarmogʻini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun maktabgacha taʼlim muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha taʼlim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini taʼminlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish;

- Umumiy oʻrta taʼlim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika, matematika, fizika, ximiya, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori boʻlgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda oʻrganish;

- Bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shugʻullanishga jalb qilish, ularni musiqa va sanʼat olami bilan bogʻlash maqsadida yangi bolalar sporti obʼektlarini, bolalar musiqa va sanʼat maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilish;

- Kasb-hunar kollejlari oʻquvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar boʻyicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

- Taʼlim va oʻqitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy taʼlim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini

⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF – 4947-sonli Farmoni. 1-ilova/ Lex.uz

oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

– Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish, kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Ushbu Farmonning 4.5-bandi “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” deb nomlanib, unda quyidagi masalalar belgilab berilgan:

– Jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

– O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb qilish; yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

– Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish;

– Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish, kabi masalalardir⁷.

2016-yilning yilning 18-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi saylovoldi kampaniyasi doirasida O'zLiDep partiyasidan nomzod Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyati saylovchilari bilan muloqot o'tkazgan edi.

Nomzod video konferensiya shaklida bo'lib o'tgan uchrashuvda o'z dasturi haqida ma'ruza qilib, Prezident sifatida saylansa nimalarga e'tibor berishi haqida g'oyalarini ilgari surdi. O'zLiDep nomzodi “Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik”

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF – 4947-sonli Farmoni / Lex.uz.

naqliga amal qilgan holda, sobiq Ittifoq tuzumida O'zbekistonda ko'pchilik olimu-fuzalolar, yurtning eng sara farzandlari, davlat arboblari nisbatan garchi ular o'zlari yashagan tuzumga xizmat qilgan bo'lsa-da, ularga nisbatan adolatsizlik qilingani haqida kuyunchaklik bilan so'z yuritdi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o'rganilish darajasi. “XX asr 80-yillarida O'zbekiston SSR ni boshqargan davlat rahbarlari portretiga chizgilar (I.Usmonxo'jayev, R.Nishonov misolida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi mavzusini o'rganish jarayonida Inomjon Usmonxo'jayev va Rafiq Nishonov ning hayoti va faoliyati haqida o'rgangan juda kam insonlar faoliyat yuritgani, lekin O'zbekiston SSRni XX asrning 80-yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlari tarixini ko'plab insonlar faoliyat yuritganini bilib olishimiz mumkin.

A. Azizxo'jayev, B. Isoqov, V. Ilyuxin, Sh.Karimov, R.Shamsutdinov, Q.Usmonov, M.Sodiqov, M.Jo'rayev, R.Nurullin, va boshqalarning xizmatlari katta⁸.

Bitiruv malakaviy ishi tadqiqotining davriy chegarasi. Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi qilib, Inomjon Usmonxo'jayev va Rafiq.Nishonov ning O'zbekistonga rahbarlik qilgan yillari, ya'ni 1983-yildan 1989-yilgacha bo'lgan davrni belgiladik.

Bitiruv malakaviy ishi maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi, XX asr 80-yillarida yurtimizni boshqargan davlat arboblari Inomjon Usmonxo'jayev va Rafiq Nishonov ning hayoti va siyosiy faoliyati haqida o'quvchilarga yetarlikcha ma'lumotlar berishdan iboratdir. Tadqiqotning vazifasi esa o'quvchilarga:

– Inomjon Usmonxo'jayev va Rafiq Nishonov ning hayoti va bosib o'tgan yo'llari;

⁸ Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. – Тошкент: Академия, 2003. – 144 б.; Исоқов Б. Истиклол – Истикбол Ибтидоси. – Наманган: Наманган. 2017. – 376 б.; В. Илюхин. Қабоҳат ёхуд...: («Ўзбек иши» деган уйдирма хусусида). – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 271 б.; Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. – T.: Meros. 2009. – 325 b.; Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917 – 1991-yillar). –T.: Sharq, 2014. – 212 b.; Нуруллин Р., Жўраев М. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Т.: Шарқ, 2000. – 684 б.; Бобоматов Т., Эргашев Ш. ХХаср: тақдирларда акс этган тарих. –Тошкент: O'zbekiston, 2014. – 214 б.

– Inomjon Usmonxo'jayev va Rafiq Nishonov ning rahbarligi davrida O'zbekistonning iqtisodiy ahvoli;

– Inomjon Usmonxo'jayev va Rafiq Nishonov ning rahbarligi davrida mamlakatimizning ijtimoiy ahvoli haqida ma'lumotlar berishdan iboratdir;

– Inomjon Usmonxo'jayev va Rafiq Nishonov ning rahbarligi davrida mamlakatimizning siyosiy ahvoli haqida ma'lumotlar berishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va uslubiy asoslari. Mavzuni yoritish jarayonida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida va yangi qabul qilingan Qarorlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o'rganish, xolislik va tarixiylik tamoyillariga asosiy e'tibor qaratishga oid g'oyalari nazariy asos vazifasini bajardi. Tadqiqot jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning kontseptual nuqtai-nazaridan idrok etishga, tarixiy voqealar xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi zamon tarix fani talablari asosida ochib berishga asosiy e'tibor qaratildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishidan kasb-hunar kollejlari va akademik liseylarda "O'zbekiston tarixi" fanidan hamda oliy o'quv yurtlari Tarix yo'nalishi bakalavrlari uchun "O'zbekiston tarixi" fanlaridan ma'ruza matnlari tayyorlashda, amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi mavzusining tuzilishi va hajmi kirish, ikkita bob, to'rtta paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yhati hamda jami 82 betdan iborat hisoblanadi.

I BOB. O'ZBEKISTON SSR RAHBARI INOMJON USMONXO'JAYEVNING PORTRETIGA CHIZGILAR

1.1. Inomjon Usmonxo'jayevning tarjimai holi va mehnat faoliyati

Usmonxo'jayev Inomjon Buzrukovich Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanida⁹ 1930-yil 21-may kuni tug'ilgan. Uning otasi Buzrukxo'ja Usmonxo'jayev davlat arbobi va KPSS a'zosi bo'lgan. Uning otasi Buzrukxo'ja Usmonxo'jayev 1917-1924-yillarda sovet hokimyatini Farg'ona vodiysida o'rnatilishida qatnashgan. Ma'lumotlarga ko'ra Inomjon Usmonxo'jayev otasi Buzrukxo'ja Usmonxo'jayev juda ko'plab davlat lavozimlarida ishlagan. Misol uchun 1923-1924-yillarda Rishton tumani komxozni mudiri, 1926-1927 va 1930-1933-yillarda Bag'dod tumani Ijroiyy Qo'mitasi raisi, 1943-1952-yillarda Farg'ona viloyati Ijroiyy Qo'mitasi raisi lavozimlarida ishlagan. Inomjon Usmonxo'jayev otasi Buzrukxo'ja Usmonxo'jayev juda ko'plab davlat lavozimlarida na'munali xizmatlari uchun 1971-yil 8-aprelda Sotsialistik Mehnat qahramoni, 3 marta "Lenin" Ordeni (23.12.1939; 16.01.1950; 8.04.1971), 4 marta "Mehnat qizil bayrog'i" Ordeni (25.12.1944; 23.01.1946; 11.01.1957; 30.04.1966), "Qizil yulduz" Ordeni (6.02.1947), "Hurmat belgisi" Ordeni (1.10.1945), O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan irrigatori unvonlari bilan taqdirlangan. Farg'ona shahrining markaziy ko'chalaridan biriga Buzrukxo'ja Usmonxo'jayevning nomi berilgan¹⁰.

Inomjon Usmonxo'jayev 1955-yilda O'rta Osiyo politexnika institutining arxitektura fakultetini tugatgan. U keyingi faoliyatini me'morchilikda davom ettirgan. Inomjon Usmonxo'jayev "Ferganavodstroy" qurilish birlashmasida mudir lavozimida ishlagan. 1958-yili KPSS ga a'zo bo'ldi. U shuningdek 1959-yil qayta qurilgan Marg'ilon shahri bosh me'mori bo'lgan. Inomjon Usmonxo'jayev 1960-yili Farg'ona viloyati partiya komiteti instruktori lavozimida ishlagan. Inomjon Usmonxo'jayev 1961-yili Farg'ona viloyati ijroiya qo'mitasida boshqarma boshlig'i bo'lgan, 1962-1964-yillarda Farg'ona shahri ijroiya qo'mitasi raisi,

⁹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-том. – Т.:Ўзбекистон, 2005. – Б. 141.

¹⁰ https://ru.wikipedia.org/wiki/Усмонходжаев,_Бузрукходжа .

1965-1969-yillarda Sirdaryo viloyati partiya komiteti kotibi, 1969-1972-yillarda KPSS MK instruktori lavozimida, 1972-1974-yillarda Namangan viloyati ijroiya qo‘mitasi raisi lavozimida, 1974-1978-yillarda Andijon viloyati partiya komiteti 1-kotibi bo‘lgan. Inomjon Usmonxo‘jayev 1978-yil 22-dekabrda, 1983-yil 20-dekabrgacha O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi, ayni paytda 1979-yil 18-apreldan 1983-yil 28-dekabrgacha SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisining o‘rinbosari lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. 1981-yil 3-martdan 1988-yil 28-noyabrgacha KPSS MK a‘zosi, 1984- yil 11-apreldan 1989-yil 24-maygacha SSSR Oliy Soveti a‘zosi¹¹. 1983-yil 31- oktabr kuni Xorazm va Qoraqolpog‘iston safarida yurgan O‘zbekiston SSR ning birinchi rahbari Sharof Rashidov to‘satdan vafot etdi. Shundan so‘ng Inomjon Usmonxo‘jayev O‘zbekiston Kompartiyasi MK 1-kotibi, ya‘ni O‘zbekiston SSR ning birinchi rahbari lavozimiga tayinlandi. Inomjon Usmonxo‘jayev 1983-yil 3-noyabrdan 1988-yil 12-yanvargacha O‘zbekiston SSR ning birinchi rahbari lavozimida ishlagan. Keyinchalik “qayta qurish” davrida korrupsiyada ayblanib, O‘zbekiston KP MQ birinchi kotibi lavozimidan ozod etilgan, Sobiq Ittifoq Oliy Kengashi Prezidiumi a‘zolidan chetlashtirilgan. 1988-yilning 28 noyabrida Sobiq Ittifoq Kommunistik Partiyasi MQdan ham chiqarilgan. 1989-yilning 27-dekabr kuni “Paxta ishi” bo‘yicha 12 yilga ozodlikdan mahrum etilgan. 1990-yilda O‘zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan ozodlikka chiqqan. So‘nggi vaqtlarda I.B.Usmonxo‘jayev Farg‘ona shahrida o‘g‘illari va nabiralari bilan birgalikda yashayotgan edi. Usmonxo‘jayev Inomjon Buzrukovich “Farg‘onada 87 yo‘shida, 2017-yil 16-mart kechasi vafot etdi”¹². U Farg‘ona viloyati Rishton tumani Pandigon qishloqdagi qabristonga dafn etildi. Inomjon Usmonxo‘jayev haqida Rafiq Nishonov ning “Daraxtlar tonggacha ko‘karadi” nomli, 2012-yilda e‘lon qilingan asarida unga alohida bob ajratilgan. Shuningdek, “Otamdan qolgan dalalar” va “Generallar o‘yini” romanlarida Usmonxo‘jayev bilan bog‘liq syujetlar bor. Inomjon Usmonxo‘jayev o‘z tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi

¹¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/усмонходжаев,_иномжон_бузрукович.

¹² <https://daryo.uz/2017/03/18/o'zbekistonning-1983-1988-yillardagi-rahbari-Inomjon-Usmonxo'jayev-vafot-etdi>.

Birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Moliya (1983-1986) vaziri, Respublika Davlat plan komissiyasi raisi o'rinbosari O'zbekiston SSR (1986) Vazirlar Kengashi Raisi va O'zbekiston Kompartiyasi Qashqadaryo viloyati komitetining birinchi kotibi (1986-1989) lavozimiga nomzod qilib ko'rsatildi. Inomjon Usmonxo'jayev o'z faoliyati davomida ko'rsatgan xizmatlari uchun markaz tomonidan bir necha bor taqdirlangan. Xususan, "1965 – yil 1- mart kuni "Iftixor belgisi ordeni", 1972-1973-yillarda 2 marta "Mehnat Qizil Bayrog'i ordeni", 1976-yil 25-dekabr kuni "Lenin ordeni" bilan taqdirlangan . Bu davrda Inomjon Usmonxo'jayev Andijon viloyati partiya komiteti 1-kotibi bo'lgan. O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisiligi davridagi xizmatlari uchun "Oktabr inqilobi ordeni" bilan 1980-yil 4-mart kuni"¹³ taqdirlangan.

XX asrning 80-yillari Butun sobiq Sovet Ittifoqida juda katta siyosiy o'zgarishlarning boshlanishi davri edi. 1982-yil 10-noyabr kuni L.I. Brejnev vafot etdi. Yangi kelgan rahbar Y.V.Andropov mamlatdagi ko'zbo'yamachilikning miqyosini, balandparvoz hisobotlar-u raportlarga qaramasdan haqiqiy holatni yaxshi bilardi. Chunki u uzoq yillar KGB (Davlat xavfsizlik qo'mitasi) degan tashkilotni boshqargan edi. Markazda boshlangan tozalash juda tezlik bilan O'zbekistonga ham yetib keldi va bu yerda nihoyatda bema'ni tus oldi. "Paxta ishi" deb nomlangan jarayonlar boshlanib ketdi. Keng miqyosdagi tekshirishlar boshlanish arafasida, O'zbekiston SSRni 24 yil boshqargan Sharof Rashidov 1983-yil 31-oktabr kuni Xorazm va Qoraqolpog'iston safarida yurganida to'satdan vafot etdi. Bu o'lim respublikada chorak asr davomida shakllangan o'ziga hos muvozanatni buzulishiga olib keldi. Mana shunday siyosiy o'zgarishlar jarayoni yuz berayotgan bir davrda Sh.Rashidovdan so'ng O'zbekiston SSRga rahbarlikka Inomjon Usmonxo'jayev tayinlandi. Inomjon Usmonxo'jayevning davlat rahbari sifatida qilgan eng birinchi qilgan ezgu ishlaridan biri O'zbekiston SSRning sobiq rahbari Sharof Rashidovni O'zbekistonga qilgan buyuk xizmatlari uchun uning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida buyruq beradi. Ma'lumki 1983- yil KPSS MK siyosiy byurosi va SSSR Vazirlar Kengashi O'zbekiston KP MK byurosi

¹³ https://ru.wikipedia.org/wiki/усмонходжаев,_иномжон_бузрукович.

xatiga asosan Sh. Rashidov xotirasini abadiylashtirish to'g'risidagi taklifni maqullaydi. "Ustoz domla Saidakbar Rizaev o'zining "Sharof Rashidov portretiga chizgilar" kitobida xat matni va qabul qilingan tadbir bilan tanishtiradi. Ushbu xat tabiridagi quydagi takliflarni eslab o'tadi:

-Toshkent shahri "O'zbekiston ko'chasi", Qashqadaryo viloyati Nishon tumaniga Sh.Rashidov nomi berib o'zgartirilsin.

- Toshkent tekstil kombinatiga, QASSR Qorao'zak tumaniga, Jizzax Davlat pedagogika institutiga, Andijon suv omboriga Sh.Rashidov nomi berilsin.

- O'zSSR xalqlari tarixi davlat muzeyida Sh.Rashidov hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan muzey xonasi tashkil etilsin.

- Sh.Rashidov yashagan Toshkent shahri German Lopatin ko'chasi 68-uyda, Jizzax shahri Narimonov nomidagi maktab binosida, tahsil olgan Samarqand Davlat Universitetida memorial xotira doskasi o'rnatilsin.

- Sh.Rashidov qabri poyiga haykal o'rnatilsin.

- qurilayotgan kanallardan biriga Sh.Rashidov nomi berilsin.

Xat yakunida I.Usmonxo'jayev imzosi turadi"¹⁴.

O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari sifatida Inomjon Usmonxo'jayev butun faoliyati davomida Markaz tomonidan buyurilgan ishlarni amalga oshirgan. Misol uchun, 1984-yil 20-oktyabrda O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining XXVII plenumi ochiladi. "Partiya XXVI s'ezdining, KPSS Markaziy Komiteti 1984-yil fevral va aprel Plenumlarining qarorlari hamda KPSS Markaziy Komiteti Bosh sekretari K. U. Chernenkoning dokladi asosida partiya va davlat intizomini mustahkamlash, kadrlar bilan ishlashni yaxshilash haqida respublika partiya tashkilotining qarorlari to'g'risida" O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti XVI plenumining qarori qanday bajarilayotganligi haqida" O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari Inomjon Usmonxo'jayev doklad qiladi. Plenum ishida "KPSS Markaziy Komiteti qishloq xo'jaligi va oziq – ovqat

¹⁴ Алимардонов Т. "Ўчмас Шараф" (Монография). – Тошкент.: Доно, 2017. – Б. 220-221.

sanoati bo'limi mudirining o'rinbosari o'rtoq I. I. Skiba, KPSS Markaziy Komitetining mas'ul hodimi o'rtoq M. L. Ishkov ishtrok etdilar.

Muhokama etilgan masala yuzasidan plenum qaror qabul qildi. Plenum tashkiliy masalalarni ko'rib chiqdi. Turkiston harbiy okrugi qo'shinlarining qo'mondoni o'rtoq N. I. Popov Markaziy Komitet sostaviga kiritildi va O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti Byurosining a'zosi etib saylandi. Qoraqalpog'iston viloyat partiya komitetining birinchi sekretari o'rtoq K. Salikov Markaziy Komitet sostaviga kiritildi va O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti Byurosining a'zosi etib saylandi"¹⁵.

Plenumda, shuningdek, "o'rtoq P. V. Dogonkin O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti tashkiliy - partiyaviy ishlar Bo'limining mudiri, o'rtoq V. I. Pletnev O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti qishloq xo'jaligi va oziq - ovqat sanoati bo'limi mudiri etib, R. H. Abdullayev O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti huzuridagi partiya komissiyasining raisi etib tasdiqlandilar.

Plenum R. H. Abdullayev, S. A. Asiyans, T. Dadajonov, N. I. Yermolayeva, D.A. Zazulin o'rtoqlarni O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti a'zolidan o'tkazdi. Plenum R.G'. G'oyipov, Z.I.Yesenboyev, U. To'raqulov, M. Kamolovani O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti sostavidan chiqardi.

Plenum A. Karimov, V. Usmanov, A. Odilovni KPSS safidan o'chirdi.

T.R.Tillayev O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti reviziya komissiyasi sostavidan chiqarildi"¹⁶. Shu bilan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumi o'z ishini tugatdi. Bu plenumda Inomjon Usmonxo'jayev tayyor ma'ruzani o'qib beradi. O'zbekistondagi respublika, viloyat, shahar va tuman partiya va sovet tashkilotlarining rahbar xodimlari, bo'lim boshliqlari Moskva "nomenklaturasi"da bo'lib KPSS Markaziy Komiteti tomonidan tayinlanar edi. Chunki "birinchi rahbar" faqat nomigagina edi, xolos. Asosiy ish mahalliy bo'lmagan ikkinchi rahbar qo'lida edi. Bu haqda Inomjon

¹⁵ "Совет Ўзбекистони", 1984 йил 21 октябрь.

¹⁶ "Совет Ўзбекистони", 1984 йил 21 октябрь.

Usmonxo'jayevning quyidagi iqrori g'oyatda ahamiyatlidir: "Bir so'z bilan aytganda hamma narsani markaz hal qilardi. U nima desa, shu bo'lardi. Hattoki obkomning bo'lim boshlig'idan tortib, raykomning birinchi kotibigacha Moskva ixtiyorida turardi. Moskva topshirig'iga ko'ra 40 yoshdan oshgan kishi raykomning birinchi kotibi, 50 yoshdan oshgan kishi esa obkomning birinchi kotibi bo'la olmasdi. U har qancha ishchan bo'lsin, har qancha ishbilarmon bo'lsin, baribir Moskva uning nomzodini o'tkazmasdi. Masalan, men qanchalik urinmay, o'zim yaxshi bilgan, qobiliyatli kadrlardan, masalan hozirda davlat narx qo'mitasi raisi bo'lib ishlagan Qudrat Ahmedovni Toshkent viloyat firqa qo'mitasi birinchi kotibligiga, ko'p yillar Sirdaryo viloyat ijroiya qo'mitasi raisi bo'lib ishlagan Ibrohim Qo'chqorovni viloyat firqa qo'mitasi birinchi kotibligiga o'tkaza olmadim. Men ularning har ikkalasini ham juda yaxshi bilaman... Lekin Moskva ko'nmadi. Sababi ular har ikkisi ham o'sha yerlik"¹⁷. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda asosiy o'lchov sifatida xodimning ish qobiliyati, ishbilarmonligi, saviya darajasi, kasb mutaxassisligi kabi zarur belgilar hal qiluvchi rol o'ynamasdi. Balki birinchi navbatda xodimning rus tilini nechog'lik egallaganligi, uning markazga shaxsan sadoqat va "baynalmilalligi" hisobga olinar edi.

Inomjon Usmonxo'jayev Sharof Rashidov sayi harakatlari bilan tashkil etilgan Osiyo va Afrika Yozuvchilari uyushmasining faoliyat yuritishini davom ettirgan. Inomjon Usmonxo'jayev "1984-yil 19-sentyabr kuni Osiyo va Afrika Yozuvchilari uyushmasining Bosh sekretari Aleks la Gumani qabul qildi. Do'stona suhbat vaqtida mehmonga KPSS XXVI syezdi qarorlarini amalga oshirayotgan O'zbekiston SSR va O'zbekiston Kompartiyasi tashkil etilganligining 60 yilligini munosib nishonlashga hozirlik ko'rayotgan respublika mehnatkashlarining ishlari to'g'risida so'zlab berildi. Respublika yozuvchilari o'z asarlari bilan tinchlik, xalqlar do'stligi oliyjanob g'oyalarini qaror toptirishni o'zlarining bosh vazifasi deb bilayotganliklari, Osiyo va Afrika adiblari bilan aloqalarini doimo mustahkamlayotganliklari ta'kidlab o'tildi. Shu kunlarda respublika yozuvchilari ijodiy soyuzining 50 yilligi keng ko'lamda nishonlanmoqda. Bizning yozuvchilar

¹⁷ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. – Toshkent: Meros. 2010. – B. 435-436.

harakati qatnashchilari, dedi Aleks la Guma, O'zbekiston adiblarining uyushma faoliyatiga qo'shayotgan g'oyat kata hissasini yuksak qadrlamoqdalar. Uyushma bundan chorak asrdan ko'proq vaqt muqaddam O'zbekiston diyorida bunyodga kelgan edi. Biz Toshkentni o'z uyumizdek ko'ramiz. Toshkent ruhi, tinchlik va do'stlik ruhi progressive adiblarning butun planeta xalqlari baxt - saodati yo'lidagi kurashining ramzi bo'lib abadiy xizmat qilaveradi¹⁸.

Inomjon Usmonxo'jayev O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari bo'lgan davrda ham paxta terimi paytida musobaqalashish avjiga chiqqan edi. O'sha davrdagi respublika matbuotida berilgan ma'lumga ko'ra "Andijon viloyatidagi "Oktyabr" kolxozining chevar terimchisi Ra'noxon Abdullayeva O'zbekiston SSR va O'zbekiston Kompartiyasining 60 yilligi sharafiga bu yil 18 tonna "oq oltin" terish majburiyatini olgan. O'n birinchi besh yillikda 75 tonna paxta terib berishga ahd qilgan chevar terimchi hozir kuniga hirmonga 250-260 kilogramdan durdona to'kmoqda. Ra'noxon ishlayotgan brigada dala shiyponida uning sharafiga "Mehnat shuhrati" bayrog'i ko'tarildi. Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi "Leninobod" kolxozining Tog'ay Aliqulov boshliq brigadasi a'zolari kuniga yillik planning 2-2,3 foiz miqdorida paxta tayyorlashga erishmoqdalar. Hozirgacha brigadada yillik plan 20 foizga ado etildi. Zarshunoslar 71 gektar maydonning har gektaridan 45 sentnerdan "oq oltin" yig'ishtirib olish majburiyatini olishgan. Terimchilar o'rtasida o'zaro musobaqada Orzigul Xudoyqulova, Shahzoda Abdullayeva, Shohista Isayevalar ilg'orlik qilishyapti. Ularning har biri xirmonga kuniga 180-200 kilogrammdan durdona to'kishmoqda¹⁹, deb yozilgan. Bundan ko'rinib turibdiki yurtimizdagi paxta siyosati nihoyatda kuchaygan davr aynan shu paytga to'g'ri kelgan.

1985-yil yakunlari hamda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti XVI plenumi qarorlari asosida 1985-yilgi planlarni va sotiylistik majburiyatlarni bajarish yuzasidan respublika kolzozlari, sovxozlari, agrosanoat kompleksi boshqa

¹⁸ "Совет Ўзбекистони", 1984 йил 20 сентябрь.

¹⁹ "Совет Ўзбекистони", 1984 йил 12 сентябрь.

korxonalarining vazafalari haqida I. B. Usmonxo'jayev doklad qiladi. U o'tgan yili "...respublika 5 million 292 ming tonna paxta tayorlanganini aytadi. Paxta tolasini olish ko'payganligi va 100 ming tonna ko'p tola olinganligini"²⁰ takidlaydi. Binobarin, respublika kolxoz va sovxozlari ana shuning hisobiga qo'Shimcha 528 million so'm haq oladilar, ko'rinib turibdiki, Inomjon Usmonxo'jayev davrida mahsulot sifatini yaxshilash davlat uchun ham xo'jaliklar uchun ham katta foyda keltiradi, pillachilikda ham sifat ancha oshdi. 1983-yildagiga nisbatan 1200 tonna kam bo'lsada, lekin bu pilladan 387 tonna ko'p ipak olindi. Shuning evaziga xo'jaliklar 29,5 million so'm ko'p daromad qildilar, respublikamiz meva sabzavot mahsulotini umumittifoq fondiga yuborish topshirig'ini bajardi. Mamlakatning sanoat markazlariga 1 milion tonnadan ko'proq sabzavot va meva jo'natildi. Qishloq xo'jaligidagi bu yutuqlar mard, tanti xalqimizning peshona teri bilan, partiya, sovet, kasaba soyuz, suv xo'jalgi organlarining, va qolaversa, butun respublika mehnatkashlarining qilgan fidokorona mehnati tufayli qo'lga kiritildi. Inomjon Usmonxo'jayev rahbarligining 1985-yili "respublika paxta plani 5 million 700 ming tonna qilib belgilangan yoki besh yillik plandagiga nisbatan 300 ming tonna kamaytirildi. Bu – 100 ming tonnadan ziyodroq tola demakdir"²¹ deb aytgan edi. Bundan ko'rinib turibdiki ilk bor paxta planini belgilashni kamaytirish jarayoni Inomjon Usmonxo'jayev rahbarligi davrida yuz bergan.

Inomjon Usmonxo'jayev 1984-yilgi natijalar mutlaqo qoniqtirmasligini, o'tgan yili mo'ljaldagidan "673 ming tonna paxta, 316 ming tonna don, 150 ming tonna meva, uzum, 26 ming tonna go'sht, 100 ming tonna sut va boshqa mahsulotlar kam yetkazib berilganini, 82- rayon, 697- kolxoz va sovxoz paxta planini bajara olmadi"²²-deb aytib o'tadi. O'zbekiston SSR Qishloq-xo'jaligi mehnatkashlarining 1985-yilgi sotsialistik majburiyatlari Respublika qishloq xo'jaligi mehnatkashlari, barcha agrosanoat kompleksining mehnatkashlari KPSS Markaziy Komiteti 1984-yil oktyabr Plenumining qarorlariga, KPSS Markaziy Komitetining Bosh sekretari, SSSR Oliy Soveti Prezidiumining Raisi K. U.

²⁰ "Совет Ўзбекистони", 1985 йил 31 март.

²¹ "Совет Ўзбекистони", 1985 йил 31 март.

²² "Совет Ўзбекистони", 1985 йил 31 март .

Chernenkoning nutqlaridan kelib chiqadigan qoida va xulosalarga amal qilib, oziq-ovqat programmasi bajarishga munosib hissa qo'shish maqsadida 1985-yilda o'z zimmalariga quyidagi majburiyatlarni oladilar. "5 million 730 ming tonna paxta yetishtirib davlatga sotadilar. Paxtani to'liq saqlash va o'z vaqtida qayta ishlash ta'minlanadi. Ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish hamda hom ashyodan oqilona foydalanish evaziga plandan tashqari 11 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqaradilar va davlatga sotadilar. 320 ming tonna kanop, 31 ming tonna pilla, 1200 ming tonna don, 1820 ming tonna sabzavot, 655 ming tonna poliz ekinlari mahsulotlari, 165 ming tonna kartoshka, 985 ming tonna meva va uzum, 335 ming tonna go'sht, 920 ming tonna sut, 1150 million dona tuxumtayyorlab davlatga sotadilar"²³ deb buyurilgan majburiyatni oladilar. Bundan ko'rinib turibdiki dehqonlar yetishtiradigan mahsulot miqdorini oldindan belgilab qo'yish jarayoni Inomjon Usmonxo'jayev davrida ham davom etgan.

Sovetlar tuzumining buhroni iqtisodiy sohani ham chetlab o'tmadi. Bu jarayon 50-yillarning oxiri va 60-yillarda boshlandi. Buni biz 1956-1960-yillarga mo'ljallangan besh yillik va 1959–1965- yillarga mo'ljallangan yetti yillik rejalarning juda ko'p yo'nalishlar bo'yicha bajarilmay qolganligida ko'ramiz. Bu ayniqsa 80-yillarda kuchli tus oldi. M.S.Gorbachyovning quyidagi so'zlari yuqoridagi xulosani tasdiqlaydi "Biz mamlakatdagi vaziyatni tahlil qilganimizda, eng avvalo ekonomikaning o'sishiga to'sqinlik qilinayotganligiga duch keldik. Milliy daromadlarning o'sish sur'atlari keyingi besh yillik davomida ikki hissadan ziyod pasaydi, 80-yillar boshiga kelib esa bu sur'atlar shunday darajaga tushib qoldiki, u amalda bizni iqtisodiy turg'unlikka yaqinlashtirib qo'ygan edi. Ilgari dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlarga shitob bilan yetib olgan mamlakat bir pozitsiya ketidan ikkinchisini qo'ldan boy bera boshladi. Buning ustiga ishlab chiqarish samaradorligini va mahsulot sifatini oshirishda, fan-texnika taraqqiyotida zamonaviy texnika va texnologiyani ishlab chiqish va o'zlashtirishda rivojlangan mamlakatlardan orqada qolish bizning ziyonimizga ko'paya bordi"²⁴ Buning eng

²³ "Совет Ўзбекистони", 1985 йил 31 март .

²⁴ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi . Uchibchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 419.

asosiy sababi ishlab chiqarish fondlarini o‘stirishning birdan bir asosiy shakli sifatida intensiv yo‘lni emas, balki ekstensiv yo‘lni tanlangani bo‘ldi. Buni biz shu misoldan ham ko‘ramizki, sobiq Ittifoqda 1961–1970-yillarda Milliy daromadning o‘sishi 7,1 foiz va 8,8 foizni tashkil etgani holda, 1971–1980-yillarda bu 5,0 va 8,1 foizga teng bo‘ldi. Sobiq Ittifoqda yagona xo‘jalik kompleksi “bo‘l” degan daqqiyunusdan qolgan iborani bo‘lar-bo‘lmasga hadeb ishlataveradigan ba’zi olimlar yana ajab bir tarzda “turg‘unlik” umuman Ittifoqda bo‘lmagan, mabodo Ittifoqda bo‘lgan bo‘lsada, O‘zbekistonga uning hech qanday daxli yo‘q, O‘zbekiston iqtisodiy muttasil rivojlanib doimo cho‘qqilar sari borgan, deb isbotlashga asossiz urindilar. Bu g‘oyaning asossizligi shundaki: Birinchidan, sobiq Ittifoq yagona xo‘jalik kompleksi bo‘lsa-yu, “turg‘unlik” kasali Ittifoqni o‘z domiga tortib O‘zbekistonni chetlab o‘tadimi? Inson kasallanib vujudining harorati oshib o‘tdi-yu, bu kasallik harorati insonning yo qo‘li, yoki oyog‘iga o‘z ta’sirini o‘tkazmayapti, deyishlik hech bo‘lmaganda anqovlik emasmi? Ikkinchidan, O‘zbekiston sobiq Ittifoq yagona xo‘jalik kompleksining bir bo‘lagi bo‘lganda ham, uning oddiy bir bo‘lagi emas, balki mustamlaka asoratiga solingan, hamma tomonlama Markazga qaram va tobe bo‘lagidir. Bas shunday bo‘lgach, Ittifoq turg‘unlik botqog‘iga botgan ekan, O‘zbekiston qanday qilib chetda qoladi? O‘jar dalil va faktlar batamom inkor etadi va O‘zbekistonda ham iqtisodiy buhron va turg‘unlik ayniqsa 80-yillarda o‘zining butun boshli bo‘yibasti bilan amal qilganligini ko‘rsatadi. Biz O‘zbekistondagi vaziyatni yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish va aholi jon boshiga milliy daromad taqsimotining Ittifoqdagiga qaraganda hatto bir necha barobar orqada bo‘lganligini ko‘ramiz. Masalan, 1990-yilda O‘zbekiston kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha Ittifoqda 12- o‘rinda bo‘lgan, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo‘yicha esa Ittifoqdagi o‘rtacha darajadan ikki hissa²⁵ past bo‘lgan. 1976-1986-yillar mobaynida O‘zbekistonning mamlakat milliy daromadiga qo‘shadigan hissasi amalda ko‘paymadi²⁶. Mehnat unumdorligi masalasiga kelsak,

²⁵ “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1990 йил 5 июнь.

²⁶ “Совет Ўзбекистони”, 1986 йил 31 январь.

O‘zbekistonda bu ko‘rsatgich Ittifoq darajasining sanoatdagi atigi 40 foiziga teng edi, xolos. Qishloq xo‘jaligida esa mehnat unumdorligi umum Ittifoqning o‘rtacha ko‘rsatkich darajasidan ikki baravar kam bo‘lgan. Bu shunga olib keldiki ishlab chiqarish sur‘atlari ilgarilash o‘rniga orqaga ketdi.

1981-1985-yillarda O‘zbekistonda sanoatda ishlovchi har bir ishchi hisobiga mahsulot tayyorlash 29 foiz ko‘payish o‘rniga bor yo‘g‘i 8 foiz ko‘paydi. Qurilishda mehnat unumdorligi atigi 3 foiz o‘sdi, qishloq xo‘jaligida esa hatto kamayib ketdi. Bu salbiy holatlarning oqibatlari shu bo‘ldiki, belgilangan davlat rejalari va topshiriqlari bajarilmadi, sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifat ko‘rsatkich darajalari xalqaro standartlar u yoqda tursin, ichki bozor talablarini ham qondira olmadi. Natijada keraksiz ortiqcha brak mahsulotlar ko‘paydi, bundan davlat va xalq xo‘jaligi hisobsiz zarar ko‘rdi. Faqat 1985-yilda respublika sifatsiz ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun jarimalar to‘plash, ularning nusxalarini pasaytirish hisobidan 700 million so‘m²⁷ zarar ko‘rganligi ishonchli manbalarda qayd etiladi. 1981-1985-yillarda O‘zbekistonda sanoatdagi yangilanish sur‘atlari 1980-yildagiga nisbatan ikki baravar kamaydi. 1986-yilda O‘zbekiston konstruktorlik byurosi ishlab chiqarishga yuborgan mashinalarning 60 foizdan ko‘prog‘i zamon talabi darajasida bo‘lmagan. 1986-yilda O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mebel mahsulotlarining 38 foizi, tekshirilgan sharbatlar va ichimliklarning 46 foizi, gilamlarning 95 foizi, shoyi gazlamalarning 49 foizi brak qilingan va narxi pasaytirilgan. 129 korxonaning mahsuloti talab darajasida bo‘lmaganligidan savdoga chiqarilmadi. Xuddi shu yili respublikadagi 130 dan ortiq korxona mahsulot realizatsiya qilish rejalarini, 260 taga yaqin korxona²⁸ mehnat unumdorligi rejalarini eplay olmadi. “O‘zbekxlop mash” birlashmasi surunkasiga 14 yil davomida eskirgan nusxadagi razborshiklar va 19 yildan beri eskirgan shamollatgich (ventilator)lar ishlab chiqargan. 1986-yilda esa bu korxona ishlab chiqargan paxta tozalagichlarning hammasi – 100 foizi²⁹ brak deb topildi. Qishloq xo‘jaligi va chorvachilikdagi ahvol sanoatdagidan ko‘ra afzalroq emas edi.

²⁷ Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 421.

²⁸ “Совет Ўзбекистони”, 1986 йил, 31 январь.

²⁹ “Совет Ўзбекистони”, 1986 йил, 4 июль.

Men yuqorida sovetlar davrida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi bir tomonlama va asosan ekstensiv yo‘l bilan rivojlantirilganligini ta’kidlagan edim. Ammo bu yaroqsiz usul xususan 80-yillarda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini ham turg‘unlik holatiga solib qo‘ydi. 1981-1985-yillarda davlat tomonidan belgilangan rejalar, paxta, don, go’sht, sut, tuxum sotish kabi sohalarda bajarilmadi. Respublika bo‘yicha ja‘mi bo‘lib 1,3 milliard so‘mlik mahsulot kam berildi. Ishlab chiqarish fondlarinig har so‘mi hisobiga mahsulot olish kamaydi. 1976–1984-yillarda Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston respublikasi qishloq xo‘jaligiga davlat 8 milliard so‘m mablag‘ sarfladi. Maydonning hajmi jihatidan bu respublikada ishga tushirilgan quruq yerlarning yarmisiga teng bo‘ldi. Ammo bu regionlarda paxta yetishtirish ko‘payish o‘rniga kamayib ketdi. 1985-yilda ja‘mi bo‘lib respublikadagi tumanlarning yarmi, 2 ming brigada paxta tayyorlash yillik rejalarini bajarmadi. 1986-yilda 424 sovxoz va 22 jamoa xo‘jaligi yilni zarar bilan yakunladi. Umuman olganda 1985-yilga nisbatan yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish 1986-yilda 2 foiz kamaydi.³⁰ Qishloq xo‘jaligining boshqa sohalaridagi davlat rejaları ham bajarilmadi. Jumladan, 1986-1988-yillarda kartoshka yetishtirish Buxoro viloyatida 24 foiz, Qoraqalpog‘istonda – 35, Andijonda – 50, Qashqadaryoda – 67 va Toshkent viloyatida 68 foiz bajarildi. Shu yillar mobaynida O‘zbekiston aholisi Buxoro, Namangan, Samarqand, Andijon va Xorazm viloyatlaridan 375 ming tonna bog‘dorchilik mevalari va 185 ming tonna uzum kam oldi.

Iqtisodiy turg‘unlik yuqorida ta’kidlaganimdek, ayniqsa chorvachilikka halokatli ta’sir ko‘rsatdi. Chunki Moskvaning quruq va‘dalariga ishonib, bu sohaga e’tibor talab darajasida bo‘lmadi. Chorva mollari tuyuq soni keskin kamaydi. Birgina sigirlar soni 1986-yilda 1981-yildagiga nisbatan 1,2 ming boshga kamaydi. Natija shu bo‘ldiki, 1981-1985-yillarda respublika aholisiga rejadagiga qaraganda 70 ming tonnadan ko‘proq go’sht, 220 ming tonna sut, 100 million dona tuxum yetkazib berilmadi³¹. Iqtisodiy buhron va turg‘unlikning bosh sababi va uning asosi

³⁰ “Совет Ўзбекистони”, 1989 йил, 31 январь.

³¹ Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchibchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 422.

qayerda, degan qonuniy savol tugʻiladi. Birinchi va asosiy sabab, adolatsizlik, haqsizlik, tengsizlik va milliy mustamlakachilikka asoslangan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzumda edi. Ikkinchi asosiy sabab, “lenincha adolatli milliy siyosat”ni niqob qilib olib kommunistik firqaning yuritgan byurokratik yakkaboshchilikka, buyruqbozlikka va zoʻrlikka tayanuvchi siyosatida edi. Uchinchi asosiy sabab, Ittifoq”yagona xoʻjalik kompleks” degan niqob ostida ishlab chiqarish va rejalashtirishning haddan tashqari Moskva qoʻlida markazlashtirilishi va boʻysundirilishi edi. Soʻzda, qogʻozda “teng huquqli va suveren” boʻlgan Oʻzbekiston hech qanday huquqqa amalda ega emas edi. Barcha direktiv rejalar Moskvada – Gosplanda hal boʻlardi. Oʻzbekiston uchun tuzilgan direktiv reja va topshiriqlarni mamlakatimiz tub joy sharoiti va imkoniyatlaridan mutlaqo bexabar boʻlgan kimsalar tomonidan ishlab chiqilar va asoslab berilar edi. Oʻzbekistonning vazifasi faqat uni soʻzsiz bajarishdan iborat edi. Islom Karimov “Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlida” nomli fundamental asarida bu jarayonni atroflicha tahlil qilar ekan bunday deydi: “Boshqacha qilib aytganda, mahsulot kerakmi yoki kerak emasmi, unga talab bormi yoki yoʻqmi, xalqaro talablarga moskeladimi yoki yoʻqmi, bundan qatʻi nazar, u butun Ittifoq boʻyicha mol yetkazib beruvchilar va isteʼmolchilarga taqsimlanar edi. Biriktirilgan isteʼmolchi esa bu mahsulotni olishi va oʻz navbatida, oʻz mahsulotini boshqa korxonalarga yetkazib berishi shart edi. Oʻzaro mahsulot yetkazib berganlik uchun haq mazkur markazlashtirilgan tizim kuchlari bilan amalga oshiriladi”³². Bunday sharoitda moddiy manfaatdorlik, raqobat, talab va taklifni bozor asosida mutanosiblashtirish degan tushunchalar boʻlishi mumkin emasdi. Bularning hammasi Markazning qoʻlida va ixtiyorida edi. “Oqibatda, – deydi Islom Karimov, – yuqori darajada markazlashgan tizim vujudga kelib, u hamma narsani “Ittifoqning cheklangan” tizim doirasida, haqiqiy talabni hisobga olmagan holda, nimani va qancha miqdorda ishlab chiqarish kerakligini belgilar edi. Bularning hammasi qachondir tugashi kerak edi, chunki xomashyo resurslari cheklangan

³² Каримов И. А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б 210.

boʻlib, yopiq tizimda ishlab chiqarishni ichki resurslarga asoslangan holda rivojlantirish uzluksiz davom etishi mumkin emas edi. Bu narsa iqtisodiy hayotda turgʻunlikkagina emas, balki texnika taraqqiyoti aynishiga hamda fan va texnika yutuqlarini, ilgʻor texnologiyani qabul qila olmaslikka, jahon iqtisodiyotida roʻy berayotgan jarayonlardan orqada qolishga ham olib keldi³³. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek bu davrda yurtimizning barcha sohalaridagi ishlarni Markaz nazorat qilardi, mamlakatdagi ogʻir ahvoldan yurtimiz aholisi norozi boʻlib oʻz xaq-huquqlarini himoya qilishlarini soʻrab tuman, viloyat va respublika partiya va sovet organlariga murojaat qildilar. 1986-87-yillarda faqat Oʻzbekiston Kompartiyasi MQga fuqarolardan 50 mingdan ortiq xat va shikoyatlar tushdi.

Oʻzbekiston SSR rahbari Inomjon Usmonxoʻjayev Moskvaga borib Markaziy Komitetdagilardan ahvolni yaxshilashga yordam soʻraydi, lekin Markazdagilar unga quloq solishmaydi. Poytaxtga yetolmagan 100 minglab fuqarolar mahalliy hokimiyat organlariga oʻz xaq-huquqlari, qonuniy manfaatlarining buzilganligidan shikoyat qilib koridorma-koridor, eshikma-eshik turtinib yurdilar. Norozilik ayniqsa xotin-qizlar orasida koʻpaydi. 1986-87-yillarda respublikada 270 ayol oʻzini-oʻzi yondirib yubordi. Bu holat ularning shaʼni, qadr-qiymatining toptalashi, haq-huquqlarining buzilishiga nisbatan koʻrsatilgan norozilik edi. Boshqaruv oʻz qoʻlida boʻlmagan va bunday ogʻir vaziyatni oʻnglay olmagan Inomjon Usmonxoʻjayev sogʻligi yomonlashadi va natijada 1989-yil 12-yanvar kuni Oʻzbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining VIII plenumi Inomjon Usmonxoʻjayevning salomatligi yomonlashganligi sababli pensiyaga chiqishi munosabati bilan plenum uni Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari va Markaziy Komitet Byurosining aʼzosi vazifalaridan ozod qildi. Shunday qilib 80-yillarda Inomjon Usmonxoʻjayev mamlakatdagi juda katta va halokatli ijtimoy-iqtisodiy turgʻunlik oʻnglay olmadi, oʻzi esa oʻsha davrdagi sovetlar siyosatining qurboni boʻldi.

³³Каримов И. А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б 211-212.

1.2. Inomjon Usmonxo'jayev rahbarligi davridagi O'zbekiston SSRda "Paxta ishi" va uning oqibatlari

Inomjon Usmonxo'jayev O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari bo'lgan davrda qatag'onlik va qonundan chekinishlar yana bo'y ko'rsata boshladi. Galdagi qatag'onlik to'liqligiga nafaqat ijod ahli, balki xo'jalik xodimlari va davlat arboblari ham tortildi. Qatag'onlikning navbatdagi yangi bosqichi 80-yillarga to'g'ri keldi. O'zbekistonda qonunchilik va huquqiy tartiblarni tiklash, partiya davlat organlarini kadrlar bilan mustahkamlash degan niqoblar bilan Markazdan katta vakolatga ega bo'lgan mas'ul xodimlarning "desant" guruhlari kela boshladi. Ularga partiya, sovet va sud organlaridan muhim ahamiyatga ega bo'lgan lavozimlar berildi. Uydirma, to'qib chiqarilgan "paxta ishi" va "o'zbeklar ishi" deb ishlarga siyosiy tus berildi. Bu qatag'onlik sovetlar hukumatining yana bir navbatdagi nayrangi bo'lib, "O'zbek ishi", "paxta ishi", "O'zbek mafiyasi", "qo'shib yozish" kabi izohli lug'atimizga mustamlakachilar tomonidan kiritilgan yangi so'zlar bilan bog'liq. Aslida haqiqiy aybdor SSSR rahbariyati edi. Misol uchun SSSR rahbariyati 1985-yili Iroq-Eron urushi uchun 500 mln ajratadi. O'sha davrdagi davlat rahbari Gorbachov bir davlat hujjatiga imzo chekishdan oldin "manavi 500 million nimani bildiradi deb so'raganda masul hodim shunday javob beradi "Saddam Husayn Eron bilan urushmog'i uchun. Shu yo'l bilan Tehron bizga nisbatan betaraf tutib turiladi va bu Afg'onitondagi harakatlarimizga yo'l ochadi". Afg'onitondagi urush uchun yiliga 50 million talab qilinadi³⁴. Bundan ko'rinib turibdiki boshqa davlallarni urushtirib foyda ko'rmoqchi bo'lgan SSSR tuzumiga yildan-yilga juda ko'p mablag' kerak bo'lardi. Buni qoplashni qaram davlatlar hisobidan undurmoqchi bo'ladi.

Ularga har yili bajarib bo'lmaydigan planlar yuqoridan belgilab bajarish uchun yuborilad, bajarilmasa qattiq jazolanadi, natijada qo'shib yozishdan boshqa chora qolmaydi. "O'zbek ishi, – deb yozadi O'tkir Hoshimov – 30- va 50-yillardagi qatag'onlarning mantiqiy davomidir. Sovet siyosati har 10–15-yilda kalla olib turmasa ko'ngli joyiga tushmagan. To'g'ri, o'sha paytlar O'zbekistonda

³⁴ Игорь Бунич. Партиянинг олтинлари. – Тошкент: Маънавият. 2005, – Б. 298-299.

qo‘Shib yozishlar, poraxo‘rliklar bo‘lgan. Buni inkor qilmaymiz. Ammo bunday harakatlar butun sobiq Ittifoqda avj olgan edi. Unday bo‘lsa, nima uchun markaz ayni O‘zbekistonni tanladi, degan savol tug‘iladi. Buning sababi oddiy. Biz anchagina loqaydmiz, darrov qovusha qolmaymiz”³⁵. Ha, juda adolatli va to‘g‘ri aytilgan gaplar. Aslida “O‘zbek ishi” degani nima o‘zi va qachon paydo bo‘ldi. Bu “ish” aslida XX asrning 80-yillarida O‘zbekiston Davlat Xavfsizlik Qo‘mitasi (DXQ)ning raisi bo‘lib ishlagan Melkumov (millati arman) bilan O‘zbekiston KP MQning birinchi kotibi Sh.Rashidov o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchiliklardan boshlangan. O‘sha kezlarda Buxoro viloyati BXSS boshlig‘i Muzaffarov va Buxoro shahar savdo idorasining direktori Qudratovlarning poraxo‘rligiga taalluqli ma’lumotlar DXQda bo‘lgan. Bu shaxslar Buxoro viloyati firqa qo‘mitasining birinchi kotibi A. Karimov himoyasida bo‘lgan va unga “oshirib” turishgan.

A.Karimov esa o‘z navbatida Sh. Rashidov bilan yaqin aloqada bo‘lgan. Shu bois Melkumov va uning gumashtalari o‘z oldilariga Muzaffarov va Qudratovni fosh qilish orqali A. Karimovga chiqish va so‘ngra u orqali Sh. Rashidovni “nishonga” olishni mo‘ljallab harakat qilganlar. 1983-yilda Buxoroda ilgari o‘ylab rejalashtirilgan va amalga oshirilgan “operatsiya” tufayli Muzaffarov va Qudratovlar qamoqqa olindilar. Ular xalqqa ma’lum bo‘lgan birinchi o‘zbek millionerlari bo‘lib chiqdi. Bu ish darhol Moskvaga oshirildi va markazda ana shu tariqa “o‘zbek ishi” paydo bo‘ldi.³⁶ SSSR Prokuraturasining tergov qismi boshlig‘i G.P.Karakozov darhol tergov guruhi tuzib, unga boshqa bir armani – T.X.Gdlyanni rahbar qilib tayinladi. Tergovchilar guruhiga kiritilgan vakillarining deyarlik hammasi Gdlyan bilan yaqin va hamtovoq bo‘lgan shaxslar edi. “Paxta ishi”, “qo‘shib yozishlar” masalasi ham aslida 1983-yilda boshlangan. O‘zK partiya MQning XVI plenumi va unda Inomjon Usmonxo‘jayevning Markazdan O‘zbekistonga kadrlar bilan “yordam berish”ni so‘rab qilgan murojaatidan so‘ng bu ish avj oldi. Mahalliy urf-odatlar va turmush tarzidan umuman bexabar va uzoq, markazdan keltirilgan 400 nafardan ortiq partiya, sovet, xo‘jalik xodimlari

³⁵ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchibchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 452.

³⁶ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchibchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 452-453.

respublikaning turli rahbarlik lavozimlarini egalladilar. Bu “kadrlar desanti” tarkibida o‘zbek xalqi, turkiylar va musulmonlarga qalbida nafrat va shovinizm g‘oyalari burqsib turgan jallod-fashistlar ko‘p edi. Bular Anishev, Ogaryuk, Klepikov, Satin, Nesterenko, Buturlin, O.Gaydanov, E.Didorenko, Lyubimov, Ivanov, Galkin, Kartashyan va boshqalardir. “Paxta ishi” bo‘yicha juda ko‘p guruhlar tashkil qilindi. “Barcha Konstitutsiyaga ko‘ra O‘zbekiston suveren davlat sanalsa ham uning prokurori, respublika rahbariyati bilan maslahatlashilmagan holda SSSR Bosh prokurori tomonidan tayinlanardi”. Qisqa muddat ichida O‘zbekiston SSR prokuraturasining eng yuqori, eng muhim lavozimlaridan tortib, viloyat, tuman prokurorlarigacha Markazdan doimiy ishlashga yuborilgan vakillar bilan almashtirildi. O‘zbekistonga tashlangan bu “sotsialistik desant”ning soni esa yuzdan ortiq edi. “1984-yilda O‘zbekiston SSR prokurori, uning muovinaridan uchta, eng katta boshqarmalarning boshliqlari lavozimlariga Markazdan kelgan odamlar qo‘yildi. Bu bilan cheklanilmasdan, asta-sekin viloyat darajasidagi prokurorlar – Buxoro viloyati prokurori (G.N.Matyushov) Samarqand viloyati prokurori (V.I.Yeremenko), Xorazm viloyati prokurori (A.D.Titarenko), Navoiy viloyati prokurori (A.P.Suxaryev) Surxandaryo viloyati prokurori (Jetkov V.M), Qoraqalpog‘iston ASSR prokurori (V.V.Donsov) va Toshkent shahar prokurori (G.P.Fillipenkov) ham Moskva tomonidan yuborildi. Keyingi bosqichda esa tuman prokurorlari lavozimi ham “mehmonlar” uchun bo‘shatildi”³⁷. Ana shunday “mehmonlar” Respublika Ichki ishlariga ham joylashtiriladi. O‘sha paytdagi Ichki ishlar vazirining o‘rinbosari general G‘afur Rahimovnnig dalillariga ko‘ra, vazirlik tarkibidagi 27 boshqarma va bo‘limdan bor-yo‘g‘i ikkitasinigina o‘zbek millatiga mansub kishilar boshqargan. U ham bo‘lsa, xo‘jalik va tibbiyot boshqarmalari edi. Mahalliy xalqning “xarakter va psixologiyasi”ni yaxshi bilgan jallodlar bu guruhlariga tub yerlik prokuror va tergovchilarni bosh qilib, ularga “yaxshi konsultatsiya”lar berdilar va shu tariqa o‘z sopini o‘zidan chiqardilar. Yuqori saviyada “maslahat va konsultatsiya” olgan guruh a‘zolari amaliy ishga tushib ketdilar. Ular 70-80-yillarda mamlakatda keng tus olgan qo‘shib yozishlar

³⁷ Азизхўжаев Алишер. Чин Ўзбек иши. – Тошкент: Академия, 2003. – Б. 31.

bo'yicha jinoyatchilarni aniqlab berishlari kerak edi. Haqiqatdan ham shu yillarda paxta, chorva va boshqa sohalar bo'yicha qo'shib yozishlar davlat rejalarini sun'iy ravishda bajarish usuli bo'libgina qolmay, million so'mlab davlat va jamoat mablag'larini suiiste'mol qilish va talon-taroj etish bilan bog'liq bo'lib, hamma yerda poraxo'rlik avjiga mingan edi. Bunday qo'shib yozishlar poraxo'rliklarning asosiy ilhomchisi va tashkilotchisi Moskvaning o'zi bo'lib, respublika, viloyat, tuman rahbarlari, davlat xo'jaligi direktorlari, jamoa xo'jaligi raislari, paxta tayyorlash korxonalari va paxta tozalash zavodlari rahbarlari bu ish bilan bog'liq edilar. Ular asosli ravishda jinoiy javobgarlikka tortildilar va sudlandilar. Shu bilan bir qatorda, qo'shib yozishlarga bevosita aloqador bo'lmagan, bu ishga ongsiz suratda yoki tasodifan o'ralashib qolgan, rahbarlarning ta'siri va tazyiqi ostida qo'shib yozishlarga, noiloj qo'shib qolgan, undan hech qanday moddiy manfaatdor bo'lmagan yuzlab va minglab gunohsiz kishilar ham jabr ko'rib, aziyat chekdilar. "O'zbeklar ishi", "Paxta ishi" bo'yicha qancha odamning qamoqqa olinganligi to'g'risida turlicha ma'lumotlar bor. Ba'zi manbalarda 22 ming, boshqasida 30 ming, hatto 48 ming odam hibsga olinganligi ko'rsatiladi.³⁸ "O'zbeklar ishi" ayni quturgan va avjiga chiqqan paytda O'zKP MQning birinchi kotibi Inomjon Usmonxo'jayev yozuvchilar bilan uchrashuvda respublikada qo'shib yozish va poraxo'rlik avj olib ketgani tufayli yigirma uch ming kishi qamoqqa olinganini aytgan edi. Shu damlarda Kompartiya fidoyisi o'zining ham taqdiri yaqin kelajakda ne ahvollarga tushajagini albatta tasavvur ham qila olmagan, albatta. Chunki I.Usmonxo'jayev komfirqaning so'zsiz itoatkor qo'g'irchoq rahbari sifatida O'zKP MQning IV plenumida so'zlab "1986-yilda rahbar xodimlardan salkam 750 kishi, shu jumladan 8 obkom sekretari, shahar, rayon partiya komitetlarining 10 sekretari, shahar rayon partiya komitetlarining 10 sekretari, shahar va rayon ijroiya komitetlarining 40 raisi, ministrlklar va idoralarning 18 rahbari..."³⁹ni almashtirganligi bilan ko'krak kergan edi deb ko'p kitoblarda ma'lumot beriladi. Ammo, Inomjon Usmonxo'jayev doimo bu

³⁸ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchibchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 454.

³⁹ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchibchi kitob... – B. 455.

tergovchilarga yordam bermagan, u xalqning noroziligi natijasida va bu tergovchilarning qonunga bo'ysunmay ish ko'rishlariga qarshi harakatlarni ham amalga oshirgan. Misol uchun Inomjon Usmonxo'jayev o'zi qamoqda ekanligida tergovchining: "Siz bunga qarshi norozilik bildirdingizmi? Degan savoliga Usmonxo'jayev: Norozilik bildirmay bo'lar ekanmi, men qayerlarga bormadim deysiz. Men Markaziy Komitetda ham bo'ldim. Ularda mening xatim bor. Men u yerda bir necha bor bo'lganman. Qarab chiqamiz deyishgan. Ular Gdlyanga ishonishdi, o'shanda bizga hech kim ishonmagan. Bu kishilarga esa erkinlik berib qo'yishgan. Hamma imkoniyatlar shu kishilarga yaratilgan. Ular ko'ngillariga nima kelsa, shuni qilganlar"⁴⁰. Usmonxo'jayev mana shu o'zboshimchaliklar, Gdlyan va Ivanov joriy etgan ish uslubi to'g'risida gapirganda haq edi. Bu usul qanchalik og'ir oqibatlarga olib kelganligini qanchadan-qancha kishilarning boshiga og'ir kunlarni solib, azob-uqubatlar keltirganini bugungi kunda hamma ko'rib turibdi.

Ko'p yillar Markazda yuqori davlat lavozimlarida ishlagan davlat arbobi Nuritdin Muhitdinov 1986-yilning 25-mart kuni Toshkentga qaytib keldi. Undan Moskvada iste'foga chiqmoqchiligining sabablarini surishtirishganda. Nuritdin Muhitdinov shunday deydi, "Vatanim - O'zbekiston haqida markaziy va mahalliy matbuotda salbiy fikr-mulohazalar ko'payib ketganligini tushuntirdim. Muomalaga "o'zbek ishi", "paxta ishi", "o'zbek mafiyasi" va hokazo istilohlar kiritilganligini, respublikada shu vaqtgacha o'zining xususiyati va ko'lami jihatidan misli ko'rilmagan qatag'onlar yuz berayotganligini, bularning, hammasi meni chuqur iztirobga solib, bezovta qilayotganligini aytdim. Axir gap men hayotim va obro'-e'tiborim uchun bir umr ta'zim qilishim lozim bo'lgan xalq va tashkilot haqida bormoqda edi-da"⁴¹ albatta, o'z ona yurtini va xalqini suygan inson shunday bo'lishi kerak. Biroq, o'sha davrdagi rahbarlar Inomjon Usmonxo'jayev va Rafiq Nishonov o'z ona yurti va xalqining sha'nini toptalishiga va qatag'on qilinishiga yo'l qo'yib berdilar. Sovet tuzumi tarixidan bizga ma'lumki, tuzum raxbarlari

⁴⁰ Илюхин В. Кабохат ёхуд...: ("Ўзбеклар иши" деган уйдирма хусусида). – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б.126.

⁴¹ Муҳитдинов Н. Кремлда ўтган йилларим. I Китоб. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б. 12.

hayotiyliги davrida payg'ambar darajasida ulug'lanib, vafotidan so'ng qora bo'yoqlar chaplangan. Ular faoliyati butkul noto'g'ri va samarasizlikda ayblangan. Shaxs nomi ta'qibga olingan, haqoratlangan. Bugun biz o'tmishga va tarixiy shaxslarga bunday munosabat ushbu tizim mohiyatida bo'lganligiga guvoh bo'lyapmiz. Misol uchun, Sh.Rashidov nomini abadiylashtirishda uning xizmatlari samimiy inobatga olingan va hech kim oradan uch yil o'tib belgilangan tadbir bekor qilish mumkin ekanligini hayoliga keltirmagan. Aslida Markaz tomonidan uyushtirilgan bu sahna "O'zbekiston KP MKning xatiga asosan 1986 yil 22 may №617 "Sharof Rashidov xotirasini abadiylashtirish to'g'risidagi qarorni bekor qilish" haqida qaror qabul qilinadi".⁴² Ushbu qarorga muvofiq oldin qabul qilingan qarorlar bekor qilindi. Bunga yana bir yorqin misol sovet hokimiyatiga sodiq ishlab kelgan O'zbekiston SSR rahbari Inomjon Usmonxo'jayevni jinoyatda ayblab qamoqqa olinishi va nomini qora qilinishi edi.

"Paxta ishi" natijasida hibsga olingan Inomjon Usmonxo'jayev tergovida yuz bergan voqealar xususida to'xtalib o'taman. I.B.Usmonxo'jayev 1988-yil 19-oktyabrda SSSR Bosh prokurorining birinchi o'rinbosari A. Vasilev tomonidan hibsga olingan va o'sha zahoti SSSR Prokuraturasi bosh tergov boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari V. Titov SSSR Davlat xavfsizlik komitetining tergovchisi V. Rats tomonidan so'roq qilingan edi. Birinchi so'roqda I. Usmonxo'jayev biror kishidan pora olganligini va biror bir kishiga pora berganligini rad etadi. Qayta-qayta so'roq qilinish va chidab bo'lmas zug'umlar natijasida Inomjon Usmonxo'jayev pora olganligini tan oladi. "1988-yil 23-oktyabr yakshanba kuni tergov izolyatoriga Inomjon Usmonxo'jayevni Gdlyan huzuriga so'roqqa olib keladilar va u KPSS Markaziy Komitetining mas'ul xodimlariga: Kapitonovga – 100 ming so'm, Solomeksevga – 100 ming so'm, Grishinga – 30 ming so'm, Romanovga – 25 ming so'm, Mogilnichenkoga – 20 ming so'm, Bessarabovga – 10 ming so'm, Ishkovga – 10 ming so'm pora berganligi to'g'risida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, Usmonxo'jayev SSSR sobiq Bosh prokurori A. Rekunkovga – 50 ming so'm va uning muovini O. Sorokaga – 20 ming so'm

⁴² Алимардонов Т. "Ўчмас Шараф" (Монография). – Т.: Доно, 2017. – Б. 223.

berganligini aytadi. Shuningdek, jinoiy yo'llar bilan topilgan 4,5 million so'mni davlatga qaytarib berishni va'da qiladi"⁴³. O'sha kunning o'zida Usmonxo'jayev Gdlyanning ko'magida bitta ariza yozib berdi. Unda go'yo mana shu so'roq boshlanguncha pora berganligi to'g'risida axborot yozib o'z ixtiyori bilan ma'lumot berganligini yozadi. Bu ishni u javobgarlikdan qutilish niyatida qiladi, chunki pora berganlik to'g'risida o'z ixtiyori bilan ariza yozib ma'lum qilish qonunga muvofiq, pora bergan kishini javobgarlikdan ozod qiladi. Albatta, Inomjon Usmonxo'jayev borasida hech qanday ixtiyoriylik to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas, faqat uni laqillatib shunday ma'lumot yozdirib olganlar, xolos. Gdlyan 23-oktyabr kuni esidan chiqargan ishlarni oradan ikki kun o'tganidan keyin o'rnini to'ldirdi. U Karakozov bilan birga Suxarevga murojaat qilib, Usmonxo'jayev bilan faqat o'zi ishlashi kerakligiga ularni ishontirdi. Gap orasida I. Usmonxo'jayev qo'li bilan yozilgan xatni ham ko'rsatib qo'ydi. Bu xatda I. Usmonxo'jayev Bosh prokurordan o'z ishini olib borishni shaxsan Gdlyanga topshirishni so'raydi. Suxarev bunga rozi bo'ldi, chunki xuddi mana shu voqeadan keyin hamma ishlar charxpalak bo'lib ketishini u oldindan ko'ra olmagan edi.

1988-yil 25-oktyabrda Gdlyan huzurida o'tkazilgan so'roq ma'lumotlarida birinchi marta Ligachevning nomi paydo bo'ladi. Unda go'yo Usmonxo'jayev unga ikki marta - har safar 30 ming so'mdan pora berganligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, u Yu. M. Churbanov bilan N. Shchelokovlarning har biriga 50 ming so'mdan, SSSR Oliy Sudining sobiq raisi V. Terebilovga 40 ming so'm, O'zbekistonning sobiq prokurori A. Buturlinga 15 ming so'm pora berganligini ma'lum qiladi. "1988-yil 26-oktyabrda Gdlyan va Moskovseva ishtirokida A. D. Vasilev huzurida o'tkazilgan so'roq vaqtida Usmonxo'jayev 1984-yil iyul oyida O'zbekiston KP MK XVI plenumi ish olib borayotgan vaqtda Toshkent shahrida Ligachevga birinchi marta pora berganligini tasdiqlaydi. O'zbekiston SSR 60 yilligini bayram qilishga tayyorgarlik ko'rish masalasida Moskva shahriga kelgan vaqtida, o'sha yilning noyabr oyida, Ligachevga ikkinchi marta "pora

⁴³ Илюхин В. Кабохат ёхуд...: ("Ўзбеклар иши" деган уйдирма хусусида). – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 119.

bergan”. Har ikkala holda pullar diplomatga solib berilgan”⁴⁴. Mana shu ma’lumotdan boshqa Gdlyanning qo’lida hech qanday ma’lumot bo’lmagan va hozir ham unda Ligachevni shubha ostida qoldiradigan hech qanday ma’lumot mavjud emas. Biroq, “1988-yil 1-noyabr kuni ovozli videoyozuv asboblari qo’llab o’tkazilgan so’rovda I.Usmonxo’jayev Ligachevga pora berganligi to’g’risidagi ko’rsatuvlarini to’la ravishda va qat’iyan rad etdi. Men Ligachevga tuhmat qilganman, unga pul ham, boshqa qimmatbaho narsalar ham bergan emasman, dedi. Mazkur so’roqni xuddi o’sha 26-oktyabr kuni so’roqda qatnashgan shaxslarning o’zlari o’tkazdilar”⁴⁵. Modomiki, SSSR Oliy Sudi 1989-yili 27-dekabrda unga nisbatan ayblov hukmini chiqargan ekan, Usmonxo’jayevni jinoyatchi deb atash mumkin, faqat uni boshqa ish yuzasidan, ya’ni uzoq muddat ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan, “Xorazm oblast partiya qo’mitasining sobiq birinchi kotibidan 3 marta 50 ming so’m miqdorida pora olganligi uchun hukm qilingandi”⁴⁶. Uning ustiga qo’yilgan boshqa barcha ayblar xuddi puflab shishirilgan sovun ko’pigidek yo tergov vaqtidayoq, yoki sud chog’ida chipakka chiqdi. Yana shuni ham ta’kidlab o’tmoqchimanki, bu ish SSSR Oliy Sudida qarab chiqilayotgan vaqtda unga yangi rais E.A.Solomensev rahbarlik qildi. V.Ilyuxin Inomjon Usmonxo’jayev pora oluvchilar sifatida tilga olgan shaxslar ro’yxati bilan tanishib chiqanida shunday deydi “...men unda o’ziga xos bir xususiyat ko’zga tashlanib turganini payqadam. Bu ro’yxatda Gdlyan qachonlardir janjallashib qolgan, uning yo’liga to’sqinlik qilgan, biror harakat bilan qonunsizlikning oldini olishga, O’zbekistonda sodir bo’layotgan hodisalarni xolis tarzda yoritishga urinib ko’rgan kishilarning nomlari ko’proq uchrar edi. O’zSSR ning sobiq prokurori A.Buturlinni olish mumkin, u birinchi bo’lib Gdlyanning bema’ni ishlari to’g’risida hammaga eshittirib gapirgan edi, birinchi bo’lib SSSR Bosh prokuroriga murojaat etgan va tergovni Gdlyan olib borayotgan tartibda o’tkazishga aslo yo’l qo’yib bo’lmasligini ma’lum qilgan edi. M. Solomensev, Mogilchenkolar turli vaqtlarda Gdlyan guruhi o’tkazayotgan mustabidlik

⁴⁴ Илюхин В. Кабохат ёхуд...: (“Ўзбеклар иши” деган уйдирма хусусида). – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 119.

⁴⁵ Илюхин В. Кабохат ёхуд...: (“Ўзбеклар иши” деган уйдирма хусусида). – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 119.

⁴⁶ Илюхин В. Кабохат ёхуд... – Б. 119.

to'g'risida tushgan shikoyat va arizalarni tekshirishga bevosita aloqador bo'lgan edilar. Ligachevni esa Gdlyan men yuqorida eslatib o'tgan bir qator sabablarga ko'ra qoralashga ahd qilgan edi. Gdlyan o'zi ishlab chiqqan "do'q qilib qo'rqitish" taktikasini I.Usmonxo'jayevga nisbatan ham qo'llagan. Bu yerda ham u o'zi to'qib chiqargan: "O'zbekistonda hamma pora olgan, modomiki pora olgan ekan, demak "yuqoridagilarga" ham albatta pora bergan", – degan o'zboshimcha aqidaga asoslanib ish tutgan"⁴⁷. Shuning uchun Gdlyanning tuzog'iga haqiqatan poraxo'r bo'lgan shaxs tushib qolgudek bo'lsa, u bunday jinoyatchidan hamma gapni bilib olardi, keyin xolis, chinakam haqiqatga soxta va yolg'on gaplarni shu darajada ko'p qorishtirib yuborar ediki, nima rostu nima yolg'onligini aslo bilib bo'lmasdi. Mahbuslarning nozik his-tuyg'ularini qo'zg'ab, ularga ruhiy ta'sir o'tkazish yo'li bilan bergan ma'lumotlaridagi raqam yoniga bor-yo'g'i bitta "nol" qo'shib qo'yishni taklif qilishardi. Buni avvaliga mug'ombirlik bilan, yaxshi gapirib amalga oshirishga urinib ko'rishar, bo'lmasa, do'q-po'pisalar qilib o'z so'zlarini o'tkazardilar. Masalan, ming so'mlik poraga yana bitta "0" qo'yilardi, natijada ming so'm o'n ming so'mga aylanardi. Poralar soni masalasida ham xuddi shunday yo'l tutilardi. Bir marta pora bergan odamning ko'rsatmasi yoniga "nol" qo'shib, uni o'n martaga aylantirib qo'yishardi, poraning kimga berilganini – har doim o'zlari topishar, aytib yozdirishar, gohida esa butun bir ro'yxat taqdim qilishardi. Mahbusni bir marta pora berdingmi yoki besh marta, o'n marta pora berdingmi, baribir deb ishontirishardi. Bizning gapimizga ko'nsang, o'nta pora uchun ham, bitta pora bergan kishidek jazo olasan yoki butunlay ozod qilib yuborishimiz ham mumkin, deyishardi ular. Agar gapimizga ko'nmasang, ottirib yuboramiz, deyishar, ba'zan Ivanovning yaxshi ko'rgan iborasini ishlatib "peshonangga xol qo'yib qo'yamiz"⁴⁸derdilar. Yana ular "xotiningni, bolalaringni, boshqa qarindosh-urug'laringni ham qamab qo'yamiz", deb qo'rqitishardi. Rostdan ham ular mutlaqo beayb kishilarni ushlab kelishar, hibsga olishar, o'nlab, yuzlab odamlarning hayotiga zomin bo'lib, umrini xazon qilar edilar. Gdlyan guruhida ishlatiladigan

⁴⁷Илюхин В. Қабоҳат ёхуд...: ("Ўзбеклар иши" деган уйдирма хусусида). – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 120.

⁴⁸Илюхин В. Қабоҳат ёхуд... – Б. 121.

jargon bilan aytganda, Usmonxo'jayevni "qattiq presslaganlar" uni juda oddiy yo'l bilan "ilintirganlar", ya'ni chaqirib unga shunday deganlar: "Sen respublika KP MK ning birinchi kotibisan, mas'uliyatli lavozimni egallab kelgansan, seni otib tashlash uchun bir marta pora olganing ham yetarli, chunki bu jamiyat uchun haddan tashqari katta xavf soladi. Agar yashashni istasang senga bitta najot yo'li bor, sen shu yo'ldan borsang qutilib qolasan. "Yuqori" ga pora berganman deb ma'lumot yozasan. Bu poraxo'rlik "botqog'i"ga meni ularning o'zlari tortganlar, deb ko'rsataver. Sen buni o'z xohishing bilan qilgan emassan, ular seni pora berishga majbur qilishgan. Agar shunday deb yozsang, o'zingga yaxshi bo'ladi. Biz qilayotgan ish go'yo katta bir pillapoya deb faraz qilinadigan bo'lsa sen unda birinchi, asosiy zina emas, balki uning kichik bo'lagisan. Shuning uchun mana shu imkoniyatdan - biz qo'lingga tutqazayotgan qutqaruv "vositasidan" foydalanib qol. Shunday qilsang - dahshatli jazodan qutilasan. Boshqacha qilib aytganda, Gdlyan ish prinsipini qisqacha shunday ifodalash mumkin: "Aybsizmi-aybdormi, baribir, cho'ktiraver, ularning murdalari ustidan yurib o'zing suvdan quruqlikka chiqasan". Shuni aytish kerakki, bunaqangi "aybni isbotlash" usuli ko'pincha samarali ishga solinar va bot-bot o'zining achchiq mevalarini berar edi. Afsus va nadomatlar bo'lsinki, bu usulning qay darajada xavfli ekanligini juda ko'p kishilar o'sha vaqtda ham, hozir ham tushunmaganlar va tushunishni istamaydilar. Ular shunday fikr qiladilar: "Xo'sh, so'roqda qo'pollik qilishgan bo'lsa, nima qipti, balki do'q qilganlari ham rostdir, odamlarni qonunsiz ravishda hibsdan saqlagan bo'lishlari ham mumkin. Lekin ular million-million so'm pullarni davlatga qaytarishga erishdilar. Ish xatosiz bo'lmaydi"⁴⁹. Yo'q, bular mayda gaplar va oddiy xatolar emas, bu protsessual banditizm-bosqinchilikdir, Gdlyan bilan Ivanov va ular atrofidagi ayrim kishilar "adliya qotillaridir". Ular odamlar tomonidan qilinmagan jinoyatni qilingan deb yozib dalillarni soxtalashtirganlar. Ular odamlarning bo'yniga shunday og'ir ayblar qo'yganlarki agar, sudda yaxshiroq muhokama qilinmasa, mutlaqo gunohsiz kishilarga o'lim hukmi chiqarilishi mumkin edi. Mana, bir qarashda unchalik xavfli bo'lib ko'rinmagan xatolarning dahshati.

⁴⁹ Илюхин В. Қабоҳат ёхуд...: ("Ўзбеклар иши" деган уйдирма хусусида). – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 122.

Undan tashqari, o'sha xato odamlar taqdiridan, ularning fojiasidan vujudga keladigan zanjirning boshlanishi - birinchi halqasi bo'lar edi xolos.

V.Ilyuxin asarida "Buni tushunmaslik bizning Gdlyan bilan, uning prinsiplari bilan mutlaqo kelisha olmayotganimiz sabablarini tushunmaslik bo'lur edi.

I.Usmonxo'jayev Ligachevga pora berganligini rad etgan bo'lishiga qaramasdan, biz mazkur fakt yuzasidan tergov o'tkazdik. A. Ya. Suxarev ko'rsatmasiga binoan so'roqni asosan Suxarevning o'rinbosarlari va katta yordamchilari o'tkazdilar. Ligachevni Bosh prokuror muovini V. I. Kravsev so'roq qildi. So'roq vaqtida u o'rta qo'yilgan barcha savollarga nihoyatda aniq va lo'nda javob berdi. O'ziga I. Usmonxo'jayev pora bergani xususidagi bayonot yuzasidan u shunday dedi: "Men Usmonxo'jayevning menga 60 ming so'm pul bergani to'g'risidagi bayonotini g'irt tuhmat va bo'hton deb hisoblayman. Ilgari ham aytganimdek bunday voqea hech qachon bo'lmagan. Usmonxo'jayev nima maqsadda va nima uchun menga tuhmat qilganligini ayta olmayman. U irodasi bo'Sh va ta'sirga tez beriladigan odam. Menga qilingan tuhmat sabablari tergov chog'ida aniqlanishi kerak, deb hisoblayman"- degan ma'lumotlarni yozib qoldiradi.⁵⁰ Bu haqda yuqorida to'xtalib o'tdik. Shu narsani qo'shimcha qilmoqchimanki, Yegor Kuzmich ushbu so'roqda Usmonxo'jayevga aniq tavsif berib o'tdi. Uning bu gaplari Usmonxo'jayevni yaxshi taniydigan boshqa shaxslar tomonidan berilgan baholar va ma'lumotlarga ko'p jihatdan mos keladi. Masalan, O'zbekiston KP MK ning sobiq kotibasi R. Abdullayeva so'roqlardan birida shunday degan: "Usmonxo'jayev amalparast, qo'rqq, betayin va prinsipsiz odam. U bugun bir gapni aytsa, ertaga boshqacha gapiradi"⁵¹. Birgina Inomjon Buzrukovichning ishi yuzasidan uning qarindosh-urug'laridan 23 kishi qamoqqa olingan. U bunday deydi: "Urishganda mayliydi. Lekin, qarindosh-urug', xotin, bolachaqa azob berishsa qiyin bo'lar ekan"⁵². Inomjon Usmonxo'jayev sovetlar sudlov organlari ishining naqadar chirkin, adolatsiz va dahshatli ekanligini fosh etib, quyidagilarni yozadi: "Tergov ham, sud ham nohaqlikdan iborat bo'ldi. Odam

⁵⁰ Илюхин В. Кабохат ёхуд...: ("Ўзбеклар иши" деган уйдирма хусусида). – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 122.

⁵¹ Илюхин В. Кабохат ёхуд... – Б. 122.

⁵² Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 456.

qiyofasidagi vahshiy tergovchilar tirik jonni emas, balki temirni ham eritishga va sindirishga qodir ekanliklarini o‘z boshimdan kechirdim. Men mana shunda birinchi bor sovet tuzumi naqadar aldoqchi ekanligini, uning tergov organlari o‘z muddaosi uchun har qanday vahshiylik ham qilishi mumkinligini his qildim. His qildim-u, butun umr mana shu tuzum, mana shu jamiyat, mana shu partiya uchun e’tiqod qo‘yganimga, bor hayotimni shu yo‘lda baxshida qilganimga achinib o‘kinib-o‘kinib yig‘ladim. Kaltakdan bir joyingiz sinsa, buning azobi o‘tib ketadi. Lekin bir umrlik e’tiqodingiz sinsa, bunga chidab bo‘lmas ekan... Ular bilan uchrashib suhbatdosh bo‘lmagan odam buni tasavvur eta olmaydi”⁵³.

I.Usmonxo‘jayev “Qayta qurish” davrida korrupsiyada ayblangan. 1989-yilning 27-dekabr kuni “paxta ishi” bo‘yicha 12 yilga ozodlikdan mahrum etilgan, 1990-yil ozodlikka chiqarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016-yil 18-noyabrdagi qarori bilan sobiq SSSR Oliy sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov kollegiyasining 1989-yil 27-dekabrdagi I. Usmonxo‘jayevga oid hukmi bekor qilinib, jinoyat ishi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasi 1-bandiga asosan tugatilganligi ma’lum qilinadi. “2016-yil dekabrda esa, “Новости Узбекистана”ning qayd etishicha”⁵⁴, to‘liq oqlangan.

Gdlyan va Ivanovlar guruhi O‘zbekistonda bilgan va bilmagan barcha noma’qulchiliklarni qildilar. 80-yillarda O‘zbekistonda Kompartiya va sovetlar hukumatining I.Usmonxo‘jayev, Xudoyberdiyev, Aytmurotov, Salimov, R.Abdullayeva, Tursunov, Musaxonov, Yahyoyev, Norov, Sattorov, B.Rahimov, A.Karimov, X.Norbo‘tayev singari rahbarlari qamoqxonalarda mislsiz qiynoq va azoblarga solindilar. Insoniylik qiyofasini yo‘qotgan Gdlyan boshliq vahshiylar guruhi mahbuslarni so‘roq qilish davomida hatto fashistlar ham yetti uxlab tushiga kirmagan dahshatli, eng qaltis va ta’sirli usullarni ishga solganlar: “Hozir bolalaringni qamoqqa tiqamiz, retsedevistlar xotiningni zo‘rlaydi, qizingni badnom qiladi, sen esa eShikdan tomosha qilib turasan” kabi. Yaxshisi mahbuslarning ba’zi bir deganlariga e’tibor qarataylik. Sobiq militsiya general-mayori (u Nijniy Tagil

⁵³ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi . Uchibchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 456.

⁵⁴ <http://www.xabar.uz/uz/mualliflar/Davronbek-Tojaliyev/2017-yili-yoqotganlarimiz>

qamoqxonasida saqlangan) Xushvaqt Norbo‘tayevning arzonmasidan: “Hech natija chiqmaganidan keyin meni 3-hibsonaga – o‘ta xavfli jinoyatchi Sayfulin Shavkat, muttaham G‘afurov Oqil (laqabi “Doktor”), qartaboz Igorlar ichiga qo‘shib qo‘yishdi”.⁵⁵ Odamiy qiyofani yo‘qotgan bu unsurlar odam bolasi bardosh bera olmaydigan azob-uqubatli usullarni o‘ylab topisharadi, bu haqorat, kaltaklashlar, hatto fashistlar o‘ylab topmagan odamga o‘z axlatini yedirish, erkaklik nomusiga zo‘rlilik qilish, og‘zingdagi ovqatni tortib olish... Kimga nola qilasan, kimdan yordam so‘raysan, xudodan boshqa. Bu aytganlarimga, ehtimol, ishonishmas, lekin baribir hammasi rost, hammasi shunday bo‘lgan, 90 yoshga kirgan otam bolalarim haqqi-hurmati, hammasi rost... Yana bir kuni Gdlyan ovi baroridan kelgan yirtqichdek xursand bo‘lib, ikki qo‘lini ishqalar ekan: “Bilishimcha qizing juda ketvorgan emish, Qarshilik bezorilarga “hadya” etsam mendan hursand bo‘lishar-a, nima deysan” dedi. Bunday tahqirlarga qanday ota bardosh bera oladi-ya!”⁵⁶. Mahbuslarni tergov chog‘ida ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan qiynoq usullariga solish va vahshiyliklar qilishda SSSR prokuraturasining mas’ul xodimi Viktor Ilyuxinning yozishicha Kartashyan va Pirsxalava kabi tergovchilariga teng keladigani bo‘lmagan. Pirsxalava ayniqsa dahshatli bo‘lgan ekan. U Gdlyanning eng suyuqli shogirdi bo‘lgan va qilgan “xizmatlari” evaziga uning yordamida amal pillapoyasidan shiddat bilan ko‘tarilib borgan. Ammo SSSR prokuraturasi “o‘zbeklar ishi” masalasini qaytadan ko‘rib, Pirsxalavani qamoqqa olish haqida hukm chiqarganida Gurjistondan xat va telegrammalar yog‘ilib ketgan. Hatto Gdlyan va Pirsxalavalarni himoya qiluvchi mahsus guruhlar tuzilgan. Oxir-oqibatda Gruziya ham SSSR Prokuraturasiga norozilik maktubi yo‘llagan. Xatda prokuraturada xodimlarning majlisi bo‘lganligi va bu majlisda quyidagi qaror qabul qilinganligi aytilgan edi: “1. SSSR Bosh Prokurori oldiga SSSR Bosh Prokurori o‘rinbosari I.I.Abramovni va boshqarma boshlig‘i V.I.Ilyuxinni Gruziya SSR Prokuraturasi Jamoasi bilan uchrashish uchun xizmat safariga yuborish masalasi qo‘yilsin. 2. K.A.Pirsxalava zudlik bilan qamoqdan ozod qilinsin, unga

⁵⁵ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchibchi kitob... – B. 455.

⁵⁶ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchibchi kitob... – B. 456.

nisbatan qilayotgan jinoiy ta'qiblar to'xtatilsin. 3. SSSR Prokuraturasi kollegiyasidan Gruziya SSR Prokuraturasining ushbu talablarini muhokama etish so'ralsin. Bunda keltirilgan talablarning rad etilishi respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni jiddiylashtiribgina qolmasdan, balki Gruziya SSR Prokuraturasi Jamoasi yig'ilishida ta'kidlanganidek, bu hol respublika huquqni himoya qilish organlari tomonidan SSSR Prokuraturasi rahbarligiga qarshi bir qator norozilik harakatlarining boshlanishiga sabab bo'lishi ham nazarda tutilsin"⁵⁷. V. Ilyuxin ushbu ma'lumotni keltirar ekan, qonuniy va haqli savolni qo'yadi. Gurji xalq bo'lganida o'zbek xalqi xalq emasmi? Nima sababdan o'n minglab, o'ttiz, qirq minglab o'zbekni qamoqqa olishlarda bu xalqning nafasi chiqmaydi? Buning sababi shundaki, sovetlar saltanati yillarida o'zbeklarda millat, milliy ong, milliy vijdon, milliy birlik tushunchalari so'nib ketdi. "Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun" degan tushunchalardan begonalashdik, "o'zingni bil o'zgani qo'y" asosiy shiorimiz bo'ldi. Faqat jig'ildonni, o'z cho'ntagimizni o'ylaydigan bo'lib qoldik, O'zbekiston hukumatichi, fuqarolarning insoniy haq-huquqlarini himoya qilish lozim bo'lgan davlat organlari, ularning rahbarlari-chi? Nega ular ham Gurjiston Prokuraturasi xodimlari singari o'z fuqarolari to'g'risida o'ylamadilar. Albatta O'zbekiston rahbarlari ham o'yladilar. Faqat ular o'z shaxsiy manfaatlarini o'yladilar, o'zlarining mansablari va lavozimlaridan ketib qolishdan qo'rqib, Gdlyan va Ivanovlar singari gazandalarning ko'nglini olishni o'yladilar. Ularga baribir edi. Necha ming odam hibsga olinib, qirilib qatag'on qilinsada ularning o'zlari mansab kursisida omon qolsalar bo'lgani, chunki rahbar ham o'z xalqiga munosib bo'ladi "Аргументы и факты" haftanomasining 1988-yil 30-sentabr sonida bosilgan O'zbekiston KP MQning birinchi kotibi R.N.Nishonov ning quyidagi qarorini o'qigan har bir kimsa yuqorida qo'yilgan qonuniy savollarga aniq javob topa oladi. O'zbekiston taqdiri, millat va xalq taqdiri uning qo'liga ishonib topshirilgan mamlakatning birinchi odami nimalar bilan "faxrlangan" ekan? "Respublikada jamiyat hayotining barcha jabhalarini sog'lomlashtirish uchun turg'unlik davri merosiga qarshi qattiq, og'ir kurash ketmoqda. KPSS

⁵⁷ Шарқ юлдузи. – 1993. – № 9. – Б. 56.

Markaziy Komiteti keyingi to‘rt yilda O‘zbekistonga yuzlab tajribali kadrlar yubordi. Avvalo respublikaga shunday ko‘lamli yordam keyingi 30 yil mobaynida birinchi marta amalga oshirilganini ta’kidlamoqchiman. Yangi xodimlarning kelishi bizning chinakam baxtimiz bo‘ldi. Respublikada so‘nggi to‘rt yil ichida 58 ming mas‘ul xodim vazifasidan bo‘shatildi. Men o‘zim shaxsan Telman Xoreonovich Gdlyan gruppasining ishini g‘oyatda ijobiy baholayman. Biz SSSR Prokuraturasining xodimlari bilan qo‘lni qo‘lga berib ish olib bormoqdamiz, ular Respublikada adolat o‘rnatish, Rashidov atrofidagi yaqin odamlarni javobgarlikka tortishda jon kuydirib ishlamoqdalar. Keskin kurash ketmoqda. Shuni ro‘y-rost aytishim kerakki, Gdlyan gruppasi respublika partiya organlari tomonidan qattiq qo‘llab-quvvatlanmaganida va har tomonlama yordam ko‘rsatmaganida edi, ular bu qadar samarali ishlay olmasdilar, albatta”.⁵⁸ Bu misol “O‘zbeklar ishi” Moskvaning topshirig‘i va ko‘rgazmasi bilan amalga oshirilgan bo‘lsada, uning asosiy jaholat izi va o‘zagi O‘zbekistonning o‘zida bo‘lganligini aniq isbotlaydi. “O‘zbeklar ishi” kampaniyasi davrida O‘zbekistonda xalqni talab olib ketilgan summa miqdori to‘g‘risida ham turlicha raqamlar tilga olingan. Jumladan Gdlyanning o‘zi O‘zbekistondan 140 million so‘m topdik, deb maqtangan. Keyinchalik “100” raqami noma‘lum sabablarga ko‘ra 40 millionga tushirilgan. Biroq bu pullar sinchiklab tekshirilganda xalqdan o‘marilgan pul atigi 15 million so‘m chiqqan, xolos. Qolgan pullar O‘zbekistonda “samarali” ishlaganlarning o‘pqonlariga tushib ketgan bo‘lsa ne ajab? 80-yillarda “desantchilar guruhi” O‘zbekistonda “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” bahonasida ijtimoiy hayotning deyarlik barcha sohalariga o‘z burunlarini tiqib “poklik” va “adolat” o‘rnatmoqchi bo‘ldilar. Qatag‘onlik yillarida O‘zbekistonda sodir etilgan bunday dahshatli yovuzliklar, adolatsizlik va bedodliklarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, unga guvoh bo‘lgan jurnalist va publitsist Komil Holmuhammad faryod soladi, qalamidan o‘t chaqnab mamlakatda bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabatini izhor etib yozadi: Tarixchilar o‘n yillardan keyin 1980-yillarning ikkinchi yarmida O‘zbekiston jumhuriyatida yana 30–50-yillarning sovuq dahshatli qora ko‘lankasi kezib

⁵⁸ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi . Uchibchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 458.

yurganligini jur'at etib yozishar, lekin shu narsa aniqki, 1983-yilning sentabridan O'zbekistonda ish boshlagan va had-hududsiz vakolat bilan SSSR Bosh Prokurori nomidan kelgan Gdlyan va Ivanovlar o'zbek xalqi farzandlarini, milliy kadrlarimizni qirib tashlashni asosiy maqsad qilib olishgan. Xo'sh, butun bir xalqning taqdirini belgilashga ularga kim bunchalik huquq berdi. Axir, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi "mustaqil suveren" respublikami o'zi?⁵⁹ Ha, hamma gap, balo va fojia yolg'onchi Konstitutsiyada O'zbekistonning mustaqil, suveren respublika, amalda esa u ilgarigidek Rossiyaning hech qanday huquqqa ega bo'lmagan mustamlaka o'lkasi bo'lib qolayotganligida edi. Bu nohaq berilgan qurbonlar, ona xalqimizning gunohsiz farzandlari boshlari uzra o'ynagan azob va jahannam gurzilari uchun tarix oldida, Oллоhu Karim oldida kimlardir ertadir-kechdir javob berishlari kerak-ku. Endi SSSR prokuraturasi tomonidan "O'zbek ishi"ning tugatilishi to'g'risida to'xtaladigan bo'lsam. Gdlyan boshchiligidagi tergov guruhi ishini tashkil etishda, uning faoliyati ustidan qattiq nazorat o'rnatishda SSSR prokuraturasi katta xatoga yo'l qo'ydi va sobiq tergov qismi rahbariyatiga haddan tashqari ishonib, ishni o'z holiga tatshlab qo'ydi. Bundan foydalangan Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi tergovchilar beayb kishilarga xohlagan ayblarini taqay boshladilar, o'z ishlari nazorat qilinmayotganligini anglagan holda yashirin ravishda yolg'on guvohliklar berilishini talab qildilar, shu tarzda dalillarni soxtalashtirdilar. Ishlarning borishini mamlakatdagi sharoitga va vaziyatga hamda yetakchi rahbarning beqaror ahvoliga qarab xohlaganlaricha o'zgartiraverdilar. "Ular taxminan shunday ish tutdilar: bugun Ligachevga nisbatan ashyoviy dalillar to'plasalar, ertasiga Rekunkov ustidan, Yelsin ustidan, Suxarev ustidan, Solomensev ustidan ularni qoralovchi dalillarni to'plar edilar"⁶⁰. Bu tergov guruhining o'zbek xalqiga nisbatan qilgan noxaqliklari va qolaversa o'zidan yuqori mavqeda bo'lgan davlat mansabdorlarini jinoyatchilikda ayblashga urinishlari javobsiz qolmadi. SSSR prokuraturasi tomonidan Gdlyan va Ivanov tergov guruhini tekshirish uchun maxsus kommissiya

⁵⁹ Фан ва турмуш. – 1990. – № 7. – Б. 24.

⁶⁰ Илюхин В. Қабохат ёхуд... ("Ўзбек иши" деган уйдирма хусусида). – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 11.

tuziladi. Adolat qaror topa boshlaydi. V.I.Ilyuxin boshchilik qilgan tergov guruhi O'zbekiston qishloqlarida mehnat qiluvchi mehnatkashlarga nisbatan soxta tarzda uyushtirilgan jinoyat ishlarini tergov qilishda T.Gdlyan guruhi tomonidan sodir etilgan qo'pol qonunbuzarliklar faktini isbotladi. Gdlyanchilar guruhi tergovchilari tomonidan fuqarolarni pora tariqasida olingan boyliklarni saqlashda ishtirok etishda yolg'on guvohlik berishga majburlash yo'li bilan sun'iy dalillar to'plash faktlari o'z isbotini topdi. "Dalil" to'plashda ish shunga borib yetganki, jinoyatlarga hech qanday aloqasi bo'lmagan insonlar o'z yaqinlarini asrab qolish uchun o'zlarining shaxsiy omonatlari, bolalari va nevaralarining to'yiga atab olib qo'yilgan tilla va boshqa taqinchoqlarni topshirishgan, qarindoshlari va tanishlaridan qarz olishgan. Shuningdek, odamlar qamalmaslik uchun pul to'plab, do'konlardan qimmatbaho narsalar sotib olib, ularni go'yoki jinoyat yo'li bilan orttirilgan boylik sifatida topshirishgani ham aniqlangan. Bunday «musodara»lar o'shanda butun O'zbekiston bo'ylab yuz bergan. T.Gdlyan shaxsan o'zi odamlarni tahdid, shantaj, noqonuniy ushlash, qamoqqa olish va tahqirlash vositasida ko'rsatma berishga majburlab, tergovning noqonuniy usullarini amaliyotga joriy etgan. "1989-yilning 25-mayida Moskvada SSSR bosh prokuraturasi tomonidan T.Gdlyan boshchilik tergov guruhi tomonidan yo'l qo'yilgan qonunbuzarlik holatlari faktlari bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan"⁶¹. Uning o'zini tergov harakatlarini amalga oshirishda korrupsiya va boshqa qoidabuzarliklarda ayblashgan.

Rasmiy hujjatlardan ko'chirmalar gdlyanchilar guruhining O'zbekiston hududida jinoiy faoliyatini tasdiqlaydi:

"1. O'zbekistonda ishlarni tergov etishda sshaxsan T.Gdlyan va tergov guruhi tomonidan tizimli ravishda qonunning qo'pol buzilishi, ommaviy zo'ravonlikka, shuningdek, O'zbekiston xalqining or-nomusi va qadr-qiymatini tahqirlash hollariga yo'l qo'yilgan.

2. Jinoyat-protsessual normalar talablari, SSSR bosh prokurori buyruqlari e'tiborga olinmagan, bu esa og'ir oqibatlarga, aybsiz fuqarolarning noqonuniy

⁶¹ <https://kun.uz/new/2018/05/04/telman-gdlyan-jinoyatchi-va-o'z-qilmishlari-uchun-javobgarlikka-tortilishi-kerak>

ushlanishi va hibsga olinishi, ularni konstitutsion huquqlarda g'ayriqonuniy tarzda cheklash, jinoiy javobgarlikka asossiz ravishda tortishga olib kelgan.

V.I.Ilyuxinning tergov guruhi SSSR Oliy kengashi oldiga T.Gdlyan va uning “hamtovoqlari”ni jinoiy javobgarlikka tortish masalasini ko'ndalang qo'ygan, T.Gdlyanga nisbatan ishlar sudga yuborilgan. Gap shundaki, o'sha vaqt u SSSR Oliy kengashida va bir vaqtning o'zida Armanistonda deputat sanalardi. Shu munosabat bilan, deputatni jinoiy javobgarlikka tortish uchun parlamentning ruxsati kerak bo'lardi, biroq SSSR Oliy kengashi V.I.Ilyuxinning tergov guruhi talabini rad etgan. Oliy kengash T.Gdlyanni prokuratura organlaridan ishdan olinishiga rozilik bergan, xolos, lekin uni jinoiy javobgarlikka tortishga ruxsat taqdim etmagan”⁶². O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bir necha bor Gdlyan va Ivanovga nisbatan ularning O'zbekiston hududida sodir etgan jinoyatlari bo'yicha jinoiy ish materiallarini jo'natishni so'rab murojaat qilgan, lekin xatlarning barchasi javobsiz qolib ketavergan. Shunday qilib, yurtimizda “Paxta ishi”, “O'zbek ishi” nomi ostida qatag'on siyosatini amalga oshirgan Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi tergovchilar guruhining faoliyati tugatilgan.

“Paxta ishi” nomi ostidagi sovetlarning qatag'on siyosatining besh yillik umumiy manzarasi juda ham ayanchli edi. “Yosh leninchi” gazetasining 1991-yil 11-iyun sonida firqa, urush va mehnat faxriysi Nuriddin Muhitdinovning “U kunlar qaytmasin” degan o'ylari bosilgan. Sobiq birinchi kotib keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Markazqo'mning XVI plenumidan so'ng, ya'ni 1984-yildan 1989-yilgacha O'zbekistonda 57,5 ming yoki firqa organlari nomenklaturasiga kiruvchi xodimlarning 74 foizi o'zgartirilgan. Kompartiyadan 19 ming nafar kommunist o'chirilgan, 300 kishi saylab qo'yiladigan partiya organlari tarkibidan chiqarilgan. Oliy hamda mahalliy Kengashlardan 250 nafar deputat chaqirib olingan. “Birgina “Paxta ishi” (boshqa ishlar ham bor edi) bo'yicha 22 mingga yaqin kishi hibsga olingan. Paxta tozalash sanoati vaziri Usmonov otildi. Buxoro viloyat firqa qo'mitasining sobiq birinchi kotibi Karimov oliy jazoga hukm qilindi, ammo keyinchalik uzoq qamoq jazosi bilan almashtirildi. Qashqadaryo viloyat firqa

⁶² <https://kun.uz/new/2018/05/04/telman-gdlyan-jinoyatchi-va-uz-qilmishlari-uchun-javobgarlikka-tortilishi-kerak>

qo‘mitasining sobiq birinchi kotibi G‘oipov, Ichki ishlar vaziri Ergashev, uning o‘rinbosari Davidov, jumhuriyat, viloyat, nohiya darajasidagi yana bir necha rahbar xodim o‘z-o‘zini o‘ldirdi. Jinoiy javobgarlikka tortilganlar orasida 442 nafar jamoa xo‘jaligi raisi, davlat xo‘jaligi direktori, 94 nafar paxta zavodi direktori, 37 nafar firqa va sho‘ro xodimi bor edi. Hammasi bo‘lib 70 ming kishi hibsga olingan”⁶³. Xullas “Paxta ishi” yuzasidan necha ming odam qamoqqa olinganligidan qat’i nazar o‘zbek xalqi boshiga 80-yillarda ommaviy kulfat tushgan edi. Gdlyan va Ivanovlar guruhi O‘zbekistonda bilgan va bilmagan barcha noma’qulchiliklarni qildilar. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov: “O‘zbekiston jamoatchiligi o‘zining eng yaqin tarixidagi Gorbachyov, Ligachyov komandasi xalqni jilovda tutib turish, uning o‘sib kelayotgan milliy va siyosiy ongini bo‘g‘ish niyatida “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” deb atalmish tuhmatlarni to‘qib chiqargan, biz o‘zbeklarga turli-tuman sharmandali tamg‘alar yopishtirilgan fojiali sahifalarni hech qachon unutmaydi”⁶⁴, degan edi.

Xullas, ona tariximiz o‘tmishining sovetlar saltanati davri, xususan 80-yillardagi qatag‘onlik yillari dardli, alam va motamsaro voqealarga to‘la xalqimizning millat sifatida qaddi bukilgan, xo‘rlangan va oyoqosti qilingan davridir. Kelajakdan umidi bo‘lgan inson va millat sifatida yashayman degan avlodlarimiz tariximizning yaqin o‘tmishdagi achchiq saboqlaridan hayotiy xulosalar chiqarmoqlari ham qarz ham farzdir. Inomjon Usmonxo‘jayev respublikaga raxbarlik qilgan yillarda siyosiy va iqtisodiy vaziyat yomonlashdi, u qat’iyatsizligi va jur’atsizligi tufayli Markazning tazyiqiga dosh bera olmay, 1984-88 yillarda O‘zbekistonning ko‘plab xo‘jalik va partiya arboblarni “paxta ishi” va “o‘zbeklar ishi” degan soxta siyosiy ayblovlar natijasida qatag‘on qilinishiga, xalqning milliy g‘ururi va qadriyatlarini kamsitilishiga yo‘l qo‘yib berdi.

⁶³ <https://www.xabar.uz/siyosat/qotil-qo'li-qilich-soldi-mast>.

⁶⁴ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchibchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 460.

II BOB. O'ZBEKISTON SSR RAHBARI RAFIQ NISHONOV PORTRETIGA CHIZGILAR

2.1. Rafiq Nishonov rahbarligi davrida O'zbekiston SSRning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Rafiq Nishonov ich Nishonov 1926-yil 15-yanvar kuni Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida⁶⁵ kambag'al dehqon oilasida tug'ildi. 1949-yildan beri KPSS a'zosi. Ma'lumoti oliy, V. G. Belinskiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutini bitirgan, tarix fanlari kandidati. Mehnat faoliyatini 1942-yilda Bo'stonliq tumanidagi "Chirchiq" kolxozi a'zolidan boshlagan. So'ngra komsomol ishiga ko'tarilgan va 1944-yili Bo'stonliq tuman komsomolining 2-sekretari bo'lib ishlagan. 1945-1950-yillarda Sovet Armiyasi saflarida xizmat qilgan. 1951-yildan boshlab sovet va partiya ishlarida xizmat qildi, Toshkent shahridagi tuman partiya komitetida sekretar, Toshkent shahar partiya komitetida propaganda va agitatsiya bo'limining mudiri, 1959-yildan Toshkent shahar Oktyabr tuman partiya komitetining sekretari, 1962-yili Toshkent shahar ijroiya komitetining raisi bo'lib ishladi. 1963-1970- yillarda R. N. Nishonov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining sekretari bo'ldi. 1970-1978-yillarda u Shri-Lanka respublikasida va Maldiv respublikasida SSSRning favqulodda va muxtor elchisi, shundan keyin 1985-yilgacha SSSRning Iordaniyadagi elchisi bo'ldi, 1985-yilning mart oyidan boshlab O'zbekiston SSR tashqi ishlar ministry lavozimida ishladi. 1986-yilning 9-dekabrda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining Raisi etib saylandi. Ayni paytda Rafiq Nishonov SSSR Ittifoqi Oliy Soveti Prezidiumi Raisining o'rinbo'sari, O'zbekiston SSR Kompartiyasi Markaziy Komiteti Byurosi a'zosi , SSSR Oliy Soveti va O'zbekiston SSR Oliy Sovetining deputati bo'lgan. 1989-yil 12-yanvar kuni O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining VIII plenumi bo'lib o'tdi. Plenum tashkiliy masalani ko'rib chiqdi. Plenumda Inomjon Usmonxo'jayev salomatligi yomonlashganligi sababli pensiyaga chiqishi munosabati bilan plenum uni O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari va Markaziy Komitet Byurosining a'zosi vazifalaridan ozod

⁶⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-том. – Т.:Ўзбекистон, 2005. – Б. 369.

qildi. Plenumda R.N. Nishonov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari qilib saylandi.⁶⁶ 1988-yil 12-yanvardan 1989-yil 23-iyungacha O'zbekiston SSR Kompartiyasi Markaziy Komiteti Birinchi sekretari lavozimida ishladi. 1989-1991-yillarda SSSR Oliy Soveti Millatlar Sovetining raisi lavozimida faoliyat yuritdi. 1991-yil noyabrdan pensioner. 2012-yili "Daraxtlar tongacha ko'karadi" nomli xotira kitobini chiqardi. 2015-yili Rossiya Federatsiyasining "Hurmat Belgisi" ordeni bilan taqdirlangan. Bundan tashqari sobiq Ittifoq davrida ikkita Mehnati Qizil Bayroq ordeni, ikkita "Hurmat Belgisi" ordeni, SSSR medallari, Iordaniyaning birinchi darajali "Mustaqillik" ordeni bilan mukofatlangan. "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan.⁶⁷ Rafiq Nishonovning xotini Ra'no Nazarovna tarix fani kandidati, O'zbekiston SSR madaniyat vazirining o'rinbosari lavozimida ishlagan. O'g'li Sobir harbiy bo'lgan. Uni 4 qizi bor bular: Dilbar, Mo'nira, Gulnora, Firuza. Katta qizi Dilbar nashriyotda ishlagan, Munira tadbirkor, Gulnora shifokor bo'lib ishlaganlar⁶⁸. Hozirda Rafiq Nishonov o'z oilasi bilan Rossiya poytaxti Moskva shahrida yashamoqda.

Rafiq Nishonov ning davlat rahbari sifatidagi faoliyati quruq ma'ruzabozlik va majlisbozlikdan nariga o'tmagan. Misol uchun dastlabki ishlaridan biri 1988-yilgi yil yakunlari hisobotidir. Hisobotda shunday deyiladi: "1987-yilning Yanvar-oktyabr oylarida davlat buyurtmalariga muvofiq va iste'molchilar bilan shartnomalar asosidagi bevosita aloqalarga binoan mahsulot yetkazib berish shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi yaxshilanishiga erishildi. 1987-yilning yanvar-oktyabr oylarida majburiyatlar 97,6 foiz va butun o'tgan yil mobaynida 97,7 foiz bajarilgan bo'lsa, bu yil yanvar - oktyabr oylarida 98, 6 foiz bajarildi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 3,2 foiz ko'paydi. 1988-yilning yanvar-oktyabr oylarida 7 milliard 976 million 500 ming so'mlik (chakana narxlarda) xalq iste'moli mollari (alkogolli ichimliklar bu hisobga kirmaydi) ishlab chiqarildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 622, 3 million so'mlik (8,5 foiz) ko'pdir. SSSR

⁶⁶ "Совет Ўзбекистони", 1988 йил 13 январь .

⁶⁷ "Совет Ўзбекистони", 1988 йил 13 январь .

⁶⁸ https://ru.wikipedia.org/wiki/Нишонов,Рафик_Нишонович.

Qora metallurgiya ministrligi, SSSR Rangli metallurgiya ministrligi, SSSR Meditsina va mikrobiologiya sanoati ministrligi, SSSR O'rmon sanoati ministrligi va boshqa vazirliklarning korxonalari belgilangan topshiriqlarni uddalay olmadilar. Mebel, ip-gazlama, trikotaj va paypoq ishlab chiqarishning planlashtirilgan hajmlariga erishilmadi. "1988-yilning yanvar-oktyabr oylaridagi ish yakunlari yuzasidan O'zbekiston SSR yengil sanoat ministrligining 11ta ishlab chiqarish birlashmasi va korxonasi shartnomaviy majburiyatlarni bajarmadi. Mazkur korxonalar 34, 1 million so'mlik (shartnoma shartlarida) yengil sanoat mahsuloti va mollarini kam yetkazib berdi. Umuman shartnomaviy majburiyatlar 98,8 foiz bajarildi. Eng k'p qoloqlikka yo'l qo'ygan korxonalar orasida Toshkent to'qimachilik kombinati (95,0 foiz), Andijon ip gazlama kombinati (95,7 foiz), Jizzax ip yigirish fabrikasi (69,5 foiz) bor. O'zbekiston SSR Davlat agrosanoat komitetining korxonalari iste'molchilarga 46,7 million so'mlik mahsulotni kam berdi (plan 98,9 foiz bajarildi)"⁶⁹. Bu hisobotdan ko'rinib turibdiki Rafiq Nishonov ranbarligi davrida respublikada belgilangan planni bajarishda yutug'lardan ko'ra kamchiliklar ko'p bo'lgan. Go'sht, kolbasa mahsulotlari, go'shtli masalliqlar ishlab chiqarish yuzasidan yanvar - oktyabr oylari uchun belgilangan topshiriq darajasiga erishilmadi. Kolbasa mahsulotlari, o'simlik yog'i omixta yem va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish o'tgan yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan kamaydi. Neft, gaz qazib olish, ximiya mashina uskunalari, ekskavatorlar, yigiruv mashinalari, mineral o'g'it, ximiyaviy tola va ip, o'simliklarning himoya qilishning ximiyaviy vositalari, qog'oz, sement, linoleum, asbest-sement quvurlar va muftalar, zovurbop spool quvur va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishning yanvar-oktyabr oylari topshiriqlari bajarildi va ularni ko'paytirishga erishildi. Shu bilan birga, ko'mir qazib chiqarish, transformatorlari, kompressorlar, traktorlar, paxta terish mashinalari, oltingugurt kislotasi, shifer, imoratbop g'isht va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yuzasidan belgilangan topshiriqlarning bajarilishi ta'minlandi. Yanvar-oktyabr oylarida davlat buyurtmalariga muvofiq va iste'molchilar bilan shartnomalar asosidagi bevosita

⁶⁹ "Совет Ўзбекистони", 1988 йил 18 ноябрь.

aloqalarga binoan mahsulot yetkazib berish shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi yaxshilanishiga erishildi. “1987-yilning yanvar-oktyabr oylarida majburiyatlar 97,6 foiz va butun oʻtgan yil mobaynida 97,7 foiz bajarilgan boʻlsa, bu yil yanvar-oktyabr oylarida 98,6 foiz bajarildi. Sanoat mahsuloti ishlab ishlab chiqarish 3,2 foiz koʻpaydi”⁷⁰.

Rafiq Nishonov rahbarligi davrida Oʻzbekiston SSRning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli boshi berk koʻchaga kirib qoldi. Sovetlar va Kommunistik firqa ijtimoiy-iqtisodiy turmushning barcha sohalarida mustamlakachilarga xos tub yerli aholini har tomonlama tahqirlovchi va kamsituvchi siyosat olib bordi. Ammo Rafiq Nishonov bu siyosatga qarshi chiqish oʻrniga unga yordam berdi. Bu siyosat “hamma narsa inson uchun, insonning baxt-saodati uchun” degan balandparvoz shiorlar pardasiga oʻralgan holda amalga oshirildi. Bu bilan men XX asrning 80-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy sohada qilingan ishlarni eʼtibordan qochirayotganim yoʻq. Albatta bu yillarda aholining uy-joy bilan taʼminlash, vodoprovod, kanalizatsiya qurilishi, madaniy-maishiy xizmat turlarining qurilishi va hokazo sohalarda ancha ishlar qilindi. Men bu oʻrinda oʻquvchi diqqat-eʼtiborini sovetlar hukumatining Oʻzbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohada koʻrsatgan shovinistik davlatchilik faoliyatiga qaratmoqchiman. Gap Ittifoq yagona xoʻjalik kompleksi, unda hamma respublikalar va xalqlar teng huquqlarga ega deb eʼlon qilgan va uni oʻz Konstitutsiyasida yozib qoʻygan boʻlsada amalda, hayotda mutlaqo boshqa qonunlar harakatda edi. Jumladan Rossiya Federatsiyasidagi ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot va idoralardagi xodimlar bilan Oʻzbekistondagi xodimlarning ish haqlari bir-biridan keskin farq qilardi. Hatto Oʻzbekistonning oʻzida ham Ittifoq tasarrufidagi (497ta) korxonalar bilan mahalliy korxonalarda ishlaydigan ishchilarning oladigan oylik maoshlari oʻrtasida katta farq boʻlardi. Jumladan, “1950-yilda Ittifoq tasarrufidagi korxonalardagi ishchilarning ish haqlari 133 foiz oshgani holda, respublikaga qarashli korxonalardagi mehnatchilarning ish haqlari faqat 73 foiz oshdi, xolos, 80-yillarning oʻrtalariga kelganda Oʻzbekiston aholisining jon boshiga toʻgʻri keladigan daromadlari Rossiya Federatsiyasi va

⁷⁰ “Совет Ўзбекистони”, 1988 йил 18 ноябрь.

boshqa jumhuriyatlarga taqqoslaganda 2-3 barobar kam edi. Ayniqsa, jamoa xo‘jaliklari a‘zolarining oylik ish haqlari juda past edi. 1988-yilda jamoa xo‘jaligi a‘zosining bir oylik ish haqi Ittifoq bo‘yicha 181,8 so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich RSFSRda – 200,4 so‘mga, Estoniyada – 304,9 so‘mga va O‘zbekistonda – 149,6 so‘mga teng bo‘lgan. Rossiya shaharlaridagi aholining o‘rtacha oyligi esa 250 so‘mga teng edi. O‘zbekistonda oyiga 75 so‘mdan kam yalpi daromad oladiganlar ulushi aholining 45 foizini tashkil etgan”⁷¹. Bu so‘zsiz suratda respublika mehnatkashlari ijtimoiy-iqtisodiy va turmush darajasining g‘oyatda og‘ir bo‘lganligini ko‘rsatuvchi dalildir va bu narsa mamlakat aholisining yashash tarzi, xarid quvvati, turmush ahvoli, tibbiyot xizmati kabi masalalarda o‘z ta‘sirini ko‘rsatar edi. Masalan, 1988-yilda shaharda yashovchi har bir kishi boshiga to‘g‘ri keladigan tovar oboroti Ittifoqda o‘rtacha 1566 so‘mni, Estoniyada 2339 so‘mni tashkil etgani holda, O‘zbekistonda u 1201 so‘mga teng bo‘ldi, xolos. Respublikaning qishloq joylarida esa umuman achinarli ahvolda bo‘lib, 451 so‘mni tashkil etardi. Aholiga tibbiyot xizmati ko‘rsatish ham talab darajasida emasdi. Markaziy hukumat O‘zbekistonda aholi jon boshiga tibbiyot xizmati ko‘rsatish maqsadlari uchun o‘rtacha 49 so‘m 77 tiyin mablag‘ ajratdi. Holbuki, bu ko‘rsatkich Ittifoq miqyosida qariyb ikki barobar ortiq bo‘lib 81 so‘m 85 tiyinga teng edi. O‘zbekiston aholini uy-joy bilan ta‘minlashda ham eng og‘ir ahvolda bo‘lgan. Aholi jon boshiga hisoblaganda uy-joy qurilishi uchun ajratilgan kapital mablag‘ 1987-yilda o‘rtacha SSSR bo‘yicha 119,5 so‘mga teng bo‘lgan bo‘lsa, RSFSRda – 139 so‘m, Estoniyada – 119 so‘m va O‘zbekistonda – 78 so‘mni tashkil etgan. Bolalar bog‘chalari bilan ta‘minlanish va boshqa madaniy-maishiy ishlar sohasida ham respublikada og‘ir vaziyat vujudga kelgan edi. 80-yillarda aholining 60 foizdan ortiqrog‘i istiqomat qilayotgan o‘zbek qishlog‘ining ahvoli g‘oyatda tang edi. 1989-yilning avgustiga qadar bo‘lgan yozma ma‘lumotlarda qayd etilishicha, O‘zbekiston qishloq aholisining faqat “5 foizi kanalizatsiya va vodoprovod bilan, salkam 50 foizi normal ichimlik suvi bilan, 17 foizi”⁷² tabiiy

⁷¹ Қобилов Ш. Р. Пахта яккахокимлиги ва унинг ҳалокатли оқибатлари. – Тошкент, 2015. – Б. 9.

⁷² Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 49.

gaz bilan ta'minlangan edi, xolos. O'zbekiston eng bolajon respublika bo'lganligidan aholining yerga va hovli joylarga bo'lgan ehtiyoji yil sayin oshib bordi. 1950- yildan 1990-yilga qadar O'zbekiston aholisi "14 million 58 ming kishiga ko'paydi va ja'mi bo'lib 20 million 322 ming"⁷³ kishiga etdi. Shu boisdan ham 1989-yilgi ma'lumotlarga qaraganda "O'zbekistonda 240 ming oilaning mutlaqo yeri bo'lmagan. 1,8 milionidan ko'proq aholi esa uy-joy qurilishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun kengaytirishga juda muhtoj edi. Faqat Toshkent shahrining o'zida 92 ming oila"⁷⁴ yer uchastkasi olish uchun navbat kutardi. Yuqoridagi aytilgan fikrlarni jamlashtirib xulosa qilinadigan bo'lsa, O'zbekiston xalqi 80-yillarning oxirlariga kelib sobiq Ittifoqda og'ir va nochor iqtisodiy kambag'al ahvolga tushib qolgan edi. Rafiq Nishonov rahbar sifatida bunday og'ir ahvoldan davlatni olib chiqish uchun deyarli hech qanday chora tadbir ko'rmadi. O'zbekiston xalqi 80-yillarning oxirlariga kelib sobiq Ittifoqda og'ir va nochor iqtisodiy kambag'al ahvolga tushib qolganligini shu dalildan ham bilsa bo'ladiki, 1989-yilda O'zbekistonda jon boshiga hisoblaganda o'rtacha yalpi oylik daromadlari 75 so'mgacha bo'lgan aholi soni 45 foizni tashkil etgan.

Ittifoq bo'yicha bu ko'rsatkich – 12,6, Litvada – 3,6, Latviyada – 3,2, Estoniyada – 3,9, Belorussiyada – 5,9, Ukrainada – 8,1, RSFSRda esa – 6,3 foizni tashkil qilgan. Jon boshiga o'rtacha 200 so'mdan ko'proq yalpi daromad to'g'ri keladigan aholining miqdori O'zbekistonda bor-yo'g'i 2,8 foiz bo'lgani holda, Ittifoq bo'yicha bu daraja 17,2, Boltiqbo'yi jumhuriyatlarida 28,5, RSFSRda 22 foizga⁷⁵ teng edi. O'zbekistonda paxta yakkahokimligining avj olishi, aholi uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jalik va chorvachilik mahsulotlarining kam ishlab chiqarilishi, qimmatchilik, narx-navoning oshishi va eng muhim aholi xarid quvvatining nochorligi mamlakatda og'ir oqibatlarini keltirib chiqardi. Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning og'irligi va muttasil ishsizlar sonining oshib borishi aholi turli tabaqalari, xususan yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning ko'payishiga sabab bo'lgan omillardandir. Og'ir iqtisodiy turmush sharoiti mamlakatda fojiaiy

⁷³ Тухлиев Н. Ўзбекистон иқтисодиёти. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б.9.

⁷⁴ «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1989 йил, 25 август.

⁷⁵ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchibchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – B.426.

tus olgan ekologik buhron bilan birga qo'shilib aholi o'rtasida turli xildagi kasalliklarni keltirib chiqardi. Arkadiy Marning yozishicha keyingi sakkiz yilda O'zbekistonda rak kasali bilan og'rish 16,5 foizga ortgan. Har yili respublikada 13800 kishi rak bilan kasallanib nobud bo'lgan. Hayot jumboqlaridan to'ygan va unga qarshi kurashda o'zini ojiz va chorasiz deb hisoblagan ayollar o'zlariga o't qo'yish yo'li bilan undan qutulishga o'tdilar. 80-yillarda O'zbekistonda har yili o'rtacha 200-300 ayol o'ziga o't qo'yardi. Natija shu bo'ldiki, mamlakatda aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi qisqarib bordi. Jumladan, 1969-1970-yillarda erkaklar 68,5 va ayollar 74,6 yil o'rtacha umr ko'rgan bo'lsalar 1986–1987-yillarda bu ko'rsatkich erkaklarda 65,6 va ayollarda 71,2 yoshgacha qisqardi. Buning asosiy sababi O'zbekistonning paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilganida edi. XX asrning 80- yillari o'rtalariga kelib O'zbekistonda paxta ekiladigan yer maydoni 3 million gektardan ham ortiqroqni tashkil etgan edi.⁷⁶ Bunday og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat O'zbekistonda uzoq davom etishi mumkin emas edi. Insoniy haq-huquq va adolat uchun milliy mustamlakachilik zulmiga qarshi hal qiluvchi kurash pallasini yaqinlashmoqda edi. Bu jarayonning sabablari nimalardan iborat? Birinchidan, 70 yildan ortiq vaqt mobaynida sovetlar jamiyatida amal qilib kelgan kompartiyaning yakkaboshchilikka asoslangan ma'muriy byurokratik-buyruqbozlik ish yuritish uslubi hayot sinoviga bardosh bera olmadi. Kommunistik firqa sovetlar uchun kurashdi va ommani o'z orqasidan ergashtirdi. 1917-yil oktabr to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga kelgan kompartiya boshqa siyosiy firqalar faoliyatini cheklab qo'ydi, har qanday erkin hur fikrlashlarga barham berdi va proletariat diktaturasi tizimi (sovetlar, partiya, kasaba ittifoqi yoshlar uyushmalari, kooperativlar va hokazo)larda yagona rahbarlikni da'vo qilib chiqdi. U endi o'zining siyosiy partiya sifatidagi qiyofasini batamom yo'qotdi, u ma'muriy organga, zo'rlikka tayanuvchi davlat mashinasini harakatga keltiruvchi eng asosiy richag-motorga aylandi. Kompartiya sovetlar jamiyatining rahbar, tashkilotchi va yetakchi kuchi bo'lib qoldi. Bu hol SSSR Konstitutsiyasining 6-moddasida quyidagicha ta'riflangan: "Sovet jamiyatining

⁷⁶ Исоқов Б. Истиқлол – Истиқбол Ибтидоиси. – Наманган: Наманган, 2017. – Б. 142.

rahbar va yetakchi kuchi, sovet sistemasining davlat jamoat tashkilotlarining o‘zagi sovet ittifoqi kommunistik partiyasidir”⁷⁷. Bu qoida hech qanday o‘zgarishsiz O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonun)ning 6-moddasida ham yozib qo‘yildi.⁷⁸ SSSR va O‘zbekiston SSR Konstitutsiyalarining 2-moddasida “Hokimiyat xalqniki”dir, xalq davlat hokimiyatini davlatning siyosiy negizini tashkil etgan, “...xalq deputatlari Sovetlari orqali amalga oshiradi”⁷⁹, deb yozib qo‘yilgan bo‘lsada, bu amalda deklarativ xususiyatga ega edi. Davlatning asosiy siyosiy negizini tashkil etuvchi “sovetlar” endi amalda ikkinchi darajali qo‘g‘irchoq rasmiy bir tashkilotga aylanib qolgandi. Davlatning taqdirini hal etuvchi asosiy kuch KPSS, uning Markaziy Qo‘mitasi Siyosiy Byurosi edi. Ichki va tashqi siyosatga oid barcha masalalar, yillik va besh yillik rejalar, kadrlar tanlash va joy-joyiga qo‘yishlargacha dastlab KPSS MQ Siyosi byurosida hal bo‘lardi va so‘ng sovetlarning mas‘ul organlari uni Shunchaki “ko‘rib” tasdiqlar edi. Ish shu darajaga yetdiki, KPSS safidan chiqarilgan xodim o‘z ish vazifasidan ketishi u yoqda tursin, u albatta qamoqqa olinar va jazolanar edi. Bunday tartib-qoida, ish uslubini va jamiyatga rahbarlik qilishni KPSS jumhuriyatlarda ham o‘zining filiallari bo‘lgan kompartiyalar orqali amalga oshirar edi.

Xullas, KPSS Markaziy Qo‘mitasi Siyosiy byurosidan tortib, to barcha Ittifoqchi respublikalardagi kompartiya boshlang‘ich partiya tashkilotlariga qadar yagona zanjir sifatida bog‘lanib ketgan edilar. Sovetlar tuzumining tabiatiga xos bo‘lgan kompartiyaning bunday rahbarlik ish uslubi shaxsga sig‘inish bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy hodisalarnigina keltirib chiqarib qo‘ymasdan, ayni paytda sovetlar jamiyatining ichidan yemirilishini tezlashtirgan omillardan bo‘ldi. Buni O‘zbekiston misolida ochiq-oydin ko‘rish mumkin. Ittifoqning hamma jumhuriyatlarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham birinchi rahbarni ko‘klarga ko‘tarib maqtash, ulug‘lash, unga hamd-u sanolar o‘qish kuchaydi. Odam to‘g‘risida ularning turmush va mehnat sharoitlari, ijtimoiy kayfiyati haqida chinakam g‘amxo‘rlik qilish o‘rniga ko‘p hollarda siyosiy tilyog‘lamalik,

⁷⁷ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. – T.: Sharq. 2010. – B. 431.

⁷⁸ Ўзбекистон ССР Конституцияси (Асосий қонуни). – Т.: Ўзбекистон, 1989. – В. 5.

⁷⁹ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob... – B. 432.

rahbarning ko'nglini ovlash, laganbardorlik kabi ishlar avj oldi, mehnatga haq to'lashda tekislik kuchaydi, odamlar o'rtasida mehnatga qiziqish so'nib ketdi. Hamma sohada qo'shib yozishlar odat tusiga kirdi. Oshno-og'aynigarchilik, qarindosh-urug'chilik, poraxo'rlik avjiga mindi. Ijtimoiy -adolat buzildi. Ommaviy suratda unvonlar, nishonlar tarqatish odat tusiga kirdi. Odatda bunday unvon, nishonlar odamlarning haqiqiy mehnat natijalariga qarab emas, balki ularning rahbarlarga, "sadoqati" evaziga berilardi. Dabdababozlik kuchaydi. Hayotda kamchiliklarni, xususan birinchi rahbarlarning xatolarini tanqid qilish amaliyotiga umuman chek qo'yildi.

Ommaviy axborot vositalari: matbuot, radio va televideniya "Sharqda sotsializm va kommunizm mash'ali bo'lgan O'zbekistonning" sovetlar davrida erishgan "muvaffaqiyatlari"ni tashviqot va targ'ibot qilish bilan band edi. Haqiqiy hayot esa mutlaqo boshqacha edi. Albatta bunday hayot uzoq davom eta olmasdi. Ikkinchidan, sovetlar amal qilgan kommunistik firqa ishlab chiqqan va asos solgan "lenincha milliy siyosat" boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Sovetlar va kompartiyaning milliy siyosatdagi bosh maqsadi rus bo'lmagan boshqa millatlarni umuman millat sifatida yo'q qilib yuborish, assimilyatsiyalashdan iborat edi. Bu jarayon xususan KPSS XXII syezdining "Kommunizm qurish" dasturi qabul qilingach, bevosita kun tartibiga qo'yildi. SSSRda "sotsializm to'la va uzil-kesil g'alaba" qilgach SSSR xalqlarining yangi tarixiy birligi – sovet xalqi paydo bo'ldi. Bu birlik: "Yagona Vatan – SSSR"; "Yagona til – rus tili"; "Yagona maqsad – kommunizm"; "Yagona mafkura – marksizm-leninizm"ga asoslanadi, degan g'oyalardan kelib chiqib "Yagona xalq – sovet xalqi", "Yagona pasport – sovet pasportini" ilgari surishgacha borib yetdilar. Sovetlar va kompartiya rahbarlari bu masaladagi asl muddao va maqsadlarini hech kimdan yashirgan ham emaslar. "Bizning pirovard maqsadimiz ravshan, – degan edi KPSS MKning Bosh kotibi Y.V.Andropov, – Bu maqsad, V.I.Lenin so'zlari bilan aytganda, "Millatlarni bir-biriga yaqinlashtirishgina emas, ularni qo'shish hamdir"⁸⁰ Ammo bu vazifani birdaniga amalga opshrish g'oyatda qiyin ish edi. Shu bois kompartiya o'zining

⁸⁰ "Совет Ўзбекистони", 1982 йил 22 декабрь.

razil maqsadlarini “baynalmilal tarbiya” bayrog‘i ostida sistemali suratda 70 yildan ortiq vaqt mobaynida xaspo‘shlab olib bordi. Ammo xalqimizning ko‘zi sekinlik bilan bo‘lsada ochilib, bu soxta milliy siyosatning asl mohiyatini tushuna bordi. Chunki milliy siyosatdagi ikkiyuzlamachilik uzoq davom etishi mumkin emas edi. O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasining 68-moddasida: “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi – suveren sovet sotsialistik davlatdir”⁸¹, deyilgan bo‘lsada bu quruq deklarativ xulosadan boshqa narsa bo‘lmaganligini har bir kishi yaxshi biladi. Sovetlar hukumati, kompartiya hech qachon adolatli milliy siyosat olib bormaganlar. Buni biz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda sovetlar va kompartiya yuritgan amaliy faoliyatda ochiq-oydin ko‘ramiz, ularda so‘z bilan amaliy ish birligi bo‘lmagan, 80-yillarda mamlakatda yangi kuch bilan avj olgan milliy uyg‘onish kompartiya rahbarlarini milliy masalaga jiddiy e‘tibor berishga majbur qildi. Shu yillarda chaqirilgan kompartiyaning, birorta syezdi, konferensiyasi, MQ Plenumi yo‘qki, unda milliy masalaga e‘tibor berilmagan bo‘lsa, 1989-yilda sentabr oyida bo‘lib o‘tgan KPSS MQning Plenumi maxsus milliy masalaga bag‘ishlandi. Milliy respublikalarning huquqlari ma’lum ma’noda kengaytirildi ham. Ammo boshqa masala: “millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash”, “milliy suverenlik” adolat tarozusiga solib hal qilinmadi. Qarorda tenglik, qonunda suveren, so‘zda “metindek do‘stlik”, amalda esa mutlaqo teskari qoidalar amal qilaverdi. KPSS MQ Bosh kotibi M.S.Gorbachyovning quyidagi so‘zlari g‘oyatda ibratlidir: “Milliy masalani hal qilishda rus millati juda katta rol o‘ynadi. Har qaysi milliy madaniyat – qimmatbaho boylik bo‘lib, uni yo‘qotishni tasavvur qilib ham bo‘lmaydi. Yana bir xavf, bir millat vakillarida boshqa millat kishilariga nisbatan hurmatsizlik yuz berishidan iboratdir. Millatlarning teng huquqligini e‘lon qilishning o‘zi kifoya emas, hamma xalqlar to‘laqonli hayot kechirishlari kerak... Hatto eng mayda xalqning ham o‘z tilini inkor etib bo‘lmaydi... Unga nisbatan e‘tiborsizlik qilish, uning kamsitilishiga yo‘l qo‘yish mumkinmi, axir?”⁸² Juda chiroyli aytilgan iboralar! Ammo kompartiya rahbarining

⁸¹ Ўзбекистон ССР Конституцияси (Асосий қонуни). – Т.: Ўзбекистон, 1989. – Б. 22.

⁸² Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. – Т.: Meros, 2010. – Б. 434.

bu soʻzlari Oʻzbekistonda oʻz aksini topdimi? Aslo, kompartiya Oʻzbekistonda adolatli milliy siyosat olib borish u yoqda tursin, aksincha “ulugʻ davlatchilik”, shovinistik yoʻldan bordi. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining hamma sohalarida ruslashtirish siyosati olib borildi.

Stalin 1929-, 1940-yillarda oʻzbek tilining asosiga zarba bergan boʻlsa, 1950-yilda uni boshqa milliy tillar qatori oʻlimga mahkum etdi. “Xalqlar otasi”ning “Pravda” gazetasidagi hukmnomasida shunday soʻzlar bor: “Ikki tilning bir-biriga qoʻshiluv oqibatida yangi uchinchi bir til paydo boʻladi, deb oʻylash mutlaqo xatodir... Aslida esa qoʻshiluv natijasida bir til gʻolib kelib, oʻz soʻz boyligini saqlab qoladi va kelajakda oʻzining tabiiy oqimi bilan rivojlanadi, ikkinchi til esa asta-sekin oʻz sifatini yoʻqotib borib, oxir-oqibatda oʻlishga mahkum boʻladi”. I.Stalin oʻz hukmini: “Rus tili hamisha gʻalaba qozonib kelgan”⁸³ deb yakunlaydi. Ana shu strategik siyosat til siyosatining yoʻnalishini belgiladi. Davlat, idora ishlari rus tilida yuritildi. Oʻzbek tili esa Oʻzbekistonda ikkinchi darajali tilga, oila tiliga aylanib qoldi. Oʻzbek tilida yozilgan rasmiy hujjatlar, arizalarni korxona rahbarlari hatto qabul ham qilmas edilar. Milliy qadriyatlar va urf-odatlar eskilik sarqitlari sifatida qoralandi, milliy kiyimlarda yurish qoloqlik koʻrinishi deb eʼlon qilindi. Vatanimiz tarixi oʻqitilmadi. Islom diniga qarshi butun jabha boʻylab hujumga oʻtildi. “Umumxalq bayrami “Navroʻz” diniy marosim deb eʼlon qilindi va uni tantana qilish hamma yerda taqiqlab qoʻyildi. “Navroʻz” oʻrniga 1986-yildan boshlab “Xotira kuni” sifatida “Navbahor” bayrami nishonlanadigan boʻldi”⁸⁴. Milliy tahqirlash va kamsitish ayniqsa kadrlar siyosatida yaqqol koʻzga tashlandi. Oʻzbekistondagi respublika, viloyat, shahar va tuman partiya va sovet tashkilotlarining rahbar xodimlari, boʻlim boshliqlari Moskva “nomenklaturasi”da boʻlib KPSS Markaziy Komiteti tomonidan tayinlanar edi. Chunki “birinchi rahbar” faqat nomigagina edi, xolos. Asosiy ish mahalliy boʻlmagan ikkinchi rahbar qoʻlida edi. Mustamlakachilik va milliy tahqirlash siyosatining yorqin koʻrinishlaridan biri Oʻzbekiston KP MKning 1984-yil iyunida

⁸³ “Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1989 йил 16 июнь.

⁸⁴ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. – T.: Meros, 2010. – B .435.

bo‘lib o‘tgan XVI Plenumidan so‘ng markazda Respublikaga yuborilgan “kadrlar desanti” bo‘ldi. “Bu xodimlar O‘zbekiston kompartiyasi faoliyatiga oqim baxsh etmoqdalar, eng yirik partiya tashkilotlarining tajribasini jamlab, undan foydalanishga yordamlashmoqdalar”⁸⁵, deb maqtangan edi. Inomjon Usmonxo‘jayev O‘zbekiston KPning XXI syezdida hisobot ma‘ruzasida. – Bu “desantchilar” respublikada asosan sovet, firqa va huquq-targ‘ibot idorlarida rahbarlik lavozimlarida ishladilar va “layoqatsiz” kadrlar o‘rnini egalladilar . O‘zbekistondan ham Rossiya Federatsiyasiga xodimlar “rejali” jo‘natilgan. Ammo e‘tiborli joyi shundaki, O‘zbekistonga shimoldan yuborilgan xodimlar, asosan “ish o‘rgatish” uchun rahbarlik lavozimlariga o‘rnashgan bo‘lsalar, O‘zbekistondan boruvchilar esa faqat “qora mehnat” talab qiladigan zonalarga “doimiy” yashash va ish o‘rganish uchun yuborilganlar. O‘zbekiston aholisni Rossiyaning turli o‘lkalariga “rejali sochib yuborish” tashabbusi 20-30-yillarga borib taqaladi va “xalqlar dohiysi” I.Stalinning “o‘lmas g‘oyalari”dan biridir.

O‘zbekiston SSR Vazirlari 1973-yilda, “Ko‘chirma oilalar uchun yengilliklar” to‘g‘risida maxsus qaror ham qabul qilgan. Ushbu qarorga asosan har bir ko‘chirma oilada albatta ikkita odam ishga yaroqli bo‘lishi kerakligi ko‘rsatiladi. Bundan tashqari oilasiz yolg‘iz mehnatchilarni ham Rossiyaning turli viloyatlariga rejali yuborish O‘zbekiston viloyatlari zimmasiga yuklangan. Masalan, Andijon viloyati Primorye o‘lkasiga, Xorazm-Chitaga, Surxondaryo-Xabarovskka, Toshkent-Ivanovaga, Farg‘ona- Kalininga, Namangan- Kirov oblastiga, Buxoro–Tomskka ishchi kuchi jo‘natishi kerak edi. 1987-yilga qadar O‘zbekiston Rossiyaning noqoratuproq zonasi va Sibir hududlariga jami bo‘lib 30 ming fuqaroni jo‘natdi. Faqat 1989-yilda 1100 ta oila⁸⁶ Rossiya Federatsiyasiga yuborilgan. Rossiyaga jo‘natilgan oilalar va oilasiz fuqarolar iqtisodiy muhtojlikdan shu yo‘lni tanlaganlar va ular asosan jismoniy og‘ir qora mehnat bilan shug‘ullanganlar. Mantiqan qiziq bir savol tug‘iladi. Nega endi Rossiyaning noqoratuproq zonalarini o‘zbekistonliklar o‘zlashtirishlari kerak? Rossiyaning

⁸⁵ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. – T.: Meros, 2010. – B. 436.

⁸⁶ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob... – B. 437.

o'zida aholi keragidan ortiqcha to'lib yotibdiku? Nega rahbar hodimlar O'zbekistonga Rossiyadan yuborilishi lozim, O'zbekistonnig o'z mutaxassislari yetishmaydimi? Maslalaning asl mohiyati boshqa joyda. Aholini vaqti-vaqti bilan u regiondan bu regionga ko'chirish ulug' rus saltanati shovinistik siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, kichik millatlarni assimilyatsiya qilib yuborishdan iborat bosh maqsadga xizmat qiladi. Sovetlar hukumatining O'zbekistonda olib borgan milliy mustamlakachilik, shovinistik va adolatsiz siyosatining yana bir ko'rinishi birbiri qarama-qarshi demografik siyosatdir. "Yagona suveren respublikalar ittifoqi"ning bir qismi – Rossiyada ko'p bolali oilalarni rag'batlantirish, O'rta Osiyoda, O'zbekistonda esa tug'ilishni kamaytirish masalasi davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. Tarix fanlari doktori, sotsiolog I.Bestujev-Lada bunday deb yozadi: "Ahvolning mushkulligi shuki, mamlakatda bir-biriga qarama-qarshi ikki xil demografik ahvol yuzaga kelmoqda. Birini shartli qilib, "osiyocha" ahvol desa bo'ladi (O'rta Osiyo kabi qator mintaqalarning tub aholisi – mamlakat aholisining 20 foizi). Ikkinchisi shartli ravishda "ovrupacha" deya qolaylik (qolgan 80 foiz aholi). "Osiyolilar ko'p bolali bo'lib, har 20–30 yilda ikki barobar ko'paymoqdalar va bu ulkan muammolarni keltirib chiqarmoqda... Bunaqangi ikki xil ahvol ikki xil siyosat yurgizishni taqozo qiladi"⁸⁷.

Bunday ikki xil demografik siyosatning mohiyati va maqsadi nimadan iborat? Gap shundaki, mustamlakachi ma'murlar O'rta Osiyodagi musulmon turkiy aholining muttasil o'sib borayotganligidan qo'rqib vahimaga tushdilar va ayni zamonda rus aholisining kamayib borayotganligidan zorlanib qayg'urdilar. rus tarixchi olimlari M.Geller va A. Nekrich "Rossiya tarixi" asarlarida keyingi o'n yilliklarda O'rta Osiyoda tub yerli aholi sonining zo'r sur'atlar bilan o'sishi demograflarning barcha hisob-kitoblarini uloqtirib tashladi, deb yozadilar. Demograflar O'rta Osiyo aholisining 1980-yilda 10 foizga o'sishini bashorat qilgan bo'lsalar, 1979-yildayoq bu ko'rsatkich 27 foizga teng bo'ldi. 1970-1979-yillar orasida aholining o'sish sur'atlari o'zbeklar va tojiklarda 36% ni, turkmanlarda – 33%, qirg'izlar – 31% va qozoqlarda – 24% ni tashkil etdi.

⁸⁷ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. – T.: Meros, 2010. – B. 437.

Aholining o'sish sur'atlari shu darajada davom etadigan bo'lsa, mustamlakachi ma'murlar XXI asrning boshlarida SSSRning umumiy aholisi 310-320 million bo'lgani holda O'rta Osiyo va Kavkazning tub yerli aholisining 100 millionga yetishidan xavotirlanadilar. Ana shu boisdan ham bu mintaqalarda oilalarni rejalashtirish sohasida markaziy hukumat katta "g'amxo'rlik" qildi. Tarixchi olim hatto ikki xil demografik siyosatni "asoslab" ham beradi. U quyidagicha yozadi: "Ikki xil demografik ahvol ikki xil siyosatni talab qiladi. Birinchisi – "osiyoliklar"da yoshlarni, ayniqsa qizlarni ish bilan band qilish, ma'lum malaka talab qiladigan doimiy ishlarga jalb etish kerak. Bu tug'ishni kamaytirishning dunyo tajribasida sinalgan yaxshi usulidir... Ikkinchisi "ovrupalik" ayollarni aksincha imkon qadar ko'p qismini ishdan ozod qilish lozim... ya'ni tug'ishdan oldingi dam olishni – yarim yil, farzand ko'rgandan so'ng – uch yilga yetkaziladi. Kamida yetti yilgacha maoshni to'liq to'lab, yarim ish kuni beriladi"⁸⁸. Eng dahshatlisi shundaki, bunday fashistik g'oya sovet davlat ma'muriyati tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ommaviy-axborot vositalari orqali targ'ibot qilindi. Jumladan, SSSR sog'liqni saqlash vazirligi 1990-yil, 20-avgustda O'zbekiston tibbiyot vaziriga 02–14 66–14 raqamli xat yubordi. Unda "og'iroyoqlikning oldini oluvchi dori va uskunalar kam ishlatilayotgani" tanqid qilinadi. "SSSR sorg'liqni saqlash vazirligi 1990-yilda og'iroyoqlikning oldini oluvchi preparatlar sotib olishni ko'paytirdi, ayniqsa garmonli preparatlar 50 million bog'lam keltirildi. Ular davolovchi muassasalarga yetkazildi". Maktubninig so'nggida SSSR Sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari A.Baranov quyidagi mazmunda buyuradi: "Shularni hisobga olib, aholi orasida, ayniqsa yoshlar o'rtasida oilani rejalashtirishni tashviqot qilish kuchaytirilsin... Bu ishning o'tkazilishini alohida nazorat ostiga oling"⁸⁹. Ikki xil demografik siyosat matbuotda ham keng yoritildi. "Правда" 1991-yil, 27-iyunda "Umidimiz yig'isi" (Нашей надежды плач) maqolasida Rossiya ayollariga intizorlarcha murojaat qilib: "Faqat bolalar uchungina yashamoq mumkin. Farzand bo'lsa – hayot bo'ladi... Ayollar,

⁸⁸ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. – T.: Meros, 2010. – B. 438.

⁸⁹ Саодат. - 1991. - № 9. – Б. 22.

tug‘inglar! Iltimos! Hayot, garchi og‘ir va nursiz bo‘lsa-da, tugamasligi kerak! – deya yozsa, xuddi shu kuni “Народное слово” ro‘znomasining “Islom va oilani rejalashtirish” maqolasida kam farzand ko‘rishga dav‘at qilinadi: “Dunyo aholisining zichligi insoniyat hayot darajasining pastlashuviga olib kelish xavfi kuchaymoqda... Islom dini tug‘ishni kamaytirishga qarshi emas”⁹⁰. Xullas, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida sof shovinistik mustamlakachilik siyosati olib borildi. “Kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi” deganlaridek, “milliy adolat” haqida balandparvoz ma’ruzalar qiladigan M.S.Gorbachyov singari partiya va davlat arboblardan tortib SSSR Xalq deputatlari-yu Rossiyadagi olim-u fuzololar, jaridalar-u ro‘znomalarga qadar O‘zbekistonga, uning fuqarolariga tosh otib uni “boqimanda jumhuriyat”, “dotatsiyalar va qarzlar hisobiga yashayotgan xalq, respublika” deb jahonga jar soldilar. Emishki, O‘zbekiston Ittifoqdan har yili 2–3 milliard so‘m “xayriya – sadaqa” olib yashayotgan ekan. Albatta, bunday shovinistik ruhdagi tashviqot va targ‘ibotlar natijasiz qolmadi. Butun mamlakatda “ulug‘ rus” millati vakillari o‘rtasida o‘zbeklarga nisbatan nafrat va millatchilik kuchli tus oldi. Milliy nizolar va fojialar avj olib ketdi. Buni birgina armiya misolida ko‘rish mumkin. Avvalo, shu narsani alohida ta’kidlash kerakki, ikkinchi jahon urushiga qadar va undan so‘ng ham O‘zbekiston o‘zining milliy armiyasiga ega emasdi. O‘zbeklar milliy armiya tuzishga qodir bo‘lmagan ikkinchi darajali millat sifatida mustahkam o‘rin oldilar. O‘zbekistonlik yigitlar haqiqiy harakatdagi jangovar armiyaga chaqirilmas, ular asosan “stroybat” – qurilish batalyonlariga olinar edilar. O‘zbek yigitlari xizmatda bo‘lgan qismlarda milliy kamsitish va tahqirlash shu darajada kuchayib ketdiki, har yili 300–400 ga qadar temir tobutlarda ularning jasadlari respublikaga keltiriladigan bo‘lib qoldi. “Buning bosh sababi milliy nizo: “Hozir, – deydi zobit A.Varichyev (Olmaota) – armiyada milliy nizolar kuchaydi”. Faqat 1989- yilda 430 o‘zbek askar o‘g‘lonlarining jasadlari temir tobutlarda keltirildi”⁹¹. Xullas, mamlakatda miliy va millatlararo nizolar shu darajada kuchaygan ediki, u zudlik bilan hal etilmasa, dahshatli portlashning sodir

⁹⁰ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. – T.: Meros, 2010. – B. 439.

⁹¹ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob... – B. 439.

bo'lishi hech gap emasdi. Shunday vaziyatda respublika rahbari Rafiq Nishonov o'z xalqining juda og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun hech qanday chora-tadbirlarni amalga oshirmadi, aksincha o'z yurti va xalqining ahvolini yaxshilash o'rniga, o'zini va mansabini o'ylab markaz tomonida tayyor qilib qo'yilgan ma'ruzalarni minbarlarda o'qish va markaz buyruqlarini ikki qilmasdan bajarish ishlarini amalga oshirgan.

2.2. Rafiq Nishonov O'zbekiston SSR rahbarligi davrida Farg'ona fojeasi

O'zbekiston SSRda Rafiq Nishonov rahbarlik qilayotgan istibdod, mustamlakachilik zamoning eng so'nggi yillarida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan noroziligi kundan-kunga, turli sabablarga ko'ra kuchayib boravergandi. Kichkina bir turtki, harakat ham mavjud nisbatan barqarordek tuyulgan vaziyatni o'z muvozanatidan chiqarib, hattoki portlatib yuborishi, jamiyatning barcha tabaqalarini benihoya qattiq qo'rquv va tahlikaga solishi mumkinligini mamlakatimizning Quvasoy, Farg'ona, Qo'qon va boshqa ba'zi shaharlarida 1989-yil may-iyun oylarida yuz bergan vahimali va fojiali voqealar yaqqol tasdiqlab bergandi. 1989-yilning 24-mayida Farg'ona viloyatining Quvasoy shahrida yoshlar o'rtasida bo'lgan mayda bir bezorilik millitlararo (mahalliy yoshlar bilan mesxeti turklarining o'rtasida) to'qnashuvni keltirib chiqargan va ushbu mojaro butun Farg'ona vodiysi hududiga yoyilib, kundan-kunga judayam ommaviy tus ola boshlagan edi. Respublikaning o'sha paytdagi Rafiq Nishonov boshchiligidagi rahbariyati bemavrid yuzaga kelgan bu o'ta murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatni to'g'ri hamda adolatli baholay bilmagani, mavjud muommolarni bo'lsa oqilona va odilona bartaraf eta olmagan uchun yoshlarning to's-to'paloni, juda ham jiddiy ommaviy chiqishlari, millatlararo qonli to'qnashuvlari ulkan milliy fojiaga aylanib ketishi muqarrar bo'lib qolgan edi. Lenin milliy masala bo'yicha o'zining so'ngi qaydnomalarida ogohlantirgan edi: ulug'davlatchilar o'ris bo'lmagan xalqlarning milliy tuyg'ularini qanchalik ezib kamsitsalar, xalqlar shunchalik keng, chuqur va keskin javob beradilar. Ilichning aytgani to'g'ri chiqdi. Lenin fikricha, "har qanday

ko'p millatli davlatda mahalliy aholi millatchiligi hukmron ulug'davlatchi millatning millatchiligiga tabiiy va muqarrar javobdir..."⁹² ha bunday milliy nizoning kelib chiqishiga ruslarning kichik millatlarga nisbatan milliy tuyg'ularini ezib kamsitishlari va ularni oxir-oqibatda yo'q qilib yuborishga bo'lgan harakatlari sabab bo'lgan.

Fitnachilar o'zlari uchun juda qulay fursatni topgan edilar. Farg'ona fojiasi Rafiq Nishonov Moskvada SSSR xalq deputatlarining I-syezdi minbarlarida demokratuyabhaqida suhbatlar qurishdan, o'zga millatlar vakillariga do'stlik, birodarlik, tinchlik xususida "g'oyat sermazmun"ma'ruzalar o'qishdan sira to'xtayolmayotgan va kattakon minbarlarni bo'shatishni mutlaqo o'ylamayotgan bir paytda sodir etilgan edi. Farg'onada 1989-yilning 24-mayida boshlanib ketgan fojialar rosa o'zining avjiga chiqqan pallada Moskvada o'ziga yangi lavozimni intizorlik bilan kutib turgan Rafiq Nishonov o'zining xizmat doirasi, vazifasi hamda burchi taqozo etsa-da, O'zbekistonga kelmagan edi. Vaziyat nixoyatda murakkablashib ketgach, noilojlikdan o'zining o'rniga muxtor vakillar sifatida O'zbekiston Ministrlar Sovetining Raisi G'yrat Qodirovni hamda Ichki ishlar qo'Shinlari qo'mondoni general-polkovnik shatalinni va tag'in bir guruh yuqori tarkibli ofitserlarni O'zbekistonga jo'natishga majbur bo'lgan edi. Moskvadan yuborilgan guruh tarkibining o'ziyoq mavjud o'ta murakkab vaziyatni keskin chora-tadbirlar bilan – kuch, qurol vositasida hal qilish yo'lini tanlab olinganligidan darak beradi. Lekin, vaziyat shunchalik "tagiga olib ketgan" ediki, Markaz yuborgan guruh ham, ichki qo'shinlar ham uni hal etishga mutlaqo ojizlik qilgan edilar. Respublikaning rahbari Rafiq Nishonov yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni o'z vaqtida to'g'ri baholay olmadi. Natijada, oddiy mojaro Farg'ona, Marg'ilon, Toshloq, Qo'qon, Andijon, Namangan, Toshkentda aholining, ayniqsa, yoshlarning ommaviy chiqishlariga, millatlararo to'qnashuvlarga sabab bo'ldi. "O'zbekistonda to's-topalonlar tezlikda bosilavermaganligidan nihoyatda qattiq xavotirga tushib qolgan Sovet Ittifoqining rahbari Mixail Gorbachyov Moskvadan Rafiq Nishonov ni maxsus buyruq bilan

⁹² Авторхонов А. Кремль салтанати. – Тошкент: Чўлпон, 1993. – Б. 65-66.

O'zbekistonga yuborgandi. Farg'onaga harbiy qo'riqchilarning hamrohligida bazo'r va majburan kelgan O'zbekiston rahbari vioyat partiya qo'mitasining dala hovlisida to'xtagandi. Juda ulkan g'am-tashvishlar botqog'igab bo'g'ziga qadar botib qolgan xalq ichiga kirib, uning dardini eshitish o'rniga faqat majlisbozlik bilangina mashg'ul bo'lgan Rafiq Nishonov ertasiga ertalab Moskvaga qaytib kelgandi. Vaziyatga juda yuzaki bir baho berib, Mokvada SSSR xalq deputatlarining, butun kurrai zamin ahliga televidiniya orqali to'g'ridan-to'g'ri namoish etilgan syezdida "O'zbeklar va mesxeti turklari o'rtasidagi janjal aslida, bor-yo'g'i "bir kilogrammlik qulpunayni deb boshlangan", deb gapirgani, keyinchalik esa Ittifoq bo'yicha kulgiga qolib, qattiq mazaxlanib, masxaralanib"qulpunay" degan laqab olgani hanuzgacha bizning yodimizdan aslo ko'tarilmagan"⁹³– deydi tarix fanlari nomzodi, dotsent Baxtiyor Isoqov o'z asarida. Farg'ona fojialari haqida respublika matbuotida va boshqa ommaviy axborot vositalarida to'g'ri ma'lumot berilmaganligi, bu mojarolarning kelib chiqishida asosan "maxalliy aholi aybdor" deb bir tomonlama va noxolis baxolanishi vaziyatni yanada keskinlashtirdi.

1989-yil 11-iyunda Toshkent shahrida ishlayotgan va o'qiyotgan farg'onalik yoshlardan 100 ga yaqini "Qizil maydonda" namoyish uyushtirib, Farg'ona voqealari haqida "noto'g'ri ma'lumot berishlarga qarshi fikr bildirdilar va boshqa bir qator talablar qo'ydilar"⁹⁴. Bunday ommaviy chiqishlarga, kommunistik mafkura tartibiga qarshi borishlarga "ko'nikmagan" mustabid tuzum siyosiy rahbariyati namoyishchilarga qarshi harbiy qism tashladi. 1989-yil 8-iyunda Qo'qonda tinch namoyishchilar ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o'qqa tutildi, natijada 50 dan ziyod namoyishda qatnashgan aholi xalok bo'ldi (ularning ko'pchiligi yoshlar edi), 200 dan ortig'i esa yarador qilindi. Umuman 3-12 iyun kunlari Fargona viloyatida bo'lgan millatlararo to'qnashuvlar va ularni harbiylar tomonidan o'qqa tutilishi oqibatida 103 kishi halok bo'lgan, 1009 kishi jarohatlangan va 650 xonadonga o't qo'yilib, vayron qilingan⁹⁵.

⁹³ Исоқов Б. Истиклол – Истикбол Ибтидоси. – Наманган: Наманган, 2017. – В. 104.

⁹⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 663.

⁹⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида... – Б. 663-664.

Fargʻona viloyati mesxeti turklari va oʻzbeklar oʻrtasida chiqqan nizo oqibatida roʻy bergan voqealarga va ularni bartaraf etish yuzasidan qoʻllangan chora-tadbirlarga siyosiy baho berish lozim. Hech qanday dalilni yashirmaslik, boʻyab koʻrsatmaslik, kamaytirib yoki oshirib yubormaslik maqsadga muvofiqdir. Chunki ana shu tamoyilning buzilishi bundan ham halokatliroq oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

1989-yilning 20-mayidan boshlab Fargʻonada sodir boʻlgan voqea sabablariga toʻxtalib, oʻsha paytda ayrim tajribasi, malakasi, siyosiy bilimi yetarli boʻlmagan partiya va sovet, maʼmuriy organlar xodimlarining oʻzlaricha aholi oldida voqeaga baho berishga intilganlar. Masalan, osha paytda ayrim mansabdor kishilar Fargʻonada Sovet hokimiyatini agʻdarib tashlashga urinish boʻldi, yuzlab, minglab kishilardan iborat gʻalayon koʻtargan odamlar bizning dushmanimizdir, degan aql bovar qilmaydigan boʻhton gaplarni tarqatishdi.

Quvasoydagi voqea toʻsatdan roʻy berdi, tez va toʻgʻri bartaraf etilmaganligi natijasida boshqa rayonlarga ham yashin tezligida tarqaldi. Bundan ayrim qayta qurishga qarshi boʻlgan kimsalar oʻz shaxsiy manfaatlari yoʻlida mohirona foydalandilar, oddiy mushtlashuvdan chiqqan mojaro siyosiy tus oldi va gʻalayonga aylandi. Ikkinchidan, “Hokimiyatni agʻdarib tashlashga harakat boʻldi”, deyish siyosiy kaltabinlikdir. Bu tor fikrlaydigan siyosatchining jazavasi, xalq ichiga kirmaslik, ularning dardlarini his etmaslik, respublikamizda allaqachon pishib yetilgan paxta yakkahokimligini tugatish, paxta va pillaning bahosini oshirish, ekologik halokatning oldini olish, turarjoy tanqisligi, ishsizlik, oʻzbek tili va tarixini, madaniyatini oʻrganish, respublikaning mustaqilligini taʼminlash muammolarini ilgʻamaslik yoki tan olmaslikka intilish, ommadan ajrab qolish demakdir (“Yoshlik” jurnali. 1989- yil, 11-son 64-bet)⁹⁶.

1989-yil mayda Quvasoydagi mesxeti turklari bilan oʻzbeklar oʻrtasida boshlangan nizo Fargʻona, Margʻilon, Qoʻqon, Toshloq, Yaypan singari shahar va qishloqlarga yoyildi. Keyinchalik esa boshqa viloyatlarda ham bunday xavf

⁹⁶ Абдумуталлиб Қосимий. Ўзбек шоирининг жасорати . – Тошкент: Fan va texnologiya, 2017. – Б. 41-42.

tug'ildi. Xo'sh, nimalar vaziyatnn keskinlashtirib yubordi? Xunrezlikka, qon to'kilishiga, fojiaga nimalar sabab bo'ldi?

“Bo'hton va haqiqat” nomli asar muallifi Abdulla Jalil Farg'ona fojialariga quyidagi sabablarni keltiradi:

“1. Quvasoyda bo'lgan voqea tafsiloti aholidan berkitildi. Isboti: Quvasoydagi voqea oradan 20 kun o'tgach respublika matbuotida yoritildi.

2. Respublika va ittifoq matbuoti o'zbek xalqiga siyosiy tuhmat qildi. Haqiqiy ahvolni bo'yab ko'rsatdi. Xalq talablariga, olomon qo'lidagi yozma talablarga qasddan e'tibor berilmadi.

Dalolatimiz quyidagicha:

1. Har bir e'lon qilingan maqola va axbortda g'alayon ko'targanlarga “bezorilar, ekstremistlar, millatchilar, nasha chekkan, qoradori iste'mol qilgan giyohvandlar, spirtli ichimlik ichgan tartibbuzarlar, gazandalar”, deya razil va munofiqona tamg'alar yopishtirilib, butun respublika aholisi, butun sovet xalqining fikri chalg'itildi. Muayyan talablar bilan chiqqan kishilar haqida atayin salbiy fikrlar uyg'otish, mamlakat jamoatchiligini ularga qarshi qo'yish, ularni vahshiy qilib ko'rsatish uchun shunday riyokorlik qilindi.

13-iyun kuni O'zbekiston televideniyesi Farg'ona medekspertiza tashkiloti xodimi Hasan Rahmonovdan intervyu oldi. H. Rahmonov tekkirilgan 100 kishidan birortasida ham nasha chekkanlik alomatlarini aniqlanmaganligini aytdi. Bunga respublikamizning 20 millionlik aholisi guvoh”⁹⁷.

2. “G'alayon ko'targan kishilardan birorta odamga televideniya ko'rsatuvlarida so'z berilmadi. So'z berilgan kishi esa gapira boshlashi bilan uzib yuborildi. Gazetalar ham o'z chiqishlarida biror kishiniig fikrini, nima uchun ular keskin harakat qilayotganliklarini so'ramadi. Aksincha, UzTAG muxbiri belbog'ini tasodifan silkitgan odamni, ko'k bayroq ko'tarib chiqdi, deb yozdi. Bundan ham pastkashlik bo'ladimi?!

G'alayon ko'targan kishilar qo'lida “Paxta narxi oshirilsin!” degan talabnoma yozilgan shior borligi respublika matbuotida ancha keyin e'lon qilindi. Masalan,

⁹⁷ Абдулла Жалил. Бўхтон ва ҳақиқат. – Т.: Ғофур ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. – Б. 6.

A. Ibodinov “Sovet O‘zbekistoni” gazetasining 12-iyun sonida “Quvasoyda nima bo‘lgan edi?” sarlavhali maqolasida quyidagicha ma’lumot yozgan “Bag‘dod posyolkasidan Qo‘qonga boruvchi yo‘lda odamlar “Paxtaning narxi oshirilsin!” degan shiorni ko‘tarib olganliklarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganligini yozadi”⁹⁸. Bu Farg‘ona voqealari chuqur ijtimoiy-iqtisodiy ildizga, siyosiy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi, minglab odamlarning tartibbuzar, bezori emasliklari, ular o‘z haqlarini talab qilib maydonga chiqqanliklarini isbot qiluvchi real, mutlaqo rad etib bo‘lmaydigan faktdir. Ana shunday shiorlar bilan chiqqan odamlarni bezorilar, millatchilar deb atash siyosiy kaltabinlik va munofiqlikdir. Bunday munosabat xalqni umidsizlantirdi, odamlarda davlat organlariga ishonchsizlik uyg‘otdik va yanada keskinroq harakat qilishga majbur etdi.

4. “SSSR Ichki Ishlar Ministri o‘rtoq V. V. Bakatin 5-iyun kuni O‘zbekiston televideniyasi va radiosi muxbiri bilan suhbatda siyosiy jihatdan xato fikr bildirdi (“Sovet O‘zbekistoni” gazetasi, 7 iyun soni). V. V. Bakatin o‘z intervyusida bunday deydi: “...Hech kimga qandaydir shartlar qo‘yishni maslahat bermaymiz, bunday shartlar o‘tmaydi”⁹⁹. Nima, o‘zbek xalqi qulmi? Nima uchun uning talabi, shartlari o‘tmaydi? Avvalo, uni tinglash zarur. Afsuski, Farg‘onada bularning teskarisi bo‘ldi. Oqibatda, xalqning qahr-g‘azabi yanada kuchayib ketdi. Hozir Stalin davri emas – Stalin o‘lgan, Beriya otilgan. “SSSR Ichki Ishlar Ministri V.V.Bakatinga, SSSR Ichki ishlar Ministrligi ichki qo‘Shinlar boshlig‘i general-polkovnik Yu.Shatalinga shunday og‘ir ayblar qo‘yilganki, bu – dahshat edi! Hatto hozir ham odam o‘qib, o‘z-o‘ziga ishonmaydi. Axir bayonot yolg‘iz bir o‘zbek yozuvchisi tomonidan yozilgan. Butun bir respublika hukumat komissiyasi tomonidan shunday bir bayonot yozilganda ham ittifoq rahbarlariga bunday ayblovlarni ochiq oydin bayon etish mushkul edi. Bayonot shunday bir o‘tkir bir rux bilan yozilgan ediki, uni o‘qigan kishi beixtiyor haqiqat, adolat bor ekan-ku, deb hayqirib yuboradi. Bayonot “Yoshlik” jurnalida 470 ming nusxada chop etilgan”¹⁰⁰.

⁹⁸ Абдулла Жалил. Бўхтон ва ҳақиқат. – Т.: Ғофур ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. – Б. 7.

⁹⁹ Абдулла Жалил. Бўхтон ва ҳақиқат... – Б. 7.

¹⁰⁰ Абдумуталиб Қосимий. Ўзбек шоирининг жасорати. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2017. – Б. 42.

5. “SSSR Ichki ishlar Ministrligi ichki qo‘shinlar boshlig‘i general-polkovnik Yu. Shatalin “Sovet O‘zbekistoni” gazetasining 10- iyun sonida UzTAG muxbiri tayyorlagan “Gazandalar beboshligi” maqolasida bunday deydi.”Qo‘qon shahrining bir yarim mingga yaqin aholisi ekstremistlarga zarba berish uchun qurol so‘rab murojaat qildi. Bu masala hozir ko‘rib chiqilmoqda”. Bunday intervyular xalqning qahr-g‘azabini qo‘zg‘atmay qo‘ymaydi. Kimlar o‘Sha qurol so‘ragan kishilar? Turklarmi? Boshqa millat vakillarimi? Yoki o‘zbeklar o‘z jigarbandlarini otmoqchi bo‘lishdimi? Bularga qat’iy javob berish kerak. Qaranglar, hurmatli generalimiz dangal: “Bu masala ko‘rib chiqilmoqda”, deyapti. Nima, pichoq bilan tayoq ko‘tarib, o‘z haqqini talab qilayotgan xalqqa qarata otish uchun bir yarim ming kishiga avtomat va pulemyotlar berish kerakmidi?! Yu. Shatalin o‘zbeklarga qarshi Farg‘onada SSSR Ichki ishlar ministrligining ichki qo‘shinlari tarixida birinchi marta havo desantini qo‘lladi. Desantchilar g‘alayonchilardan bir qanchasini otib o‘ldirdi. Bunday vahshiylik xalqning g‘azabini battar oshirib yubordi. Balki general o‘zbeklarga qarshi bombardimonchi samolyotlarni, raketalarni ham birinchi bo‘lib qo‘llar?! General Rodionov gruzin xalqiga qarshi kimyoviy qurolni, zaharli moddalarni qo‘llagani kabi! Balki Yu. Shatalin shu yo‘l bilan tarixda o‘z nomini qoldirmoqchidir?! ”¹⁰¹.

“6. Eng yomoni shundaki, Farg‘ona viloyati hududida komendantlik soati joriy etilgach, respublika aholisi, o‘zbek xalqi o‘zining Farg‘onadagi yurtdoshlarining holi nima kechayotganligini o‘sha kunlarda bilolmadi. Farg‘ona qurshab olindi. Rasmiy kishilardan tashqari, kishilarga telefon aloqasi ham to‘xtatildi. Matbuotda esa yolg‘on xabarlar ko‘proq edi. Bu vaziyatni sun‘iy holatda yanada keskinlashtirib yubordi. Mishmishlar, vahimali gaplar tarqaldi. Yoshlarning Farg‘ona shaharlariga borishiga, ularga yordam berishga intilishlariga olib keldi. Oqibatda qurbonlar ko‘paydi.

7. Mojaroni bartaraf etish va tegishli chora ko‘rish uchun Uzbekiston SSR Ministrlar Sovetining (sobiq) raisi G‘.H. Qodirov boshchiligida tuzilgan komissiya yaxshi ishlamadi. Komissiyaning passiv faoliyati vaziyatni normallashtira olmadi.

¹⁰¹ Абдулла Жалил. Бўхтон ва ҳақиқат... – Б. 7-8.

Respublika va ittifoq matbuotida berilayotgan axborotlarni nazorat qilmadi. Voqealarning bo'yab ko'rsatilishiga, o'zbek xalqiga tuhmat qilinishiga, xalq yuziga balchiq chaplanishiga yo'l qo'yib berdi"¹⁰².

Respublika rahbari Rafiq Nishonov tomonidan Farg'onadagi mojaroni hal etish uchun tuzilga hukumat komissiyasiga G'.H. Qodirovning rahbar qilib tayinlanishi maqsadga muvofiq emasdi. Chunki u Samarqand viloyatida ro'y bergan mojaroni to'xtatishda bosiqlik ko'rsata olmagan, xalqning o'ziga bo'lgan ishonchini allaqachon yo'qotgan edi. Xalqqa qarshi qurol ko'targan, uning talablarini qurol kuchi bilan bostirishga uringan rahbar xalq mehriga va ishonchiga sazovor emas.

9. "Tartibsizliklar munosabati bilan mamlakatimizning boshqa shaharlaridan jalb qilingan ikki yuz kishiga yaqin tergovchilar gruppasi Farg'onada ish boshladi. Bu xalqqa xuddi buqaning ko'ziga qizil ro'mol ko'rsatgandek ta'sir etdi. Respublikamizda 1984-yildan buyon ishlayotgan ikki yuz kishilik tergovchilar gruppasi hali o'z ishini tugallagani yo'q. Yana ikki yuz kishilik tergov gruppasi! Eshitishi bilanoq odamning yuragi eziladi. Xo'rliqi keladi. Milliy g'ururing kamsitilganini his etasan kishi, o'ksinasan..."¹⁰³.

"Nima, O'zbekistonning o'zida malakali tergovchilar yo'qmi? Bu tergovchilarni respublikaning o'zidagi viloyatlardan tashkil etsa bo'lasmidi?! Bunday harakat O'zbekistonga, o'zbek xalqiga ittifoq hukumati tomonidan ekstremistik harakat emasmi?! Nima uchun Shunday yo'l tutilmoqda? Nima, chetdan kelgan tergovchilar Gdlyan va Ivanov singari o'zbeklarga shafqatsizroq bo'lishlari, berahmroq ish ko'rishlari uchunmi? Axir bularni o'ylab ko'rish vaqti kelmadimikin? Bunday harakatlar Sovet Ittifoqi tarkibidagi suveren O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasiga, uning zahmatkash xalqiga hurmatsizlik emasmi? Axir bu respublikamizning huquqlarini yerga urish emasmi?! Boshqa millat vakillaridan iborat tergovchilar gruppaga-gruppa bo'lib respublikamizga kelaversa, bunday tergovlar internatsional tuyg'ularimizning ildiziga bolta urmaydimi?

¹⁰² Абдулла Жалил. Бўхтон ва ҳақиқат... – Б. 8.

¹⁰³ Абдулла Жалил. Бўхтон ва ҳақиқат... – Б. 9.

Xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikka putur yetmaydimi?

10. Farg'ona oblastidagi qonli voqealarda xotin-qizlar va bolalarning ko'plab halok bo'lganligi fakti zo'r berib yashirishga urinilmoqda. Birorta ham bola o'lmagan degan gaplar aytilayotir. Ayollardan esa faqatgina uch-to'rttagina halok bo'ldi deyilmoqda. Aslida shundaymikin?

“Sovet O'zbekistoni” gazetasining 8-iyun sonida e'lon qilingan UzTAG maxsus muxbirining “Farg'onada keskin vaziyat” reportajida shunday jumlar yozilgan: “Halok bo'lganlar orasida xotinlar va bolalar oz emas”¹⁰⁴. Bunday faktlar Farg'onada halok bo'lgan yurtdoshlarimiz, otilgan kishilar sonining kamaytirib e'lon qilinganligini isbot etadi.

11. “Matbuotda, g'alayonda ishtirok etgan kishilarning hibsga olinishi, ularning soni haqida ham xabarlar turlicha e'lon qilindi. Bu xabarlar bir-birini inkor etadi. Bundan qamoqqa olinayotgan kishilar soni qasddan xalqni aldash, chalg'itish maqsadida kamaytirib ko'rsatilganligini anglab olish mumkin.

Isboti: “Правда” gazetasi 7-iyun sonida B. Pipiyaning “Brifing v MVD SSSR” sarlavhali maqolasida 300 kishi hibsga olinganligini ma'lum qilgan. “Izvestiya” gazetasi 6-iyun sonidagi maqolada ham yuqoridagi raqam aynan qayd etildi. Ammo “Sovet Uzbekistoni” gazetasi 9-iyun sonidagi A. Ibodinovning “Qonunsizlikka yo'l qo'yilmaydi” reportajida: “Oblast partiya komitetida tashkil etilgan matbuot markazidan bizga berilgan ma'lumotga ko'ra boshlovchilarning arzimagan bir qismigina qulga tushgan, xolos”, deb ko'rsatilgan”¹⁰⁵. Bu faktlar shuni oydin ko'rsatmoqdaki, hibsga olinganlar soni chalkashtirib yuborilgan. Bu ish bilan muayyan kishilar s'ullanganlar.

Maxsus muxbir V. Ardayev maqolasi Farg'ona voqealari atayin uyshtirilganining isbotlaridan biridir. Pontiy Pilat Bashorati Farg'ona voqealari matbuotda turlicha talqin etilayotgan kunlarda, 1989-yil-iyunining 14-kuni “Izvestiya” ro'znomasida “Farg'ona: kulfatning oldini olish mumkinmidi?” sarlavhali maqola chiqdi. Maxsus muxbir V. Ardayevning mazkur maqolasi

¹⁰⁴ Абдулла Жалил. Бўхтон ва ҳақиқат. – Тошкент.: Ғофур ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. – Б.9.

¹⁰⁵ Абдулла Жалил. Бўхтон ва ҳақиқат... – Б.10.

O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirining birinchi o'rinbosari Eduard Didorenkoning "avliyoligi", "folbinligi" to'g'risida bo'lib, unda Didorenko Farg'ona fojiasini uch oy oldin bashorat etgani ta'kidlanadi. Muallif, Didorenkoning "Milliy munosabatlarni keskinlashtirayotganlar boshi berk ko'chaga boshlamoqdalar» degan musohabasi "Quvasoy shahrida qonli yong'inning ilk uchqunlari sachragan kundan roppa-rosa uch oy oldin 1989-yil fevralining 23-kuni "Tashkentskaya pravda" ro'znomasida bosilgan"iga urg'u beradi. Ma'lumki, Didorenko musohabasi o'sha paytdayoq shubha qo'zg'ab, qarshi zarbaga uchragan; bu shaxsda munozara madaniyatining yetishmasligi fosh etilgan edi. Aftidan, Didorenkoning aytajak gaplari oldindan tayyorlab qo'yilgan, bo'lajak fitna qat'iy rejalashgach, u "folbinlik" qilgan. Muxbir suhbatdoshni emas, suhbatdosh muxbirni chorlagani shubhasiz. Isbot tariqasida, ro'znomadan ko'chirma keltiraman: "Tashkentskaya pravda" ning o'z gazetxonlarini "Musohaba beruvchining javoblari birmuncha katta hajmda bo'lsa-da, ularni to'liq bosib chiqarish haqidagi istagi bajarildi", degan ogohlantirishi kishini hushyor torttiradi. Tahririyatning bunday "eslatmasi"dan musohaba beruvchi nimalar demoqchi bo'lgani oldindan yaqqol ko'rinib turibdi" ("Pravda Vostoka", 1989-yil fevralining 25-kuni). Ajabki, "Izvestiya"ning xuddi o'sha sonida V. Ardayev maqolasining tepasida "Mixail Bulgakov shifo eltadi" degan maqola bosilgan¹⁰⁶. Bu ikki maqolaning ostinma-ustun berilishida men o'ylab ko'rilmagan bir timsol, beshafqat bir mantiqni ko'rdim. Taajjubki, "avliyo" Didorenko shuuri ilg'ab, "bashorat etgan" hamda Bulgakovning "Usta va Margarita" asari qahramoni - Pontiy Pilat "ko'ngli sezib" bashorat etgan voqealar o'rtasida aql bovar qilmas o'xshashlik bor. Pontiy Pilat maxfiy xizmat boshlig'ini o'zining xos xonasiga taklif etib, sirli suhbat quradi. "Eng ko'ngilsiz xunrezliklarning shohidi bo'laman deb har daqiqa yurak hovuchlab turasan", deydi u tagdor qilib. Vazir o'rinbosarining O'zbekistondagi "millatchi", "jinoyatchilar"dan vahm qilib zorlanishi Pontiy Pilat zorlanishiga o'xshamaydimi?.. So'ng, Iuda to'g'risida gap ketganda, prokurator: "uni bugun pichoqlab ketisharmish", deb qo'yadi va qanday

¹⁰⁶ e-tarix. uz/vatan-tarix/162-fitna-sanati.pdf.

qilib uni o'ldirib ketishlarini oldindan aniq bayon qiladi. Anig'i, Iudani qanday o'ldirish lozimligini uqtiradi. Maxfiy xizmat boshlig'i mulohazaga borgach, Pontiy Pilat g'azabliroq tahdid qilib, "ko'nglim sezib turibdi, deb aytdim-ku, sizga!", deya zimdan topshiriq beradi. Reja amalga oshadi, albatta. Didorenko bashorati Pontiy Pilat bashorati bilan bir xildek. Vazir o'rinbosari o'sha "payg'ambarona" suhbatlari orqali "bajarilishi nihoyatda mushkul rejani" amalga oshirishga zamin hozirlagan edi. "Fan va turmush" jurnalining 1989-yilgi 11-sonida tarix fanlari nomzodi Haydarbek Bobobekov ham o'sha suhbat borasida shunga yaqin fikrni aytgan. Farg'ona voqeasi "yetti o'lchab" tuzilgan reja asosida maxsus uyushtirildi va tashqaridan boshqarib turildi, bundan ko'zda tutilgan natijalarga erishildi, nazarimda¹⁰⁷. Farg'onadagi mudxish voqea Sumgait, Boku, Togli Korabog', O'sh-O'zgan va boshqa mintaqalarda xo'ddi shunday tarzda uyushtirilgan ig'vogarliklar bilan bir qatorda turar edi. Tub xalqlarning milliy uyg'onishini, tobora o'sib borayotgan milliy o'zlikni anglash jarayonini bostirish, asosiy va hayotiy muammolardan, "inqilobiy qayta qurish" rejalarining aniq barbod bo'lganligidan mamlakat aholisining e'tiborini chalg'itish uchun qora niyatli kuchlar tomonidan ataylab uyushtirilgan favqulotda xolat edi.

Farg'ona fojeasi markaz tomonidan atay uyushtirilgan fitna edi. Fitnaning atay uyushtirilganligiga dalillar birinchi dalil. Farg'onada o'zbek va mesxet turki qavmlari o'rtasidagi janjalni o'zbek ham, mesxet turki ham boshlagani yo'q. "Pravda" ro'znomasi muxbiri Odilbek Qaipbergenov "Bu shunday boshlangan edi" maqolasida Farg'ona viloyati prokurori A. Otajonovning ushbu so'zlarini keltiradi: "...Mayning 16-kuni shahar pivoxonalaridan birida maishiy negizda ikki yigit janjallashib qoladi. Ta'kidlab aytamanki, yigitlarning unisi ham, bunisi ham millati jihatdan na mesxet turki edi, na o'zbek edi. Bir necha kundan keyin guruh-guruh bo'lib, janjal ko'tardilar, baxtga qarshi bu janjalda mesxet turklari ham, o'zbeklar ham qatnashdi". ("Pravda", 1989-yil yunning 20-kuni). "Sovet O'zbekistoni" ro'znomasi muxbiri Alisher Ibodinovning "Quvasoyda nima bo'lgandi?" maqolasida to'polonni boshlab bergan kimsalar millati aniq aytiladi va bu fojia

¹⁰⁷ e-tarix. uz/vatan-tarix/162-fitna-sanati.pdf.

maxsus uyushtirilganligi jindek ravshanlashadi: “Janjal dastlab bir rus va bir tatar kishining o‘zaro mushlashuvidan boshlangan”. Rus kishining ikki o‘zbek og‘aynisi uning tarafini olgan. Tatar kishi tarafdorlari esa tasodifiy turklar bo‘lib chiqqan. Vaqtida oldini olish mumkin bo‘lgan kichik janjal to‘satdan kuchayib ketgan”¹⁰⁸. Shunday qilib, bashir Didorenko orziqib karomat qilgan kun keldi! O’sha kuni mesxet turki va o‘zbek qavmlaridan 150 nafardan kishi to‘planib, ilk to‘qnashuv bo‘lib o‘tdi. To‘planganlarning qaysinisi chin mahalliy qavm, qaysinisi “tasodifiy” kishilar – buni matbuot ochiq aytmaydi... Xullas, endi fitnachilar birinchi muvaffaqiyatga erishdilar, olomonni maydonga boshlab chiqa oldilar. Ma’lumki, turkning o‘zbek qavmidan ham, tatar qavmidan ham butkul ruslashib, aslidan qaytganlari bor. Tatar turki millatparvarlari ayrim ruslashgan va aslini unutib, o‘z ona xalqi, o‘z ona yurti manfaatlariga ters ishlar qilgan tildoshlarini nafrat bilan fosh etadilar. Janjalni boshlab beruvchi shunday toifadan bo‘lsa, ajabmas. Bunday fitna rus davlatchiligi tarixida yangilik emas, Ivan Grozniy davridan beri xalqlarni bir-biriga va o‘z-o‘ziga qarshi qilib qo‘yish tajribasi ancha shakllangan.

“SSSR xalq deputatlarining birinchi s‘ezdida ochilgan mudhish sir ko‘plarning yodidadir. Unda, 1968-yili Chexoslovakiyada kechgan qonli voqealar arafasida, rus va boshqa sovet maxfiy xizmatchilarimiz ruslarga va sovetlarga qarshi varaqalar tarqatgani fosh etildi. Shu fitnada qatnashgan KGB xizmatchisining o‘zi Chexoslovakiya xalqidan uzr so‘radi. 1989-yil boshlarida O‘zbekistonda ham ruslarga qarshi varaqalar tarqatilayotgani matbuotda ovoza qilindi. Yana shunday varaqa tarqatib qo‘lga tushgan yigitlarning ikkovi ham ruslar ekanligi aniqlandi. “shunchaki, onasini qo‘rqitib qo‘ymoqchi bo‘lgan” bu ikki yosh ig‘vogar jumhuriyat oynaijahoni orqali butun xalqqa ko‘rsatilgani ko‘plarning esidadir. (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” ro‘znomasi, 1989- yil dekabrining 15-kuni). Mesxet turklari qavmi bilan o‘zbek qavmi o‘rtasida to‘qnashuv uyushtirilgan paytda, Farg‘onada ruslarga tahdid qiluvchi varaqalar va e’lonlar yopishtirib chiqilgani shov-shuv qilindi. Shunday tahdidli e’lonlardan biri

¹⁰⁸ “Совет Ўзбекистони”, 1989 йил 13 июнь.

Fargʻonadagi universal doʻkon devoriga yopishtirilgan. Biroq, yozuvchi Yoʻldosh Sulaymon isbotlab, fosh etganidek, oʻsha eʼlonni yopishtirganning oʻzi mazkur doʻkonda ishlaydigan rus ayoli ekan. Toʻolon vaqtida turklarga va ruslarga qarshi Shiorlar, koʻk bayroqlar, hatto, bir tomonda Gorbachyovning, bir tomonda Humayniyning katta suratlarini koʻtarib chiqqanlari matbuotda zoʻr taʼkid bilan aytili¹⁰⁹. Bu mantiqsizlikning oʻzi buzgʻunchi fitnachilarning eski tajribasidan kelib chiqayotgani yaqqol sezilib turibdi. Yoʻqsa, Humayniy fargʻonaliklarning tushiga kiribdimi?! Aqlini taniydigan kishiga ayon bir illat bor: Sovet jamiyatida son jihatdan ozchilikni tashkil etgan, shoʻro oilasida haqiqatan pano^h topgan yoxud SSSR tarkibidan chiqib ketish xavfi, imkoniyati va yo daʼvosi boʻlmagan millat hamda elatlarga goʻyo sezilarli imtiyozlar beriladi, boshqalarni qisish evaziga ularni tuzum bir muncha “erkalagan” boʻladi, “tanobi”ni boʻshroq qoʻyadi... Tuzum uchun ulardan ehtiyot boʻlishning hojati yoʻq...Biroq mesxet turklari qolgan barcha turkiylar kabi, keyingi asrlarda taqdir erkalamagan xalqlardan. “Ulugʻ Vatan urushida 40 ming mesxetlik turkdan 26 ming nafari qirilib ketib, atigi 14 ming nafari tirik qaytdi”¹¹⁰. Shunga qaramay, ular sovet davlatining, Stalinning quvgʻiniga uchradilar. Vatanlaridan ayrilib, insoniy haq-huquqlari oyoqosti qilindi.

“Gorbachevcha” qayta qurish natijasida mamlakatda yalpi kommunistik senzura zaiflashdi va deyarli yoʻq holiga keltirildi, uzoq vaqtdan buyon kutib kelingan hurfikrlilik va matbuot erkinligi pallasⁱ boshlandi. Respublikada tobora kuchayib borayotgan demokratik jarayonlar mustabid tuzum davrida yillar davomida toplanib qolgan salbiy illatlarning yuzaga chiqishiga sabab boʻldi.

1989-yil may-iyun oylarida Fargʻona viloyatidada millatlararo mojarolar roʻy berdiki, u respublikada va butun mamlakatda gʻoyat darajada katta shov-shuvga sabab boʻldi hamda respublikada siyosiy vaziyatning keskin tus olishiga olib keldi. Bu mojaro shunchaki, oddiy bezorilikdan iboratdek koʻrinsa-da, lekin uning zaminida mustabid sovet tuzumi yillarida toʻplanib, pishib yetilgan, ertami-kechmi

¹⁰⁹ e-tarix. uz/vatan-tarix/162-fitna-sanati.pdf.

¹¹⁰ e-tarix. uz/vatan-tarix/162-fitna-sanati.pdf.

“portlashi” kutilgan milliy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muammolar yotgan edi. Ikkinchi jahon urushi yillarida mustabid tuzum tomonidan deportatsiya qilingan bir qator xalqlar qatorida mesxeti turklari ham bo’lib, ular asosan aholi zich yashaydigan Farg’ona viloyatiga, bir qismi Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlariga joylashtirilgan bo’lib, buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy va millatlararo munosabatlarda qo’shimcha muammolarni yuzaga keltirgan edi. Bu muammolarga Sovet davlati o’z vaqtida e’tibor bermadi. Aksincha, “rivojlangan sotsializm” davriga kelib SSSRda “milliy masala butunlay hal qilindi” deb “tantana” qilindi. Biroq 1989-yil 24-mayda Quvasoy shaxrida yoshlar o’rtasida (R.Nishonov ning ta’rificha, “bir banka qulpinoy” uchun) bo’lgan bezorilik millatlararo (mahalliy yoshlar bilan mesxeti turklar o’rtasida) to’qnashuvni keltirib chiqardi va bu mojaro Farg’ona vodiysida ommaviy tus oldi. Farg’ona fojialariga taalluqli ma’lumotlarning (lekin ma’lumotlar yo‘q darajada) tahlili shuni kursatdiki, mesxeti turklari uchun bu mojaro mustabid tuzum aybi bilan urush davrida majburan tashlab chiqilgan ona vatanlariga qaytib borishlari uchun bahona sifatida kerak bo’lgan. Mahalliy aholi esa bu mojaroga tabiiy ravishda qo’shib ketgan. Chunki joylarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga e’tibor berilmagan, mahalliy yoshlar o’rtasida ishsizlik ko’payib, aholining turmush darajasi pasayib borgan, aholi uy-joylar bilan ta’minlanmagan, uy qurish uchun uchastkalar ajratilmagan, paxta yakkahokimligi, ekologiya muammolari hal qilinmagan, poraxo’rlik, ko’zbo’yamachilik, qonunbuzarlik avj olgan. Bu muammolar to’planib, oxir-oqibatda millatlararo to’qnashuvlarni yuzaga keltirdi, natijada begunoh qurbonlar berildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida mustabid tuzum tomonidan majburan o’z vatanidan badarg’a qilingan mesxeti turklari Farg’ona viloyatidan mamlakatning boshqa hududlariga ko’chishga majbur bo’ldilar. Mudxish voqealardan keyin berilgan rasmiy bayonotlarga ko’ra, respublikada vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikdan ommaviy tartibsizliklarni, millatlar o’rtasida nifoq va to’qnashuvlarni keltirib chiqarishga uringan ekstremistik kuchlar turgan. Lekin, shuni aloxida ta’kidlash kerak-ki urushning azob-uqubatlariga qaramasdan, majburan ko’chirib keltirilgan, och-yalang’och, jondan to’ygan,

xo'rlangan xalqqa nisbatan o'zining insonparvarlik xislatini ko'rsatgan o'zbek xalqida, o'zining tabiiy mexmondo'stligini necha bor butun jahonga namoyish qilgan xalq uchun hech qanday ijtimoiy muxtojliklar millatlararo janjal ko'tarishga bahona bo'lib xizmat qila olmas edi. Bu ataylab uyushtirilgan siyosiy ig'vogarlik edi. Tub xalqlarning milliy uyg'onishini, tobora o'sib borayotgan milliy o'zlikni anglash jarayonini bostirish, asosiy va hayotiy muammolardan, "inqilobiy qayta qurish" rejalarining aniq barbod bo'lganligidan mamlakat aholisining e'tiborini chalg'itish uchun qora niyatli kuchlar tomonidan ataylab uyushtirilgan favqulotda xolat edi. Lekin Farg'ona fojialari sodir bo'lgan vaqtda O'zbekiston kompartiyasining birinchi kotibi lavozimida o'tirgan Rafq Nishonov va u boshliq siyosiy rahbariyat bu mudxish hodisalarning aniq, mohiyatini tushunib yetmadi, uni siyosiy jihatdan tug'ri baxolay olmadi. Bunday vaziyatda Rafq Nishonov o'z yurtida sodir bo'layotgan og'ir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni bartaraf etish o'rniga u o'zi anchadan beri orzu qilib yurgan SSSR Oliy Soveti Millatlar Sovetining raisi lavozimiga tayinlanadi va u o'z vatani va xalqini o'ylamay yangi lavozimda ishlash uchun Moskvaga jo'nab ketadi. Oqibatda begunox insonlar hayotdan ko'z yumdi.

Farg'ona voqealaridan keyin O'zbekiston KP MKning birinchi kotibi lavozimiga saylangan I.A.Karimov va u boshliq, siyosiy rahbariyat bu masalada prinsipial mavqeni egalladi. "Kechagina respublikamiz rahbari etib saylangan Islom Karimov ishga kirishgan kunning ertasigayoq, ya'ni 24-iyun kuni O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetida katta majlis o'tkazdi va unda nutq so'zladi. Bu nutq mohiyat e'tiboriga ko'ra Islom Karimovning O'zbekiston rahbari sifatidagi birinchi nutqi ekani bilan ham alohida tarixiy ahamiyatga egadir. Ushbu chiqishda Islom Karimovning siyosiy yetakchiga xos barcha fazilatlarini yaqqol namoyon bo'ladi"¹¹¹. "O'zining keskin tanqidiy va amaliy ruhi bilan ajralib turadigan mazkur nutqda respublika rahbari O'zbekistonda vujudga kelgan o'ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va uning sabablarini chuqur tahlil qilib, achchiq va haqqoniy bir xulosaga keladi. "Biz bundan buyo'n eskicha yashay olmaymiz va bunday

¹¹¹ Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 5.

yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi", deb yangi lavozimga qanday ulug' maqsad va mas'uliyat bilan kirishayotganini, o'z faoliyatida islohotchilik, el-yurtning dard-u tashvishlari eng oliy mezon bo'lib qolishini ochiq bayon qiladi. "Sen - menga tegma, men - senga tegmayman" qabilida ishlashga o'rganib qolgan ko'pchilik zalda o'tirgan rasmiy shaxslar uchun bunday o'tkir so'zlar bamisoli bulutli osmonda chaqmoq chaqnagandek ta'sir etadi. Yangi rahbarning mavjud ahvolni ijobiy tomonga o'zgartirish, respublikani chuqur inqiroz holatidan olib chiqish borasidagi azm-u qarori naqadar jiddiy va qat'iy ekani ularning o'rtasida katta bezovtalik va besaranjomlikka sabab bo'ladi. 25-iyun kuni esa Islom Karimov janjal-to'polonlar alangasi ichida qolib ketgan Farg'onaga yo'l oladi. Lovillab yonayotgan uylar, tahlika va sarosimaga tushgan shahar va qishloqlar, qahrg'azabga to'lgan odamlarning ichiga dadil kirib boradi. Ular bilan chin dildan, hech narsani yashirmasdan ochiq gaplashadi. Bu insonlarning shu vaqtga qadar hech kim eshitmagan oh-u nolalarini tinglab, o'zining yurakdan chiqqan samimiy va haqqoniy so'zlari bilan bamisoli ularning qalbidagi jarohatlarga malham qo'ygandek bo'ladi, ko'ngillarda so'ngan umid uchqunlarini uyg'otadi. Tartib intizomni tiklash, qon to'kilishining oldini olish bo'yicha butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, aniq chora-tadbirlar ko'radi"¹¹². Agar o'sha yillar tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, Farg'ona voqealari haqida shov-shuv ko'targanlar, shunday qonli fojia hisobidan obro' topish, o'zining g'arazli manfaatlariga erishishga, xalqimizni badnom qilishga uringan kimsalar ko'p bo'lgan. Islom Karimov bu borada kuyib-yonib, asl haqiqatni katta dard va jasorat bilan bayon qiladi, fojia oqibatlarini bartaraf etishning amaliy yechimlarini ishlab chiqadi va izchil amalga oshiradi. Jumladan, Birinchi Prezidentimiz Toshkentda va Moskvada bo'lib o'tgan katta anjumanlarda, shuningdek, matbuotdagi chiqishlarida bu masalada qat'iy pozitsiyada turib, quyidagi fikrlarni alohida ta'kidlaydi: "O'zbek xalqining vijdoni pok. Farg'ona voqealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqealarga tuturuqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, kim qanday bo'yoq bermasin, tarix albatta, o'zining adolatli hukmini chiqaradi. Baynalmilalchilik,

¹¹² Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 5-6.

mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb saxovati hamisha o'zbek xalqiga xos fazilat bo'lib keldi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko'pgina misollar bilan isbot qilingan” (O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1989-yil 19-avgustdagi XVI plenumida so'zlangan nutqdan)¹¹³. Bunday haqqoniy va haroratli so'zlar el-yurtimizning dardiga darmon bo'ldi, xalqning tuhmat va malomatlardan egilgan ruhini ko'tardi. Ana shunday tarixiy misollar asosida aytish mumkinki, Islom Karimovning barcha muammolar haqida - ular qanchalik og'ir va noxush bo'lmasin - ochiq gapirishi, hamisha haqiqatning ko'ziga tik qarashi unga nisbatan xalqimizning e'tirofi va ehtiromini uyg'otdi. O'zidan ilgari respublika rahbari bo'lib ishlagan, siyosiy kaltabinligi va jur'atsizligi bilan el-yurt o'rtasida obro'sini yo'qotgan I. Usmonxo'jayev va R. Nishonov kabi o'tmishdoshlaridan farqli ravishda, Islom Karimov O'zbekiston yetakchisi sifatida uzoq vaqtlar davomida yechilmasdan, gazak oldirilgan kamchilik va nuqsonlar, o'tkir ijtimoiy muammolarning ildizini ochib tashlaydi, mavjud ayanchli ahvolni tuzatish bo'yicha Markaz rahbariyati oldiga qat'iy talablarni prinsipial tarzda qayta-qayta qo'yishdan cho'chimaydi. Ana shu fojiali voqealardan keyin tez orada respublika Kompartiyasi MK Oliy Soveti Rayosati va hukumatining qo'shma majlislarida O'zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasining ahvolini xolisona, tanqidiy nuqtai nazardan baxolashga birinchi bor urinib ko'rdi. O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni o'rganib, unga baxo berar ekan, I. A. Karimov matbuot konferensiyasida: “O'zbekiston yana bir “Farg'ona”ga chidab tura olmaydi”, degan edi. Bu, aslida, yangi rahbarning respublikadagi ahvolni tubdan o'zgartirishga azmu qaror qilganligidan dalolat edi.

¹¹³ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б.7.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki “XX asr 80-yillarida O‘zbekiston SSRni boshqargan davlat rahbarlari portretiga chizgilar (I.Usmonxo‘jayev, R.Nishonov misolida)” mavzusini o‘rganish orqali ko‘p ma‘lumotlarni qo‘lga kiritdim. Bulardan dastlab Inomjon Usmonxo‘jayevga to‘xtaladigan bo‘lsam. XX asrning 80-yillari Butun sobiq Sovet Ittifoqida juda katta siyosiy o‘zgarishlarning boshlanishi davri edi. 1982-yil 10-noyabr kuni L.I. Brejnev vafot etdi. Yangi kelgan rahbar Y.V.Andropov mamlatdagi ko‘zbo‘yamachilikning miqyosini, balandparvoz hisobotlar-u raportlarga qaramasdan haqiqiy holatni yaxshi bilardi. Chunki u uzoq yillar KGB (Davlat xavfsizlik qo‘mitasi) degan tashkilotni boshqargan edi. Markazda boshlangan tozalash juda tezlik bilan O‘zbekistonga ham yetib keldi va bu yerda nihoyatda bema‘ni tus oldi. “Paxta ishi” deb nomlangan jarayonlar boshlanib ketdi. Keng miqyosdagi tekshirishlar boshlanish arafasida, O‘zbekiston SSRni 24 yil boshqargan Sharof Rashidov 1983-yil 31-oktabr kuni Xorazm va Qoraqolpog‘iston safarida yurganida to‘satdan vafot etdi. Bu o‘lim respublikada chorak asr davomida shakllangan o‘ziga hos muvozanatni buzulishiga olib keldi. Mana shunday siyosiy o‘zgarishlar jarayoni yuz berayotgan bir davrda Sh.Rashidovdan so‘ng O‘zbekiston SSRga rahbarlikka Inomjon Usmonxo‘jayev tayinlandi. Inomjon Usmonxo‘jayev davrida respublikada ijtimoiy-iqtisodiy va siyosi inqiroz boshlandi. Uning ojizligi va boshqaruv sohasida o‘zining qat‘iy prinsipi yoqligi qat‘iyatsizligi natijasida Respublika partiya va davlat rahbarlik lavozimlariga Markaz tomonidan ko‘plab kadrlar yuborildi. “Kadrlar to‘dasi” deb nom olgan 400 ga yaqin kelgindilar O‘zbekistonni o‘z bilganlaricha boshqara boshladilar. Inomjon Usmonxo‘jayev rahbarligi davrida O‘zbekistonda “O‘zbeklar ishi”, “Paxta ishi” nomi ostida sovetlar qatag‘on siyosatining yangi to‘lqini amalga oshirildi. Moskvadan yuborilgan Gdlyan va Ivanov guruhi O‘zbekistonning boshiga tushgan kulfat bo‘ldi. Guruh a‘zolari hech kim bilan hisoblashib o‘tirmay odamlarni qamash bilan shug‘ullandi. Oddiy dehqondan tortib O‘zbekiston Kompartiyasi MQ sekretarlari va hukumat a‘zolarigacha bo‘lgan xodimlarni qamash uchun birovlarini zo‘rlab yozdirib olgan bir parcha

qog'oz kifoya edi. O'zbekistonda qonunchilik buzildi, o'zboshimchalik va qatag'onchilikning yangi davri avj oldi. Ming-minglab iqtidorli, rahbarlik mahoratini puxta egallagan rahbar kadrlar, paxtakorlar, ter to'kib mehnat qilgan halol kishilar qamoqqa olindi. "O'zbeklar ishi", "Paxta ishi" bo'yicha qancha odamning qamoqqa olinganligi to'g'risida turlicha ma'lumotlar bor. Ba'zi manbalarda 22 ming, boshqasida 30 ming, hatto 48 ming odam hibsga olinganligi ko'rsatiladi. 4,5 mingdan ko'proq kishi sud qililib, turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi. O'zbekistonning, o'zbek xalqining sha'ni-shavkati va qadriyatini oyoq osti qilindi. Buni anglamagan, ayrim mahalliy rahbar xodimlar o'zboshimcha qonunbuzarlarga yordamlashdilar. Ommaviy axborot vositalari xalqni dalil-isbotsiz tahqir qilish, halol mehnatkashlarni ma'naviy ezishga yo'naltirilgan ko'plab xabarlar, maqolalar berar edilar. Natijada butun bir mamlakat va millat badnom qilindi, poraxo'r, olib-sotar sifatida "sharmanda" qilindi. Butun SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham kamchiliklar, qo'shib yozishlar, poraxo'rlik illatlari va boshqa jinoyatchiliklar bor edi, albatta. Lekin bu illatlarni o'zbek xalqi emas, balki sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi. O'zbekiston fuqarolari o'z xaq-huquqlarini himoya qilishlarini so'rab tuman, viloyat va respublika partiya va sovet organlariga murojaat qildilar. Inomjon Usmonxo'jayev Moskva borib tergovchilar noqonuniy faoliyat yuritayotganini va ularga qarshi chora ko'rish kerakligini aytadi. Lekin, ular Gdlyanga ishonishdi, o'shanda Inomjon Usmonxo'jayevga hech kim ishonmagan. Aksincha Inomjon Usmonxo'jayev ham qatag'on qurboni bo'ldi. Bu kishilarga esa erkinlik berib qo'yishgan. Hamma imkoniyatlar shu kishilarga yaratilgan, xalqning arz-dodini o'sha davrdagi davlatning mas'ul hodimlari hal etib beraolmadilar. Haqiqat, adolat keyinroq Islom Karimov O'zbekiston rahbari bo'lgach ro'yobga chiqdi. Islom Karimov tashabbusi bilan "Paxta ishi"ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Pirovardida 3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi, qolganlari avf etildi. Inomjon Usmonxo'jayevdan so'ng O'zbekiston SSRda rahbarlik qilgan Rafiq Nishonov davrida respublikani chuqur ijtimoiy-inqtisodiy va siyosiy inqiroz chulg'ab oldi. Aholining ijtimoiy ahvoli nochor edi.

O'sha yillarda mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, kun kechirish uchun bir kishiga oyida kamida 85 so'm zarur edi. O'zbekistonda aholi jon boshiga daromad 75 so'mdan oshmaydigan 8 million 800 mingga yaqin kishi yashardi, bular aholining 45 foizini tashkil etardi. Qishloq aholisining atigi 50 foizi toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan edi, xolos. Qishloqlarda yashovchi 240 ming oilaning tomorqa eri yo'q, har besh xonadonning birida birorta ham chorva mol, 37 foiz xonadonlarda sigir, yarmisida qo'y boqilmas edi. Maktab va maorif ishlarini isloh qilish va o'rta maxsus ta'limni qayta qurish borasidagi sa'y-harakatlar ham behuda ketdi. Respublikadagi 9000 ga yaqin maktablarning atigi 40 foizi maktab uchun mo'ljallab qurilgan binolarda, qolganlari esa moslashtirilgan binolarda ishlardi, ko'plari avariya holatda edi, o'quvchilarning katta qismi ikkinchi yoki uchinchi smenada o'qir edi. O'quvchilarning yiliga 2-3 oylab qishloq xo'jalik ishlariga jalb etilishi o'quv ishlarini izdan chiqargan edi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ham mutaxassislar tayyorlash sifati pasayib ketgan edi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida muammolar to'planib bordi. Respublika rahbari Rafiq Nishonov bunday og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni ma'muriy-buyruqbozlik usullari bilan hal qilishga urinishlari hech qanday natija bermadi. Natijada xalq orasida pinhona o'sib borayotgan ishonchsizlik, loyqadlik kayfiyatlari asta-sekin yuzaga chiqa boshladi. Ruqsat etilmagan mitinglar, namoyishlar o'tkazish, hatto noxush voqealar ham sodir bo'la bordi. Rafiq Nishonov respublikadagi bunday mushkul vaziyatni yetarlicha baho bermasdan, unga qarshi adolatli chora-tadbirlar ko'rmaganligi oqibatida 1989-yilning may-iyun oylarida Farg'onada fojiali voqealar sodir bo'ldi. 45 yil muqqadam Stalin bedodligi natijasida o'z yeridan badarg'a qilingan mesxeti turklarini o'zbek xalqi o'z bag'riga olgan, ularga mehribonlik qilgan edi. Tub yerli aholi bilan mesxeti turklari qardoshlik aloqalarini bog'lab, inoqlashib yashardilar. Biroq 1989-yil 20-mayda Quvasoyda tub erli aholi bilan mesxeti turklari guruhlarida o'rtasida mushtlashish sodir bo'ldi. Respublika rahbari Rafiq Nishonov ning voqeani to'g'ri baholay olmaganligi va tezkorlik bilan zarur choralar ko'rmaganligi oqibatida vaziyat murakkablashdi va etnik mojaroga aylanib, qon to'kilishiga olib keldi. Shunday og'ir vaziyatda Rafiq Nishonov o'z

yurtida sodir bo'layotgan og'ir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni bartaraf etish o'rniga u o'zi anchadan beri orzu qilib yurgan SSSR Oliy Soveti Millatlar Sovetining raisi lavozimiga tayinlanadi va u o'z vatani va xalqini o'ylamay yangi lavozimda ishlash uchun Moskvaga jo'nab ketadi. Oqibatda begunox insonlar hayotdan ko'z yumdi. Mansabparast Rafiq Nishonov o'rniga O'zbekistonga 1989-yil 23-iyunda Islom Karimov yangi rahbar etib tayinlandi. Islom Karimov Farg'ona fojealarini bartaraf etish va xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash yuzasidan qat'iy chora-tadbirlar ko'rdi. Islom Karimov boshchiligida yangi davrni boshladi. Rafiq Nishonov esa respublikaga rahbarlik qilgan yillarda qat'iyatsizligi, uzoqni ko'ra bilmagani tufayli Markazning O'zbekistonga nisbatan g'arazli siyosati va qatag'onlari davom etdi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot og'irlashdi, millatlararo adovatlar kuchaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Bitiruv malakaviy ishi uchun nazariy asos bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.1. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.
- 1.2. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қаътий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг қуналик қондаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
- 1.3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
- 1.4. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.
- 1.5. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.
- 1.6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
- 1.7. Каримов И. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. – Т.: Ўзбекистон, 1995.
- 1.8. Каримов И. А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.
- 1.9. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент, 1998. – 316.
- 1.10. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.11. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. –Т.: Ўзбекистон, 2011. – 438 б.
- 1.12. “Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузурида Ўзбекистоннинг Энг Янги тарихи бўйича жамоатчилик кенгашини

ташқил этиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори // Халқ сўзи, 2002 йил 12 февраль.

1.13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори //Turkiston. 2014 йил 8 февраль.

1.14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил 8 февраль. 28 (6722)-сони.

1.15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сонли Қарори / Акс Садо. 2017 йил 6 апрель – 22 апрель. - №6 (73).

1.16. “Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори // Халқ сўзи. – 1998 йил, 28 июль.

1.17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-49-47 Фармонига илова / Lex UZ.

II. Adabiyotlar

2.1. Абдулла Жалил. Бўхтон ва ҳақиқат. – Тошкент: Гофур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. – 112 б.

2.2. Абдумуталлиб Қосимий. Ўзбек шоирининг жасорати. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2017. – 92 б.

2.3. Авторхонов А. Кремль салтанати. – Тошкент: Чўлпон, 1993. – 80 б.

2.4. Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. – Тошкент: Академия, 2003. – 144 б.

2.5. Алимардонов Т. Ўчмас Шараф. – Т., 2017. – 315 б.

2.6. Бобоматов Т., Эргашев Ш. XX аср: тақдирларда акс этган тарих. –Т.: O`zbekiston, 2014. – 214 б.

- 2.7. Игорь Бунич. Партиянинг олтинлари. – Тошкент : Маънавият, 2005. – 374 б.
- 2.8. Илюхин В. Қабоҳат ёхуд...: (“Ўзбек иши” деган уйдирма хусусида). – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 271 б.
- 2.9. Исоқов Б. Истиқлол – истиқбол ибтидоси. – Наманган: Наманган, 2017. – 375 б.
- 2.10. Муртазаева Р. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – 655 б.
- 2.11. Мухитдинов Н. Кремлда ўтган йилларим. I китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 366 б.
- 2.12. Қобилов Ш. Р. Пахта яккаҳокимлиги ва унинг ҳалокатли оқибатлари. – Тошкент, 2015. – 112 б.
- 2.13. Тухлиев Н. Ўзбекистон иқтисодиёти. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 175 б.
- 2.14. Usmonov Q., Sodiqov M. O`zbekiston tarixi (1917 – 1991-yillar). – Т.: Sharq, 2010. – 256 б.
- 2.15. Хўжамбердиев Ё. Ўзбеклар иши. – Т.: Ёзувчи, 1990. – 304 б.
- 2.16. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000. – 684 б.
- 2.17. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-том. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 704 б.
- 2.18. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-том. – Т.: Ўзбекистон, 2005. – 704 б.
- 2.19. Ўзбекистон ССР Конституцияси (Асосий қонуни). – Т.: Ўзбекистон, 1989. – 22 б.
- 1.20. Ўзбекистон ССР Конституцияси (Асосий қонуни). – Т.: Ўзбекистон, 1989. – 64 б.
- 2.21. Usmonov Q., Sodiqov M. O`zbekiston tarixi (1917 – 1991-yillar). – Т.: Sharq, 2010. – 256 б.
- 2.22. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. – Т.: Sharq, 2010. – 496 б.

III. Vaqtli matbuot nashrlari:

- 3.1. “Ёш ленинчи”, 1990 йил, 1 декабрь.
- 3.2. Саодат. 1991 йил, № 11. – Б. 22.
- 3.3. “Совет Ўзбекистони”, 1982 йил 22 декабрь.
- 3.4. “Совет Ўзбекистони”, 1984 йил 12 сентябрь.
- 3.5. “Совет Ўзбекистони», 1984 йил 20 сентябрь.
- 3.6. “Совет Ўзбекистони”, 1984 йил 21 октябрь.
- 3.7. “Совет Ўзбекистони”, 1985 йил 31 март.
- 3.8. “Совет Ўзбекистони”, 1986 йил, 31 январь.
- 3.9. “Совет Ўзбекистони”, 1986 йил, 4 июль.
- 3.10. “Совет Ўзбекистони”, 1988 йил 13 январь.
- 3.11. “Совет Ўзбекистони”, 1988 йил 18 ноябрь.
- 3.12. “Совет Ўзбекистони”, 1989 йил, 31 январь.
- 3.13. “Совет Ўзбекистони”, 1989 йил, 31 март.
- 3.14. “Совет Ўзбекистони”, 1989 йил 13 июнь.
- 3.15. Фан ва турмуш. 1990 йил, – № 7. – Б. 24.
- 3.16. Шарқ юлдузи. 1993 йил, – № 9. – Б. 56.
- 3.17. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1989 йил 16 июнь.
- 3.18. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1989 йил, 25 август.
- 3.19. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1990 йил 5 июнь.

IV. Internet materiallari

4. 1. [e-tarix. uz/vatan-tarix/162-fitna-sanati.pdf](http://e-tarix.uz/vatan-tarix/162-fitna-sanati.pdf).
4. 2. www.biblius.ru.
4. 3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Нишонов,Рафик_Нишонович.
4. 4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Усмонходжаев,_Бузрукходжа.
4. 5. https://ru.wikipedia.org/wiki/усмонходжаев,_иномжон_бузрукович.
- 4.6. <https://www.xabar.uz/siyosat/qotil-qo'li-qilich-soldi-mast>.

4.7.<https://kun.uz/new/2018/05/04/telman-gdlyan-jinoyatchi-va-o'z-qilmishlari-uchun-javobgarlikka-tortilishi-kerak>

4.8.<http://www.xabar.uz/uz/mualliflar/Davronbek> Tojaliyev/2017-yili
yoqotganlarimiz

4.9.<https://daryo.uz/2017/03/18/o'zbekistonning-1983-1988-yillardagi-rahbari-Inomjon-Usmonxo'jayev-vafot-etdi>.